

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA  
INSTITUTI**

**G‘.D.DUSMURATOV  
S.S.ISMAILOVA**

**LIZING ASOSLARI**

**O‘quv qo‘llana**

**TOSHKENT – 2016**

**G‘.D.DUSMURATOV, S.S.ISMAILOVA. Lizing asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2016 y. 160 bet.**

Ushbu o‘quv qo‘llanamada bozor munosabatlariga o‘tish sharoitlarida lizing faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarning batafsil ifodalanishini o‘z ichiga kiritgan. Lizing rivojlanishining afzalliklari, ahamiyati va samaradorligi, turlari, soliqqa tortish masalalari, tashkiliy va boshqarish shakllari, lizing munosabatlarni respublikada rivojlanish holati va kabi dolzarb muammolar batafsil bayon etilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriatning “Iqtisodiyot”, “Menejment” va “Buxgalteriya hisodi va audit” ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llana QXA-2-030-2015. «Qishloq va suv xo‘jaligida lizing faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish» mavzusidagi 2015-2017 yillarga mo‘ljallangan davlat granti loyihasi doirasida tayyorlandi.

**Ma’sul muharrir:** Nigmadjanov U.X. – Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti “Iqtisodiy nazariya asoslari” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori

**Taqrizchilar:** Toshboyev A.J. – Toshkent Davlat agrar universiteti “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Shafkarov B.X. – Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti “Suv xo‘jaligida menejment” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti ilmiy – uslubiy Kengashining \_\_\_\_\_ 2016 yilda bo‘lib o‘tgan \_\_\_\_\_ sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

**© Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti, 2016 yil.**

## K I R I S H

*Fanni o‘rganish dolzarbligi.* Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda O‘zbekistonning sanoat korxonalari oldida bir qator muammolar vujudga keldi. Bu muammolar ichida raqobatchilik o‘sib borayotgan sharoitlarga moslashish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxining yuqoriligi sababli sotuv bozorining qisqarishi, to‘lovlar bilan bog‘liq muammolar, xom-ashyo va materiallar yetkazib beruvchi ta’minotchilarni izlab topishdagi qiyinchiliklar hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi eng asosiyлари hisoblanadi. Hozirgi paytda korxonalar o‘z o‘rnini yo‘qotmaslik uchun bir qator xususiyatlarga – moslashuvchanlikka, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga, ishlab chiqarilayotgan tovar assortimentini tez o‘zgartira olish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun korxonalar zamonaviy ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lishlari zarur, bu esa katta miqdorda investitsiyalar jalb etishni talab qiladi. Yuzaga kelgan vaziyatda respublikamiz uchun an’anaviy bo‘lmagan yangi investitsiya manbalarini izlab topish zarur. Oxirgi yillar mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlarini sotishning asosiy shakllariga muqobil sifatida lizing faoliyati namoyon bo‘lmoqda. U tadbirkorlikda yangi, yanada kuchli motivatsion stimullarni yaratadi, ishlab chiqarishga yangi texnikalarni kiritishni tezlashtirishga ko‘maklashadi.

Lizing nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda ham tadbirkorlik faoliyatining eng yosh turlaridan biri hisoblanadi. Lizing XX asrning 50 - yillarida AQSHda paydo bo‘lib, 60 - yillarning boshidayoq butun Yevropada keng tarqala boshladi hamda mablag‘larni asbob-uskunalarga investitsiya qilishning eng samarali va ishonchli usuli sifatida tan olindi. AQSH va G‘arbiy Yevropada lizingning bunday jadal sur’atlarda rivojlanishida davlatning roli kattadir. Davlat sezilarli soliq imtiyozlari, amortizatsiya va kredit imtiyozlarini taqdim etish yo‘li bilan lizingning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratib berdi.

O‘zbekistonda lizing rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lsada, yaqin keljakda uning nafaqat o‘z imkoniyatlariga tayangan holda, balki davlatning qo‘llab-quvvatlashi yordamida jadal sur’atlar bilan rivojlanishi kutilmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida 2006 - yilda iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor masalasi – bozor islohotlarni chuqurlashtirishi va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishdan iborat<sup>1</sup>. O‘zbekiston

<sup>1</sup> Каримов И.А., “Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруzasи // Халқ сўзи, 2005, 29 январь, 20 сон.

Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek, "Bugun biz uchun g'oyat zarur bo'lgan investitsiyalar oqimi kuchayishiga, qishloq xo'jaligi texnikasini, transport va samolyotlar parkini yangilashda lizing amaliy vosita bo'lib xizmat qilishi zarur".<sup>2</sup>

*Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarning qiyosiy tahlili.* Hozirgi davrda lizingdan foydalanish nazariyasi va amaliyoti sohasida mamlakatimizdagi va chet ellik olimlar tomonidan muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Richard Breyli, V. Xoyer, K.I. Shpittler kabi chet ellik iqtisodchilarning asarlarida nazariy-metodologik muammolar tadqiq etilgan. Rossiyalik mutaxassislardan V.D. Gazman, V.A. Goremikin, E.V. Kabatova, M.I. Leshenko va boshqalar lizing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Lizing va undan foydalanish amaliyotining ayrim masalalari respublikamiz iqtisodchi olimlari M.I. Yo'ldashev, A. Ma'murov, O. Sobirov, D.G'. G'ozibekovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

V.D. Gazman tomonidan 2006 - yilda tayyorlangan "Lizing" nomli darslikda lizingning paydo bo'lish tarixi, lizing biznesning iqtisodiy va huquqiy asoslari, lizing jarayonini texnologiyasi va asosi, lizing faoliyatining asosiy hujjatlari tahlili kabi dolzarb muammolar batafsil bayon etilgan. Ushbu darslikda lizing munosabatlarini davlat tomonidan rivojlantirishi, lizing faoliyatini sug'ortalash va lizing bo'yicha imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi ko'rsatilgan.

D.G'. G'ozibekov, O.SH. Sabirov, A.G. Mo'minov, O.M. Kuljonov tomonidan 2004 - yilda tayyorlangan "Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti" nomli o'quv qo'llanmada lizing munosabatlari ilg'or mamlakatlar tajribasi, lizing munosabatlarining nazariy asoslari, investitsion loyihalarini moliyalashtirishda lizing samarasini aniqlash, lizing shartnomalarni tuzish va lizing to'lovlarini hisoblash, lizingning buxgalteriya hisobi kabi masalalar ko'rsatilgan. O'quv qo'llanmada O'zbekistonda lizing munosabatlari rivojlantirish va kengaytirish masalalari, kichik biznes va tadbirkorlar faoliyatini moliyalashtirishda lizingi qo'llash imkoniyatlari ham yoritib berilgan.

V.A. Goremikin tomonidan 2003 - yilda tayyorlangan "Lizing" nomli darslikda Rossiyanı qonunlar va normativ hujjatlariga asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan algoritm-chizmalar bilan lizing biznesini iqtisodiy va huquqiy asoslari, lizing bitimlarini amaliy amalga oshirish iqtisodiy

---

<sup>2</sup> Каримов И.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислоҳотларни чукурлаштириш – бизнинг асосий вазифамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2000, 399-б.

texnologiyasi, lizing kompaniyalarni tuzish jarayoni, lizing loyihalarni tanlash va baholash mexanizmi kabi dolzarb muammolar batafsil bayon etilgan.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llana namunaviy o‘quv dasturi asosida yozildi. O‘quv qo‘llanadagi nazariy xulosalar bevosita amaliyot bilan bog‘liq holda yoritishga harakat qilindi.

## I bob. LIZINGNING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Lizingning ta'rifi va mohiyati

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida lizingdan keng foydalanilib, u tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning eng maqsadga muvofiq usullaridan hisoblanadi. O'zbekistonda esa ma'lum bir xatti-harakatlarga qaramay, lizing rivojlanishing shakl va yo'llari endi belgilanmoqda.

Biroq iqtisodiyot inqirozga uchragan, ko'plab korxonalar yirik moliyaviy vositalarni ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va texnikalarni yangilashga kirita olmayotgan bir holat ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish va mamlakatdagi barcha mulkchilik shaklidagi, birinchi navbatda innovatsion tadbirkorlik bilan band bo'lgan ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdordagi mablag'larni, jumladan xususiy investitsiyalarni jalb qilishga imkon beruvchi lizingning rolini oshirish zaruratini talab qiladi.

Istalgan tarmoqda lizing tadbirkorligining muvaffaqiyatga erishishi ko'p jihatdan uning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilish hamda ushbu mexanizmdan unumli foydalanishga bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan lizingning mohiyati, uning tabiatи va salohiyati, vazifalari va tashkiliy shakllari nimadan iborat ekanligini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda xorijiy mamlakatlarda "lizing" tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Kimdir lizingni kreditlashning o'ziga xos shakli deb tasavvur qilsa, boshqalar uni uzoq muddatli ijara o'xshatadilar. Ba'zilar lizingni ishlab chiqarish vositalari oldi-sotdisining yashirin usuli deb qarasa, boshqa birov lizingni o'zgalar mulkini ishonch qog'ozni beruvchining topshirig'i bo'yicha boshqarish bilan bog'laydilar.<sup>1</sup>

Lizing atamasining hozirgi talqini Aristotelning ("Ritorika" asaridagi) so'zlariga borib taqaladi. Unda aytlishicha boylik bu mulkka xususiy mulk sifatida egalik qilish emas, balki undan (mulkdan) oqilona foydalanishdir. Bu fikr lizingning mohiyati juda aniq izohlaydi: foyda olish uchun ishlab chiqarish vositalari yoki boshqa turdagи mulkka ega bo'lish shart emas, undan foydalanish va daromad olishning o'zining yetarlidir.<sup>1</sup> "Lizing" tushunchasi "mulk"ni egalik qilish huquqi va foydalanish huquqiga taqsimlashga asoslanadi.<sup>2</sup>

O'zbek tilida lizing atamasiga aynan mos keluvchi so'z mavjud emas. Semantika (so'zning ma'no jihatidan) nuqtai nazaridan bu atamaga ko'proq ijara


<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Основы технологии лизинговых операций - М.: ИНФРА-М, 2000, 25 с.

<sup>1</sup> Газман В.Д. "Лизинг. Теория и практика" - М.: Фонд "Праовая культура", 2000, 10 с.

<sup>2</sup> Лещенко М.И. "Основы лизинга" - М.: Финансы и статистика, 2001, 37 с.

va ijaraga berish so‘zlari to‘g‘ri keladi. Shu sababli, ko‘p hollarda lizing atamasi turli texnika vositalari, binolar va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan inshootlarni uzoq muddatli ijaraga berish sifatida talqin qilinadi. Ijaraga berish uch tomonlama bitim doirasida amalga oshirilib, unda moliyalashtiruvchi lizing kompaniyasi (lizing beruvchi) mulkni mulk ishlab chiqaruvchidan (mulk egasidan) mijozning (lizing oluvchining) tanlovi asosida sotib oladi va uni mijozga ijaraga beradi, bunda egalik huquqi lizing kompaniyasida (lizing beruvchida) qoladi. Lizing qatnashchilari o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlар bir nechta shartnomalarining mavjudligini asoslab beradi, bu esa lizing operatsiyalarining alohida elementlariga yangicha xislatlar taqdim etadi va ularni bir-biri bilan chambarchas bog‘laydi. Xususan, asosiy lizing shartnomasidan tashqari, oldi-sotdi, kredit, kafolat, xizmat ko‘rsatish kabi boshqa shartnomalar ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Lizingga xos xususiyalardan biri bu shartnomalarining murakkab tarzda birlashuvi va bunda yuzaga keluvchi munosabatlarning o‘zaro chambarchas bog‘lanishidir. Bunda mulkni vaqtinchalik foydalanishga berishdagi munosabatlар asosiy hisoblanadi. Lizing bitimi va moliyaviy oqimlar sxemasi 1-chizmada keltirilgan.



**1-chizma. Lizing bitimi va moliyaviy oqimlarning umumiy sxemasi.**

Mulkiy munosabatlar nuqtai nazaridan lizing bitimi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita tarkibiy qismdan – oldi-sotdi munosabatlari va mulkdan vaqtinchalik foydalanish bilan bog‘liq munosabatlardan iboratdir.<sup>1</sup>

Majburiyat huquqi nuqtai nazaridan bu munosabatlar ikki xil turdag'i shartnomalar – oldi-sotdi va lizing (mulkni vaqtinchalik foydalanishga berish) shartnomalari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Lizing shartnomasida shartnoma muddati tugagach mulkni sotish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bu holda mulkdan vaqtinchalik foydalanish munosabatlari oldi-sotdi munosabatlariga aylanadi. Faqat bu safar munosabatlar lizing beruvchi va mulkdan foydalanuvchi o‘rtasida bo‘ladi.

Lizingga xos bo‘lgan jihatlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, uning murakkab uch tomonlama asosini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra lizing xuddi kredit bitimlaridagi kabi, mablag‘larni qaytarib olish shartida asosiy kapitalga kiritishni anglatadi. Boshqa tomondan, bitim ishtirokchilari kapitaldan pul ko‘rinishida emas, balki ishlab chiqarish shaklida foydalanadilar, bu esa uni investitsiyalash bilan yaqinlashtiradi. Uchinchidan esa, lizing ijara mexanizmi bilan chambarchas bog‘liqdir.<sup>2</sup> Biroq yuqorida sanab o‘tilgan munosabatlarning lizingga aynan xosligi to‘g‘risida gapirish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki ulardan hech biri alohida ravishda lizingda mulkchilik munosabatlari majmuasini tartibga sola olmaydi. Ulardan bir vaqtning o‘zida foydalanish va ularning o‘zaro bog‘liqligining lizingni iqtisodiy faoliyatning yangi shakli sifatida yuzaga keltiradi.

Demak, lizing murakkab tizim bo‘lib, o‘z ichiga investitsiya, kredit va ijara bitimlari elementlarini kiritadi. Natijada ishlab chiqarish vositalarini ularni sotib olish va keyinchalik ijaraga berish yo‘li bilan vaqtinchalik foydalanishga berish bilan bog‘liq mulkchilik munosabatlari majmuasi amalga oshiriladi.

Endi lizingga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni sanab o‘tamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mulk va mulk ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ni tanlash huquqiga mulkdan foydalanuvchi ega.
2. Mulk sotuvchisi mulk lizingga berish uchun sotib olinayotganligini biladi.
3. Mulk mulkdorga berilmasdan bevosita foydalanuvchiga beriladi va foydalanuvchi tomonidan ekspluatatsiya qilishga qabul qilinadi.

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Лизинг М.: Дашков и К°, 2003, 33 б.

<sup>2</sup> Лещенко М.И. “Основы лизинга” М.: “Финансы и статистика”, 2001, 47 б.

4. Mulkdan foydalanuvchi kamchilik va nuqsonlar aniqlangan holda o‘z e’tirozlarini mulkdorga emas, balki hech qanday shartnoma munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan sotuvchiga bevosita bildiradi.

5. Lizingga beruvchi mulkni o‘zi foydalanish uchun emas, balki uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun atayin xarid qiladi.


6. Lizing shartnomasi amal qilayotgan davr mobaynida mulk lizingga beruvchining mulki hisoblanadi.

7. Mulk egasiga uni vaqtinchalik foydalanishga berish uchun haq to‘lanadi.

8. Mulkdan foydalanuvchi muddatidan oldin yoki shartnoma muddati tugagach uni sotib olish huquqiga ega bo‘ladi.

## 1.2. Lizing obyektlari va subyektlari

Lizing bitimlarini imzolashda lizing obyektlarini ta’riflash muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra (3-modda), “tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk lizing obyekti bo‘lishi mumkin”.<sup>1</sup> Lizingning asosiy sharti shuki, lizing obyektlaridan faqat tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish talab qilinadi. Ijaradan farqli ravishda barcha ko‘chmas mulklarning asosi hisoblanuvchi yer maydonlari va tabiiy komplekslar lizingga berilishi mumkin emas. Lizingning asosiy shartiga ko‘ra lizing obyektlaridan faqat tadbirkorlik maqsadlaridagina foydalanish mumkin. Lizing obyektlari 2-chizmada aks ettirilgan.



2-chizma. Lizing obyektlari.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Лизинг тўғрисида” ги қонуни, 1999 й. 14 апрель, 3-модда

Klassik lizing subyektlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin (3-chizma):

- lizing beruvchi (lizing predmeti egasi) - huquqiy shaxs bo‘lib, mulkni ishlab chiqaruvchidan (sotuvchidan) sotib oladi va uni lizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchiga beradi;
- lizing oluvchi (lizing predmetidan foydalanuvchi) – huquqiy shaxs yoki huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lmagan holda xususiy tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqaro bo‘lib, lizing shartnomasi bo‘yicha lizing mulkini vaqtincha foydalanishga oladi;
- yetkazib beruvchi (ta’minlovchi) – lizing predmetini sotuvchi – huquqiy yoki jismoniy shaxs bo‘lib, lizing oluvchi tanlagan mulkning egasi hisoblanai va lizing beruvchi bilan ushbu mulk bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasini imzolaydi.

<b>Bozorda lizing beruvchi sifatida ishtirok etuvchilar</b>	<b>Bozorda mulkni yetkazib beruvchi sifatida ishtirok etuvchilar</b>	<b>Bozorda lizing oluvchi sifatida ishtirok etuvchilar</b>
Moliya kredit muassasalari	Mulk egalari	Mahsulot ishlab chiqaruvchi huquqiy shaxslar
Moliya lizing kompaniyasi	Mulkni ishlab chiqaruvchilar	Tadbirkorlar
Ixtisoslashgan lizing kompaniyasi	Savdo firmalari	
Korxonaning shu’ba bo‘limlari va bo‘linmalari	Savdo-ta’minot tashkilotlari	
Tijorat banklari		
Davlat organlari va mahalliy organlar		

### **3-chizma. Lizing subyektlari.<sup>1</sup>**

Bir qator hollarda yirik bitimlar imzolashda ishtirokchilar soni 6-7 taga yetishi mumkin, chunki bitimda turli xil vositachilar ham ishtirok etadi. Lizing bitimlarida bitimni moliyalashtiruvchi brokerlik lizing firmalari, trast kompaniyalari, moliya kompaniyalari, sug‘urta kompaniyalari hamda xizmat ko‘rsatuvchi boshqa shaxslar (diler, makler, broker, distribyuter va agentlar)

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Основы технологии лизинговых операций -М.: ИНФРА-М, 2000, 27 с.

vositachi sifatida ishtirok etishi mumkin. Xalqaro lizingda milliy lizing bozori subyektlari sifatida chet ellik huquqiy shaxslar ishtirok etib, ular lizing oluvchi, lizing beruvchi va ta'minlovchi vazifasini bajarishi mumkin.

### **1.3. Iqtisodiyotda lizingning asosiy funksiyalari va afzallikkleri**

Iqtisodiy nuqtai nazardan lizingning uchta muhim funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin (4-chizma).

#### **Funksiyalar**

##### **Moliyaviy:**

- -lizing oluvchini zarur ishlab chiqarish vositalari narxini to'laligicha bir vaqtning o'zida to'lashdan ozod qilish;
- -lizing oluvchiga uzoq muddatli kredit berish

##### **Ishlab chiqarish:**

- ishlab chiqarish vazifalarini mulkdan vaqtinchalik foydalanish hisobiga tezlik bilan hal qilish;
- -moddiy-taxnik ta'minotning samarali usuli;
- -FTT va eng yangi texnikalarga ega bo'lism;
- to'liq to'plamli lizing turli xil xizmatlar majmuasi bilan amalgam oshiriladi: texnik xizmat ko'rsatish, sug'urtalash, xom-ashyo bilan ta'minlash.

##### **Sotish:**

- iste'molchilar doirasini kengaytirish;
- yangi sotuv bozorlarini egallash;
- lizing sohasiga u yoki bu mulkni sotib olishga qodir bo'limganlarni jalb qilish;
- yangi tovar yaratish, modifikatsiya.

#### **4-chizma. Lizingning asosiy funksiyalari.**

Moliyaviy funksiya tovar ishlab chiqaruvchini zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarining to'liq qiymatini bir vaqtning o'zida to'lashdan ozod qilish va unga uzoq muddatli kredit berishda namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarishdagi muammolarni mulkdan vaqtinchalik foydalanish hisobiga hal qilishdan iborat bo'lib, u yangi texnika ishlab chiqarish va moddiy-texnika ta'minotining samarali usuli hisoblanadi

hamda texnik xizmat ko'rsatish, xom-ashyo va ishchi kuchi bilan ta'minlash kabi turli xil servis xizmatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Sotish funksiyasi o'z ichiga iste'molchilar doirasi, ya'ni sotuv bozorlarini egallash, shuningdek, lizing sohasiga u yoki bu mulkni sotib olish imkoniyatiga ega bo'limganlarni jalg qilishni kiritadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi va milliy amaliyoti lizingning yana bir funksiyasini ko'rsatadi. Bu amortizatsiya va soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega hisoblanadi:

- Lizing mulki tomonlarning kelishuvi bo'yicha lizing beruvchi yoki lizing oluvchining balansida hisobga olinadi;
- Lizing to'lovi lizing oluvchi ishlab chiqarayotgan mahsulot tannarxiga kiritiladi, bu esa soliqqa tortiluvchi foyda miqdorini kamaytiradi;
- Jadal amortizatsiya soliqqa tortiluvchi foyda miqdorini kamaytiradi va moddiy-texnika bazasini yangilashni tezlashtiradi.

Shu tariqa, ushbu funksiya eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi, chunki u lizing beruvchiga ham, lizing oluvchiga ham imtiyozlar beradi. Xar bir ishtirokchi uchun lizing quyidagi afzalliklarni beradi:

**Lizing oluvchi uchun:** texnika ma'naviy eskirayotgan sharoitlarda yangi, ilg'or texnikalarga ega bo'lish uchun yo'l ochilishi: mulkni sotib olish va moliyalashtirish masalalarini bir vaqtning o'zida hal qilish; sotib olinayotgan mulk qiymatini bir vaqtning o'zida to'lashdan ozod etish; lizing shartnomasi amal qilayotgan muddatga mulk solig'idan ozod qilinish; soliqqa tortiluvchi foyda miqdorini lizing to'lovlarini summasiga kamaytiradi; asbob-uskunalarning ma'naviy eskirish tavakkalchiligining pasayishi; to'lov tizimining moslashuvchanligi; barcha lizing to'lovlarini amalga oshirilgach asbob-uskunalarga to'liq egalik qilish.

**Lizing beruvchi uchun:** ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish va eski mijozlarni saqlab qolish; yangi mijozlarni jalg qilish; o'zlarining bekor turgan mablag'laridan samarali foydalanish, shuningdek qo'shimcha foyda olish; mijozning to'lov layoqati yo'qligi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarning kamayishi; davlat manfaatlariga rioya qilinishi.

**Lizing mulkini sotuvchi uchun:** mahsulotni sotish bozorini kengaytirish; asbob-uskunalar uchun darhol kafolatlangan to'lovni olish; asbob-uskunalarning kamchilik va nuqsonlarini aniqlash maqsadida aloqa o'rmatish; mahsulotni yangilash sur'atlarini tezlashtirish; hisob-kitoblarning qulayligi; yordamchi asbob-uskunalarga talabning mavjudligi; vaqtincha foydalanilmayotgan texnikalardan daromad olish.

**Davlat uchun:** investitsiya qo‘yilmalaridan maqsadli foydalanish kafolati; investitsiya siyosatini faollik bilan amalga oshirish; mablag‘larni asosiy fondlarga an’anaviy moliyalashtirish kanallariga qo‘shimcha ravishda kiritish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishini rag‘batlantirish; ishlab chiqarishning rivojlanishiga qo‘shimcha ma’muriy organlar yaratmasdan, faqat iqtisodiy usullar yordamida investitsiyalar kiritish.

Shu tariqa, lizing mulkni ishlab chiqaruvchi uchun ham, uni iste’mol qiluvchi uchun ham, investor uchun ham qiziqish uyg‘otadi. Iste’molchi uchun bu tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan mulkni moliyalashtirish vositasi bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi uchun sotuv hajmini kengaytirishga imkon beruvchi qo‘shimcha sotish kanali hisoblanadi. Investor uchun esa lizing o‘z pul mablag‘laridan samarali foydalanish imkonini beruvchi kapital kiritishning foydali usulidir.

Lizing to‘g‘risidagi fikrlarning obyektiv bo‘lishi uchun unga xos bo‘lgan bir qator kamchiliklarni ham sanab o‘tish lozim bo‘ladi:<sup>1</sup>

- inflyatsiya tufayli lizing mulkni sotib olish uchun olinuvchi qarzga qaraganda qimmatga tushishi mumkin;
- fan-texnika taraqqiyoti natijasida foydalanilayotgan mulk eskiradi, lizing to‘lovleri esa shartnoma muddati tugaguncha amalga oshiriladi;
- lizing oluvchi bankrotga uchragan taqdirda lizing beruvchi shartnomada ko‘rsatilgan badallarning qolgan qismi to‘lanishini talab qilishga haqli emas;
- lizing muddati tugagandan so‘ng lizing oluvchi eskirgan asbob-uskunalarga ega bo‘ladi.

Shu bilan bir paytda lizingda ijobjiy xislatlar salbiy xislatlarga qaraganda ancha ko‘p bo‘lib, aksari mamlakatlarda lizingning rivojlanish tarixi jamiyatning xo‘jalik hayotida uning katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

#### **1.4. Lizing turlari va lizing bitimlarini amalga oshirish mexanizmi**

Respublikamizda lizingdan maqsadli foydalanishni amaliyotga kiritishni tashkil etishda uning turlari, shakllari va amalga oshirish usullarini to‘g‘ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy lizing xizmatlari bozori bu turdagи xizmatlarning turli-tumanligi bilan tavsiflanadi.

Lizing turlari bitimda ishtirok etuvchilarning tarkibi, lizing obyektining xususiyatlari va ularning amortizatsiya shartlari, tomonlar majburiyatları hajmi,

<sup>1</sup> Лещенко М.И. “Основы лизинга” М.: “Финансы и статистика”, 2001, 58 с.

mulkdan foydalanish muddati, bozor sektori, soliq imtiyozlari va lizing to‘lovlari turlariga bog‘liq ravishda turlarga ajratiladi (1-jadval).

Lizing bitimlari muddati, lizing beruvchining majburiyatlarini hajmi va lizing obyektlarining o‘zini qoplash darajasiga ko‘ra lizingning ikkita asosiy turi – moliyaviy va tezkor lizingni ajratib ko‘rsatish mumkin. Lizing rivojlanishning boshlang‘ich bosqichida turgan O‘zbekiston uchun ko‘proq moliyaviy lizing xarakterlidir. U mulkni uning to‘liq amortizatsiya muddatiga to‘g‘ri keluvchi uzoq muddatga ijara berishni ko‘zda tutadi, ya’ni lizing muddati davomida mulkning to‘liq qiymati to‘lanadi.

1-jadval  
Asosiy lizing turlarining tasniflanishi<sup>1</sup>

<b>Belgilari</b>	<b>Tashkil etish shakli</b>
Ishtirokchilar tarkibi	Bevosita, bilvosita, qaytma, ta’mintonchi lizingi
Lizing obyekti	ko‘char va ko‘chmas mulk
Amortizatsiya shartlari	To‘liq amortizatsiya, qisman amortizatsiya, jadal amortizatsiya
Majburiyatlar hajmi	Sof, to‘liq va qisman xizmatlar
Bozor sektori	Ichki, xalqaro-eksport, import, tranzit
Soliq imtiyozlari	Haqiqiy, soxta
Bitim muddati	Moliyaviy-taqsimlash, guruhli, tezkor
Lizing to‘lovi turlari	Pulli, kompensatsion, aralash


**Moliyaviy lizing** boshqa lizing turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Moliyaviy lizingda mulkka xizmat ko‘rsatish va sug‘urtalash lizing oluvchi tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi hamda shartnomani muddatidan avval bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shartnomaga muddati tugagach, foydalanuvchi mulkni sotib olishi, kelishuvni imtiyozli shartlarda yangilashi yoki munosabatlarni to‘xtatishi mumkin (5-chizma).

Moliyaviy lizing quyidagi turlarga bo‘linadi: **ko‘chmas mulk lizingi, qaytarma lizing, bo‘linma lizing va guruhli (aksiyadorlik) lizing.**

**Bo‘linma lizing** asosiy maqsadi bir nechta kredit tashkilotlarini yirik lizing loyihibalarini moliyalashtirish uchun birlashtirish hisoblanadi. U lizing beruvchining bitta yoki bir nechta kreditordan lizing mulkining 80 % qiymati miqdorida uzoq muddatli qarz olishini ko‘zda tutadi. Bunda lizing beruvchi-qarzdor ssudaning to‘liq va bir vaqtning o‘zida qaytarilishi uchun javobgar

<sup>1</sup> Лещенко М.И. “Основы лизинга” М.: “Финансы и статистика”, 2001, 70 с.

bo‘lmaydi, chunki ssuda bevosita qarz beruvchi tomonidan lizing to‘lovlari hisobiga to‘lanadi.



**5-chizma. Moliyaviy lizing sxemasi<sup>1</sup>**

**Guruhi (aksiyadorlik) lizingda** lizing beruvchi rolini mulkni ishlab chiqaruvchi firmalari bilan banklar (lizing kompaniyalari) kooperatsiyasi bajaradi. Bu turi ko‘pincha juda qimmat uskunalarni bozorga chiqarishda qo‘llanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar hamkorlarni izlab topish va lizing obyektiga texnik xizmat ko‘rsatishni, lizing kompaniyasi esa loyihalarning tashkiliy qismini ishlab chiqishni, ma’muriy masalalarni hal qilishni, maslahat xizmatlari ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi.

**Tezkor lizing** shartnoma muddati mulkning xizmat qilish muddatidan kam ekanligi bilan ajralib turadi. Shartnoma amal qilish muddati davomida lizing beruvchi faqat mulk qiymatining bir qisminigina to‘laydi. Bu holda mulkning qoldiq qiymati yuqori bo‘ladi va lizing beruvchi ushbu qiymatni

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Лизинг М.: Дашков и К°, 2003, 45 с.

qoplash uchun katta tavakkalchilikka uchraydi, chunki u mulkni bir necha bor foydalanishga topshirishi lozim bo‘ladi.

Lizing ishtirokchilari tarkibi va lizing operatsiyalarini o‘tkazishni tashkil etishga ko‘ra **lizing bevosita, bilvosita, qaytma va ta’minotchi lizingi** kabi turlarga taqsimlanadi.

**Bevosita lizingda** lizing beruvchi sifatida mulkni ishlab chiqaruvchi korxona ishtirok etadi va o‘z mulkini mustaqil ravishda lizing oluvchiga topshiradi.

**Bilvosita lizing** mulkni vositachi orqali lizingga berishni ko‘zda tutadi, ya’ni uch tomonlama klassik bitim imzolanadi yoki ishtirokchilar soni 4-7 kishi bo‘lgan ko‘p tomonlama bitim tuziladi.

Bevosita lizingning bir shakli sifatida **qaytma lizingni** ko‘rsatish mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, ishlab chiqaruvchi mulkni lizing kompaniyasiga sotadi, kompaniya esa o‘z navbatida mulkni xuddi shu korxonaning o‘ziga ijaraga beradi, ya’ni mulk ishlab chiqaruvchi va lizing oluvchi bitta huquqiy shaxs hisoblanadi. Mazkur lizing turi moliyaviy holati qiyin bo‘lgan korxonalar uchun qiziqish uyg‘otadi.

Bilvosita lizingga misol tariqasida G‘arb mamlakatlarida keng tarqalgan **ta’milovchi lizingini** keltirish mumkin. Uning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, mulkni yetkazib beruvchi sotuvchi va mulkdan foydalanuvchi hisoblanmagan asosiy lizing oluvchi rolini bajaradi. Lizing oluvchi albatta mulkni uchinchi shaxsga sublizingga beradi.

Lizingni mulk turi bo‘yicha – **ko‘char mulk va ko‘chmas mulk lizingiga** bo‘lish ham keng tarqalgan. **Ko‘char mulk** obyektlariga ishlab chiqarish va qurilish asbob-uskunalar, transport vositalari, kompyuterlar, stanoklar, tele va masofaviy aloqa vositalari va boshqalar kiradi. **Maxsus lizing** ham o‘ziga xos lizing turi hisoblanadi, chunki lizing obyekti foydalanuvchining talablarini inobatga olgan holda maxsus tayyorlanadi. Bunda bitim muddati tugagach mulkdan faqat buyurtmachigina foydalanishi hisobga olinadi. **Ko‘chmas mulk** obyektlarining tasniflanishiga ko‘ra lizing quyidagi turlarga taqsimlanadi: korxonalar, ishlab chiqarish binolari va inshootlarning sanoat lizingi, savdo, ombor, idora va imoratlar lizingi. O‘zbekistonda asosan harakatlanuvchan mulk lizingi, aynan kombaynlar, traktorlar va boshqa texnika turlari lizingi keng qo‘llanadi.

Lizing obyektlarining mulk amortizatsiyasi shartlaridan kelib chiqqan holda, lizing to‘la amortizatsiyali va qisman amortizatsiyali turlarga taqsimlanadi. Birinchi holda to‘la qoplanuvchi lizing, ikkinchi holda esa qisman

qoplanuvchi lizing ko‘zda tutiladi. Ulardan farq qiluvchi jadal amortizatsiyali lizingni ham ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Lizingni mulkka xizmat ko‘rsatish hajmi bo‘yicha taqsimlash ham qiziqish uyg‘otadi. **Lizing “sof”, to‘liq yoki noto‘liq xizmatlar to‘plamiga ega** hamda **bosh** bo‘lishi mumkin.

“**Sof**” **lizingni** amalga oshirishda lizing obyektiga xizmat ko‘rsatishni lizing oluvchi o‘z zimmasiga oladi va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar lizing to‘lovlariга kiritilmaydi.

**To‘liq xizmatlar to‘plamiga ega** bo‘lgan lizingning xususiyati shundaki, bunda lizing beruvchi tomonidan qo‘sishimcha xizmatlar ko‘rsatish - mulkka qarash, sug‘urtalash, zarur xom-ashyolarni yetkazib berish, malakali kadrlar bilan ta’minalash, marketing xizmati ko‘rsatish va tayyor mahsulot reklamasini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

**Noto‘liq xizmatlar to‘plamiga ega bo‘lgan lizing** bu shartnoma imzolagan tomonlarning lizing obyektiga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha vazifalarini avvaldan kelishgan holda taqsimlab olishdir. Masalan, lizing oluvchi mulkni ekspluatatsiya qilish normalariga rioya qilishni o‘z zimmasiga oladi, lizing beruvchi esa obyektni soz holda saqlash uchun xarajatlarni to‘laydi.

**Bosh lizing** oluvchi va lizing beruvchi o‘rtasida umumiy shartnoma tuzilishini ifodalaydi. Bu shartnoma lizing oluvchiga lizingga olinuvchi mulk ro‘yxatini yangi shartnoma imzolamasdan to‘ldirish imkonini beradi.

Lizing bitimining asosiy ishtirokchilar joylashgan mamlakatga bog‘liq holda lizing ichki (bitta mamlakat ichida) va tashqi (xalqaro) turlarga taqsimlanadi. **Xalqaro lizing** o‘z navbatida quyidagicha tasniflanadi:<sup>1</sup>

- import lizingi – lizing beruvchi xorijiy mamlakat hisoblanadi;
- eksport lizingi – lizing oluvchi xorijlik bo‘ladi;
- tranzit lizing – bitimning uchala ishtirokchisi ham turli xil mamlakatlarda bo‘ladi.

Xalqaro amaliyotda lizingning yana bir turi – “dabl dip” bitimlari ishlab chiqilgan. Ularning ma’nosи ikki yoki undan ortiq mamlakatlardagi soliq imtiyozlaridan iborat, ya’ni, masalan, Buyuk Britaniyada lizing oluvchining soliq imtiyozlaridan oluvchi foydasi AQSH da lizing oluvchilarnikiga qaraganda ko‘p. Natijada Angliyalik lizing kompaniyasi mulkni sotib oladi va uni amerikalik lizing kompaniyasiga ijaraga beradi, u esa mulkni o‘z navbatida mahalliy aviakompaniyalarga ijaraga beradi.

<sup>1</sup> Основы предпринимательского дела. Благородный бизнес / под ред. Ю.М. Осипова – М.: “Гуманитарные знания”, 1992, 186 с.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida lizingni soliq va amortizatsiya imtiyozlari bo‘yicha – **haqiqiy va soxta turlarga taqsimlash** ham keng tarqalgan.

**Soxta lizing** mamlakatda amal qiluvchi soliq va boshqa imtiyozlar hisobiga foyda olishga qaratilgan. **Lizingning “haqiqiy” ligini aniqlash** maqsadida dunyo mamlakatlarida lizingning asosiy jihatlari tartibga solinuvchi bir qator normativ-qonun hujjatlariga tayaniladi. Bunda turli mamlakatlarda lizing shartnomasini tuzish haqida turli xil belgilarning mavjudligiga qarab baho beriladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi “Lizing to‘g‘risidagi” Qonuni va Soliq Kodeksiga asosan quyidagi belgilarga amal qilinganda shartnoma lizing shartnomasi hisoblanadi:<sup>1</sup>

- bitim amal qilish muddati davomida lizing obyektining huquqiy egasi lizing beruvchi, iqtisodiy egasi esa foydalanuvchi hisoblanadi;
- mulk egasi tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oladi, belgilangan imtiyozlarga ega bo‘ladi hamda obyekt qiymatini to‘liq yoki qisman moliyalashtiradi. Qo‘sishimcha xizmatlar lizing to‘lovlariga kiritiladi;
- ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining 80% dan ortiq bo‘ladi;
- ijarachi asosiy vositalarni ijara muddati tugagach qat’iy belgilab qo‘yilgan narxda yoki ijara tugagach belgilanuvchi narxda sotib olish huquqiga ega;
- ijara muddati tugagach ijaraga olinuvchi vositalarning qoldiq qiymati ularning dastlabki qiymatining kamida 20 %ini tashkil etadi;
- butun ijara davri bo‘yicha joriy to‘lovlar miqdori ijaraga olinuvchi vositalarning 90 %dan ortiq bo‘ladi.

Agar bitim yuqorida sanab o‘tilgan shartlardan hech bo‘lmasa bittasiga javob beradigan bo‘lsa, bunda haqiqiy lizing haqida gap borayotgan bo‘ladi. Haqiqiy lizing huquqiy jihatdan amaldagi qonunchilikka hamda lizing shaklining iqtisodiy mohiyatiga mos kelishi zarur.

Lizingni lizing to‘lovlar xarakteri bo‘yicha taqsimlash ham qiziqish uyg‘otadi:

**Pulli lizing** – bunda to‘lovlar pul shaklida amalga oshiriladi.

**Kompensatsion lizing** foydalanilayotgan asbob-uskunalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yetkazib berish yoki boshqa turda xizmat ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Respublikamiz qishloq xo‘jaligida bu lizingning eng maqbul

<sup>1</sup> ЎзР “Лизинг тўғрисида”ги Қонун 2-модда. ЎзР Солиқ Кодекси 38-модда– Т.: “Адолат”, 1999, 40 б.

shakli hisoblanadi, chunki ko'rsatilayotgan lizing xizmatlari uchun lizing obyektlari yordamida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan haq to'lash fermerlar manfaatlariga ham javob beradi.

**Aralash lizing** pulli va kompensatsion to'lovlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Qayd etish joizki, shu bilan birga lizing rivojlanishining hozirgi bosqichida O'zbekistonda yuqorida sanab o'tilgan lizing turlarining barchasi ham keng qo'llanayotgani yo'q. Mamlakatimiz tajribasidan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasida "Lizing to'g'risidagi" Qonunga asosan asosiy e'tibor moliyaviy lizingga qaratilmoqda. Lizing bitimlari hajmiga ko'ra **kichik, standart (o'rtacha)** va **yirik** lizing turlariga taqsimlanadi. Mayda lizing predmeti asosan noishlab chiqarish mulki – kompyuterlar, idora texnikasi, telefon stansiyalari, xavfsizlik tizimi va shu kabilardan iborat bo'ladi. O'rtacha lizing qiymati 200 ming so'mdan 2,5 million so'mgacha bo'lib, narx bo'yicha eng ommaviy mulk turlari – turli xil mini-zavodlar, texnologik asbob-uskunalarga mos keladi. Yirik lizing samolyot, kema, energetik qurilma va shu kabi yirik obyektlarga mo'ljallangan. Bu sohadagi ishlar katta mablag', shuningdek, ayrim buyurtmachilar uchun maxsus moliyaviy sxemalar tayyorlashga qodir bo'lgan lizing sohasi mutaxassislarini tayyorlashni talab qiladi.

### **1.5. Iqtisodiyotda lizing rivojlanishi samaradorligining asosiy yo'nalishlari**

Lizing murakkab iqtisodiy holat sifatida ishlab chiqarishning barcha jihatlariga va jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan u korxonalarining texnik qayta jihozlanishini ta'minlaydi hamda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va yangi ishlab chiqarishlarni yaratishga ko'maklashadi. Ijtimoiy jihatdan esa lizing insonlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Siyosiy jihatdan lizing kichik va o'rtacha sinfni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Lizing faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda samarali deb hisoblash mumkin:<sup>1</sup>

1. **Tashkiliy-iqtisodiy yo'nalish.** U ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish, xo'jalik faoliyatida mustaqillikni kengaytirish, moddiy

---

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Лизинг М.: Дашков и К°, 2003, 57 с.

manfaatdorlik va javobgarlikni oshirish, soliq imtiyozlaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

2. **Ishlab chiqarish-texnika yo‘nalishi.** U fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish, ishlab chiqarishni qayta jihozlashga ko‘maklashish, mehnat mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

3. **Investitsion yo‘nalish** – katta miqdordagi mablag‘larni mulk sotib olishga sarflash zarurati bo‘lmaydi, texnika qisqa muddatga jalb etiladi va undan maksimal darajada foydalaniladi.

4. **Ijtimoiy yo‘nalish.** Bu yo‘nalish ishbilarmonlik faolligining o‘sishi, ijodiy salohiyatdan foydalanishning yaxshilanishi, tadbirkorlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishini oshirish, bozorni yangi tovarlar bilan to‘ldirish va shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajmining o‘sishi natijasida budjet tushumlarining o‘sishiga ko‘maklashadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarning barchasi birgalikda yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmining o‘sishiga xizmat qiluvchi umumiyo xo‘jalik samarasini yaratadi.

### **Qisqa xulosalar**

Lizing – ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va keyinchalik vaqtinchalik foydalanishga ijaraga berish yo‘li bilan bog‘liq bo‘lgan mulkchilik munosabatlari majmuasidir. Lizing mexanizmi uch tomonlama asosga ega bo‘lib, kredit va investitsiya bitimlari, shuningdek, ijara faoliyati xususiyatlari egalik qiladi hamda tadbirkorlikning yangi tashkiliy-huquqiy shaklini yaratadi.

Lizing bozori subyektlari quyidagilar: lizing beruvchilar, lizing oluvchilar, mulkni yetkazib beruvchi yoki sotuvchilar, moliya-kredit muassasalari va boshqalar. Lizing iqtisodiyotning moliyaviy, ishlab chiqarish, sotish, soliq va amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish kabi eng muhim funksiyalarini qamrab oladi.

Lizing turlari bitimlarni tuzish shakli, ularning muddati, tomonlar majburiyatlari hajmi, lizing obyektlari xususiyatlari va ularning amortizatsiya shartlari, lizing to‘lovi turlari, soliq imtiyozlariga munosabati va bozor sektorlariga ko‘ra taqsimlanadi. Lizing xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos shakli sifatida jamiyat va ishlab chiqarishning barcha tomonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Lizingning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?

2. Lizing bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlar qanday amalga oshiriladi?
3. Lizingni mulkka munosabat usuli sifatida tavsiflab bering.
4. Lizing faoliyatining mohiyati va muayyan tashkiliy shakllarini ochib bering.
5. Lizingni mulkchilik munosabatlari majmuasi sifatida talqin qilib bering.
6. Lizingning kredit, ijara va investitsiyalash bilan o‘zaro aloqalari nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. Lizing iqtisodiyotning muhim funksiyalariga ta’sir ko‘rsatishi nimalardan iborat?
8. Lizing munosabatlarining qanday turlarini bilasiz?
9. Lizing rivojlanishining xo‘jalik samarasi nimalarda aks etadi?
10. Lizing samaradorligining asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Лизинг тўғрисида”ги қонуни, 1999 йил 14 апрель.
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси – Т.: Адолат, 1999.
3. Газман В.Д. “Лизинг. Теория и практика - М.:Фонд Правовая культура, 2000.
4. Горемыкин В.А. Основы технологии лизинговых операций - М.: ИНФРА-М, 2000
5. Горемыкин В.А. Лизинг М.: Дашков и К°, 2003.
6. Лещенко М.И. “Основы лизинга” М.: Финансы и статистика, 2001

## **II bob. LIZING MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **2.1. Lizingning qonun hujjatlari bilan ta'minlanishi. Lizing munosabatlarining huquqiy tabiatи**

Lizing faoliyati yuqori samaradorligi shartlaridan biri o'zaro aloqa qiluvchi barcha xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta'minlanishi hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda lizing operatsiyalarini huquqiy jihatdan tartibga solish tahlili bu mamlakatlarni quyidagi ikkita katta guruhgaga ajratishga imkon beradi:

1. Maxsus qonun va qonun hujjatlariga ega bo'limgan mamlakatlar.
2. Lizing faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun yoki qarorlarga ega bo'lgan mamlakatlar.<sup>1</sup>

Maxsus lizing qonunchiligi mavjud bo'lgan davlatlarda, jumladan, Fransiya, Italiya va Belgiyada qonun hujjatlarida lizingga ta'rif berilgan, lizing shartnomasi imzolanganligidan dalolat beruvchi belgi va xislatlar sanab o'tilgan, lizingga qo'yiluvchi talablar, shuningdek, lizing muddati va mulkning xizmat qilish muddati o'rtasidagi nisbatlar ko'rsatib berilgan.

Birinchi guruhdagi mamlakatlarga AQSHdagi holat xos bo'lib, maxsus qonunchilik mavjud bo'lmasada, bu lizingning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, AQSHda soliqqa tortish bo'yicha qonun hujjatlarida tartibga solingan soliq va amortizatsiya imtiyozlari lizingga murojaat qilishga undovchi motiv vazifasini bajaradi. Bu yerda lizing munosabatlariga nisbatan fuqarolik va savdo huquqining umumiyligini qoidalari, shuningdek, soliq qonunchiligi qo'llanadi.

O'zbekistonda lizingga oid huquqiy muhitning shakllanishini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davrda lizing faoliyati lizing bo'yicha maxsus qonun va normativ hujjatlar bo'limgan sharoitlarda ijara kabi amalga oshirilgan. Bunda noaniqliklar lizing jarayoni ishtirokchilarining tavakkalchiliginini oshirgan va, shu tariqa, tadbirkorlik tashabbuslarini to'xtatib turgan.

Ikkinci davr lizing bitimlari bo'yicha maxsus normativ asoslarning shakllantirilishi bilan tavsiflanadi. Xususan:

---

<sup>1</sup> Прилуцкий Л.Н. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российской Федерации. Учебное пособие – М.: Изд “Ось - 89”, 2000, 33 с.

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, ikkinchi qism, 587-599 moddalar “Lizing (moliyaviy ijara)”;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 1997 - yil 5 - martda tasdiqlangan “Respublika banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi” qoidalar;
- O‘zR “Lizing to‘g‘risidagi” Qonuni, Respublika hukumati tomonidan 2002 - yil 13 - dekabrda kiritilgan qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar bilan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 - yil 28 - avgustdagi “Lizing tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi hududida lizing kompaniyalari tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 - yil 2 - noyabrdagi 424-sonli “Qishloqni qishloq xo‘jalik texnikalari bilan lizing shartlarida ta’minalash to‘g‘risidagi” Qarori va ushbu qarorga 1-sonli ““O‘zqishloqxo‘jalikmashinaxolding” XK korxonalarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik texnikalarini lizingga sotib olish tartibi” ilova.

Shuningdek, lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibini to‘ldiruvchi, soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va hisobotlar bo‘yicha umumiylasalalarni tartibga soluvchi bir qator normativ hujjatlar.

Shu tariqa, O‘zbekistonda lizing bitimlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslar mavjuddir. Biroq respublikamiz xo‘jalik hayotida lizingning rivojlanishi huquqiy-normativ hujjatlarga amaldagi tizimni muntazam kuzatib borish, lizingning rivojlanishiga to‘sinqlik qiluvchi holatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish asosida tuzatish kiritib borishni talab qiladi. Bu narsa ayniqsa buxgalteriya hisobi va hisobotlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Lizing munosabatlarining murakkabligi va nisbatan yangiligi ularning huquqiy tabiatini bo‘yicha turli xil fikrlarning mavjud bo‘lishini belgilab beradi. Ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatish zarur:

1. Lizing munosabatlari majmuasini an’anaviy fuqarolik huquqi normalari – ijara shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, zayom, topshiriq shartnomasi kabilar yordamida tartibga solish.
2. Lizing huquqiy munosabatlarining sifat jihatidan yangi turi sifatida tan olish.

Lizingning ba’zi bir elementlari ijara, oldi-sotdi, tovarni kreditlash shartnomalari elementlariga o‘xshashligini lizing o‘zaro kesishuvchan munosabatlar o‘rtasida joylashganligi bilan izohlash mumkin. Aslida lizing munosabatlarida uning tarkibiy qismlaridan biri ijara bo‘lib, ular lizing tizimini

alohida holda to‘laligicha tavsiflay olmaydi. Ijara shartnomasi va lizing o‘rtasidagi farqlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:<sup>1</sup>

1. Munosabat subyektlari: ijarada – ijaraga beruvchi va ijarachi; lizingda – ta’minlovchi, lizing beruvchi, lizing oluvchi.

2. Munosabatlar obyektlari: ijarada – ruxsat berilgan istalgan mulk, jumladan tabiiy obyektlar; lizingda – tadbirkorlik faoliyatida foydalaniluvchi mulk, tabiiy obyektlarni mustasno qilganda.

3. Tomonlarning huquqiy munosabatlari: ijarada – ikki tomonlama mulkiy huquqiy munosabatlар; lizingda – uch tomonlama mulkiy tijorat huquqiy munosabatlар.

4. Mulkni beruvchining mulk sifati uchun javobgarligi: ijarada – mulkning sifati uchun ijaraga beruvchi javob beradi; lizingda – lizing beruvchi sotuvchini o‘zi tanlagan hollardan tashqari boshqa hollarda mulkning sifati uchun javob bermaydi.

5. Mulk qiymati to‘langandan so‘ng unga egalik qilish huquqi: ijarada – agar ko‘zda tutilgan bo‘lsa oldi-sotdi shaklida; lizingda – opson ko‘zda tutiladi.

6. Mulkni sug‘urtalash: ijarada – ijaraga beruvchi mulkni sug‘urtalaydi; lizingda – mulkni lizing oluvchi sug‘urtalaydi.

Lizing shartnomasida sotib olish opsonining mavjud bo‘lishi uni o‘ziga xos bo‘lib-bo‘lib sotish bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasi sifatida tasniflashga imkon beradi. Qoidaga ko‘ra, bunday oldi-sotdi shartnomasida egalik huquqi sotuvchidan xaridorga bitim imzolangan paytda o‘tadi. Lizing shartnomasida mulkka egalik huquqi ushbu mulkni vaqtinchalik foydalanishga bergan lizing beruvchida saqlanib qoladi. Lizing shartnomasiga foydalanuvchining mulkni sotib olish majburiyati kiritilmaydi, ya’ni mulkni sotib olish masalasini hal qilish to‘laligicha foydalanuvchining ixtiyoriga berilgan.

Ma’lum bir ma’noda lizing kreditlashni ham ifodalaydi. Biroq huquqiy jihatdan ular o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud:

1. Obyektga egalik qilishda: kreditlashda qarz oluvchiga beriladi; lizingda egalik huquqi lizing beruvchida saqlanib qoladi.

2. Asosiy fondlarni sotib olish uchun olingan kreditlar qarz oluvchining oladigan foydasi hisobiga to‘lanadi, lizingda esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxiga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hisobiga to‘lanadi.

Shu tariqa, lizingning huquqiy tabiatini ma’lum bo‘lgan vositalar yordamida aniqlash istagi shunga olib keladiki, ishtirokchilar munosabatlarining

<sup>1</sup> Лещенко М.И. “Основы лизинга” М.: Финансы и статистика, 2001, 112 с.

qaysidir qismi ushbu vositalardan tashqarida qoladi hamda lizing ishtirokchilari o‘rtasida kelishmovchiliklar paydo bo‘lganda hal qilinmasligi mumkin. Demak, lizing alohida tartibga solishni talab qiluvchi mustaqil shartnomma turidir.

## **2.2. Lizing shartnomasi - lizing bitimlarining huquqiy shakli sifatida**

Lizing munosabatlarining asosi shartnomma bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq shaxslarning huquq va majburiyatlarni o‘rnatish, o‘zgartirish yoki to‘xtatish to‘g‘risidagi kelishuvi tushuniladi.<sup>1</sup> U lizing bitimi subyektlari faoliyatining eng muhim shartlarini, ularning mamlakatda amal qiluvchi qonunlarga va o‘z zimmasiga olgan majburiyatlariga rioya qilishini belgilab beradi. Lizing turidan kelib chiqqan holda lizing shartnomasi tuzilmasi turlicha bo‘lishi mumkin, biroq deyarli har bir lizing shartnomasi o‘z ichiga quyidagi punktlarni kiritishi zarur:

1. Kirish – subyektlarning nomlanishi, tomonlar huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar, shartnomma imzolangan vaqt va joy.
2. Shartnomma predmeti (mulk nomi va uning tavsifnomasi). Tomonlarning huquq va majburiyatları.
3. Obyektni yetkazib berish va hisob-kitob shartlari. Lizing shartnomasida mulkni yetkazib berish shartlari va mulkni transportda tashish, montaj qilish va ekspluatatsiyaga topirish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash tartibi kelishib olinadi. Xarajatlar odatda lizing oluvchi hisobiga to‘lanadi. Lizing obyektini foydalanuvchiga berish, lizing oluvchi, ta’minlovchi va lizing beruvchi tomonidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan muddatdan hisoblanadi, bunda lizing obyekti yetkazib berilgandan so‘ng 30 kun mobaynida rasmiylashtirish talab qilinadi. Dalolatnomada mulkning sifati va butunligi, buyurtmanoma shartlariga mos kelishi va e’tirozlar ko‘rsatiladi. Mulkni qabul qilishda kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda bu narsa dalolatnomada qayd etiladi va ularni bartaraf qilish muddati ko‘rsatiladi. Ta’minotchi tomonidan talablarning bajarilmasligi lizing oluvchining oldi-sotdi shartnomasini bekor qilishiga asos beradi. Agar mulkdan foydalanuvchi lizing beruvchiga mulk etib kelgandan so‘ng 2 hafta ichida dalolatnomani taqdim etmasa va uni bartaraf etilmagan kamchilik va nuqsonlar haqida xabardor qilmasa, bu holda bitim obyekti qabul qilingan hisoblanadi.
4. Tavakkalchiliklar, kafolatlar va tomonlarning majburiyatları. Lizing shartnomasida bitim obyektni ekspluatatsiya qilish mobaynida yuzaga kelishi

<sup>1</sup> Прилуцкий Л.Н. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российской Федерации. Учебное пособие – М.: Издательство “Ось - 89” 2000, 85 с.

mumkin bo‘lgan tavakkalchiliklar xarakteri va etkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplashda tomonlarning harakatlari ko‘rsatiladi. Qoidaga ko‘ra, lizing obyektini ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq barcha tavakkalchiliklarni yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi mumkin yoki mumkin emasligidan qat’iy nazar, lizing oluvchi o‘z zimmasiga oladi. Lizing obyektining maqsadlarga mos kelmaslik yoki sotuvchining nochorligi tavakkalchiliklari lizing beruvchining lizing obyekti yoki sotuvchini tanlagan hollardan tashqari barcha hollarda lizing oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

5. Egalik qilish va foydalanish huquqi. Lizing shartnomasiga asosan lizing oluvchi lizing davri mobaynida bitim obyektidan foydalanish huquqini oladi, lizing beruvchi esa mulkning yagona egasi bo‘lib qolaveradi. Uning o‘zi butun operatsiyani moliyalashtirishni amalgalashiradi.

6. Sug‘urtalash.

7. Fors-major sharoitlar.

8. Umumiy qoidalar va shartnomma muddati.

Lizing subyektlarining o‘zlari shartnomma shartlarini ularning qonun doirasida bo‘lishini ta’minlagan holda ishlab chiqadilar. Mulkni ta’riflash lizing shartnomasiga ajralmas tarkibiy qism sifatida biriktiriladi, shuningdek, ta’motchining nomi, yetkazib berish vaqtini, joyini va bitim obyektidan foydalanish xarakteri ko‘rsatiladi.

### **2.3. Lizing shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatları**

Lizing shartnomasi mazmunining asosiy punktlari tomonlarning huquq va majburiyatları hisoblanadi. “Lizing to‘g‘risidagi” qonunga asosan lizing shartnomasida ishtirok etuvchilar uchun quyidagi huquq va majburiyatlar ko‘zda tutiladi.

**Lizing beruvchining huquq va majburiyatları.** U quyidagi huquqlarga ega: lizing obyektiga egalik; lizing obyektini ekspluatatsiya qilish va undan foydalanish shart-sharoitlarini nazorat qilish; oldi-sotdi shartnomasi bekor qilinganda; foydalanuvchining to‘lovlar bo‘yicha qarzlarini bir oydan oshganda; foydalanuvchi bankrotga uchraganda yoki tugatilganda; sotuvchi lizing obyektini yetkazib bermaganda lizing obyektini olib qo‘yish. Quyidagi **majburiyatlarga** ega: mulkni sotib olish va uni lizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchiga foydalanishga berish; sotuvchini mulkni lizingga berishdan xabardor qilish; lizing oluvchiga obyektni sotuvchiga talablar qo‘yish huquqini berish; shartnomada ko‘rsatilgan hollarda lizing oluvchi oldidagi lizing

obyektiga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish.

**Lizing oluvchining huquq va majburiyatları.** U quyidagi **huquqlarga** ega: zarur mulk va uni yetkazib beruvchini tanlash; belgilangan muddat davomida mulkdan foydalanish; sotuvchiga e’tiroz bildirish; lizing beruvchining roziligi bilan lizing obyektini sublizingga berish; lizing shartnomasi bajarilmagan hollarda lizing beruvchidan yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish; lizing obyekti o‘z vaqtida yetkazib berilmagan yoki belgilangan sifatda bo‘lmagan hollarda shartnomani bekor qilish; ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga egalik qilish; lizing obyektiga kafolat xizmati ko‘rsatilishidan foydalanish; shartnoma muddati tugagach lizing obyektini sotib olish, kelishuvni yangilash yoki obyektni o‘z egasiga qaytarib berish; opsonda bitimni berkitish qiymatini to‘lash va obyektni mulk sifatida sotib olish.

Quyidagi **majburiyatlarga** ega: lizing obyektini qabul qilish va undan to‘g‘ri foydalanish; lizing obyektini texnik shart-sharoitlarga mos ravishda saqlash va xizmat ko‘rsatish; lizing obyektini ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarning barchasini o‘z zimmasiga olish; lizing beruvchiga o‘zining iqtisodiy ahvoli to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etish; mulkni o‘z hisobidan sug‘urtalash; lizing to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lash; lizing obyekti shikastlangan hollarda uni o‘z hisobidan ta’mirlash, uni xuddi shunday obyektga almashtirish yoki lizing bo‘yicha qarzni to‘laligicha va jarimani to‘lash; lizing shartnomasi bekor qilinganda lizing obyektini lizing beruvchiga eskirishni hisobga olib dastlabki holda qaytarib berish.

**Sotuvchining huquq va majburiyatları.** Quyidagi **huquqlarga** ega: oldi-sotdi shartnomasiga ko‘ra zarur mulkni yetkazib berish; lizing beruvchi bilan obyektning barcha texnik-iqtisodiy jihatlarini kelishib olish; shartnomaning umumiyligi summasini ko‘rsatish.

Quyidagi **majburiyatlarga** ega: lizing obyektini ta’riflash; mulkni yetkazib berish, uni montaj qilish va ekspluatatsiyaga topshirish; kamchilik va nuqsonlar aniqlangan holda 10 kunlik muddat ichida ularni bartaraf qilish yoki mulkni boshqasiga almashtirib berish.

#### **2.4. Lizing shartnomasini imzolash jarayoni**

Lizing shartnomasini tuzish jarayoni ikkita asosiy bosqichdan iborat.

1. Lizing oluvchi lizing kompaniyasiga shartnoma tuzish niyati bildirilgan taklifni yuboradi.

2. Lizing beruvchi taklifni ko‘rib chiqadi va ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilishi lozim bo‘ladi.

Lizing kompaniyalarining ko‘pchiligi potensial mijozlar bilan muzokaralarni ularga lizing obyekti talab qilinayotgan loyihaning biznes-rejasini taqdim etishni so‘rashdan boshlaydilar. Aynan shu biznes-rejani baholash bosqichida lizing kompaniyalari ularga taklif etilayotgan loyihalarni saralab oladilar. Loyihalarning aksari qismi rad etilishiga ko‘pincha to‘g‘ri tayyorlangan biznes-rejalarning yo‘qligi sabab bo‘ladi. Ba’zida, lizing kompaniyasi menejerlari foydali loyihani ko‘rganda ular potensial lizing oluvchiga ushbu loyihaning biznes-rejasini ishlab chiqishga ko‘maklashishlari mumkin. Biznes-reja tasdiqlangandan so‘ng lizing shartnomasi tuzilishi lozim bo‘ladi. Lizing kompaniyasi har bir muayyan lizing shartnomasi bo‘yicha quyidagi tartibda harakat qiladi:

- mijozning hujjatlarini va to‘lov layoqatini sinchiklab tekshirgach, mas’ul shaxs shartnoma loyihasini rahbariyat bilan kelishish uchun taqdim etadi;
- rahbariyat loyihani ma’qullagach, mas’ul shaxs shartnoma shartlari bo‘yicha ikkinchi tomon bilan kelishuvga kelishishga kirishadi;
- fikrlar qarama-qarshiligi yuzaga kelganda barcha e’tiroz va qo‘sishchalar bayonnomada qayd etiladi;
- ikkala tomon kelishuvga kelgach, lizing shartnomasi imzolanadi, aks holda bayonnomada arbitraj sudiga berilishi mumkin.

Quyidagi shartlar bajarilganda lizing shartnomasi tuzilgan hisoblanadi:

1. Tomonlarning barcha asosiy shartlar bo‘yicha kelishuvga kelishi.
2. Kelishuv shakli bo‘yicha lizing shartnomasiga qo‘yiluvchi talablarga javob berishi.
3. Lizing obyekti lizing oluvchiga berilishi.
4. Shartnoma davlat organlarida qayd eitlishi.

## **2.5. Shartnomaning bajarilishi va tomonlarning javobgarligi**

Lizing bitimlarini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarning bajarilishi hisoblanadi. Lizing shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning quyidagi asosiy tamoyillari shakllantirilgan:<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Джуха В.М. Лизинг: Учебное пособие – Ростов н/Д.: Феникс, 1997, 45 с.

1. Qonun va shartnomaga mos ravishda aniq bajarish, lizing predmeti shartlariga rioya qilish, bajarish shartlari, vaqt, o‘rni va usullarini sifatini ta’minlash.

2. Bajarishning tejamkorligi, ya’ni bajarish usulini tanlashda eng kam xarajatlarga yo‘l qo‘yish.

3. Hamkorlik – hamkorlarning huquq va manfaatlariga zarar etkazmaslik, ishbilarmonlik etikasiga rioya qilish, majburiyatlarni bajarishda bir-biriga ko‘maklashish.

4. Bajarishni belgilangan muddatda amalga oshirish.

5. Majburiyatlarning umuman yoki kerakli tarzda bajarilmasligi uchun javobgarlik. Shartnoma bandlarini bajarishni kafolatlashni ta’minlash maqsadida tomonlardan har biri uchun jarima choralari qo‘llanishi ko‘zda tutiladi.

Shartnoma shartlarini buzuvchilar uchun qonunchilikda quyidagi qoidalar ko‘zda tutilgan:

- majburiyatlarni umuman yoki kerakli tarzda bajarmaslik tufayli yetkazilgan zararni aybdor tomon qoplaydi;
- ish va xizmatlar bajarilmaganda kreditor ularni bajarishni uchinchi shaxslarga topshirishi va xarajatlarni qarzdor hisobidan undirishi mumkin;
- lizing oluvchi bitim muddati tugagach lizing obyektini sotib olmasdan o‘z vaqtida qaytarmasa, lizing beruvchi mulkni qaytarib olish yoki zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Lizing shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar iqtisodiy jihatdan zararlarni qoplash va jarimani to‘lash shaklida aks ettirilib, ularni zararlarsiz to‘latish ham mumkin. Jarima bu shartnoma shartlarini buzuvchi tomonidan to‘lanuvchi pul miqdori. U erkin konvertasiya qilinuvchi valyutada majburiyatlarning yoki qarzning foizida jarima ko‘rinishida va penya ko‘rinishida to‘lanishi mumkin.


Lizing shartnomasi bo‘yicha tomonlarning majburiyatları quyidagi hollarda to‘xtatilishi mumkin: to‘lov miqdori to‘laligicha to‘lansa, bitimni berkitish summasi bir vaqtning o‘zida to‘lansa, shartnoma bir tomonlama bekor qilinsa. Shartnomani bekor qilishga asos sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- shartnoma muddatining tugashi yoki sud qarori;
- tomonlarning kelishuvni muddatidan oldin to‘xtatish qarori yoki tomonlardan birining tugatilishi;
- lizing beruvchining tashabbusi bilan quyidagi hollarda: oldi-sotdi shartnomasi kuchga kirmasa yoki bekor qilinsa; sotuvchi mulkni lizing

oluvchiga yetkazib bermasa; lizing oluvchi 30 kundan ortiq qarzni to‘lamasa; mulkdan texnik sharoitlar buzilgan holda foydalanilsa;

- lizing oluvchining tashabbusi bilan quyidagi hollarda: lizing obyektini qabul qilishda tuzatib bo‘lmaydigan kamchilik va nuqsonlar aniqlansa; lizing obyekti o‘z vaqtida yetkazib berilmasa.

Shu tariqa, lizing shartnomasining tashabbus taklifidan tortib to shartnomaning bekor qilinishigacha bir nechta bosqichlarini ko‘rsatish mumkin (6-chizma).



#### **6-chizma. Lizing shartnomasini bosqichlari**

Tuzilayotgan shartnomalarning haqiqiyligi va foydaliligi ko‘p jihatdan shartnoma ishlarining aniq tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

#### **Qisqa xulosalar**

Lizing mexanizmi samaradorligi yuqori bo‘lishining asosiy shartlaridan biri hozirgi kunda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zaro aloqa qiluvchi xo‘jalik subyektlarining huquqiy jihatdan ishonchli ta’milanishi hisoblanadi.

Lizing munosabatlarning asosi shartnoma bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq shaxslarning huquq va majburiyatlarini o‘rnatish, o‘zgartirish yoki to‘xtatish to‘g‘risidagi kelishivi tushuniladi. U lizing bitimi subyektlari faoliyatining eng muhim shartlarini, ularning mamlakatda amal qiluvchi qonunlarga va o‘z zimmasiga olgan majburiyatlariga rioxal qilishini belgilab beradi. Lizing bitimida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlar O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risidagi” Qonunida belgilangan.

Lizing bitimlarini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi hisoblanadi.

Lizing shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar iqtisodiy zararlarni qoplash va jarimani to‘lash shaklida aks ettirilib, ularni zararlarsiz to‘latish ham mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasida lizing faoliyatini tartibga soluvchi qanday qonun hujjatlari mavjud?
2. Kredit va lizing mexanizmini bir-biridan farqlovchi xususiyatlarini aytib bering.
3. Ijara va lizing munosabatlarining asosiy o‘xhashlik va farqlarini sanab bering.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risidagi” Qonuni, jumladan, 2002 - yil 13 - dekabrda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarning asosiy qoidalarini aytib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi “Lizing tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmoniga asosan lizing bitimi ishtirokchilariga qanday soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan?
6. Lizing shartnomasining asosiy jihatlarini sanab bering.
7. Lizing bitimi ishtirokchilarining lizing shartnomasiga asosan huquq va majburiyatlarini yoritib bering.
8. Lizing shartnomasini tuzish jarayonining asosiy bosqichlari haqida gapirib bering.
9. Lizing shartnomasi shartlarini buzuvchilarga nisbatan qonunchilikda ko‘zda tutilgan qoidalarni tavsiflab bering.
10. Lizing shartnomasini bekor qilishga nimalar asos bo‘lishi mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси “Лизинг тўғрисида”ги Қонун 1999 й.
2. Джуха В.М. Лизинг. Учебное пособие – Ростов н/Д.: Феникс, 1997.
3. Прилуцкий Л.Н. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российской Федерации. Учебное пособие – М.: Издательство “Ось - 89” 2000.
4. Горемыкин В.А. Лизинг - М.: Дашков и К°, 2003.
5. Лещенко М.И. Основы лизинга - М.: Финансы и статистика, 2001.

### **III bob. LIZINGNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. Lizing jarayonini tashkil etishning umumiyligi sxemasi va bosqichlari**

Asosiy vositalarni sotib olar va lizing beruvchi vazifasini bajarar ekan, lizing kompaniyasi yoki bank bevosita lizing rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi va lizing obyektlari bozoridagi vaziyatni nazorat qiladi. Lizingning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda ular asosiy e’tiborni yuqori sifatli xalq iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishga mo‘ljallangan asbob-uskunalarga qaratishlari lozim.

Lizing jarayonini tashkil etish aynan shu vazifani bajarishga qaratilgan. Butun lizing jarayonini, g‘oyani izlab topishdan to‘loyihami amalga oshirishgacha, uch bosqichdan – shartnomadan (investitsiyadan) avvalgi, tashkiliy (investitsion) va ekspluatatsiya bosqichlaridan iborat bo‘lgan sikl sifatida ifodalash mumkin.<sup>1</sup> Bu bosqichlarning har birida muayyan ish turlari amalga oshiriladi.

**Birinchi bosqichda** bir qator huquqiy shartnomalarni imzolash uchun barcha tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Lizing munosabatlari ko‘p tomonlama va murakkab xarakterga ega bo‘lganligi tufayli har bitimning barcha shartlari va xususiyatlarini batafsil o‘rganishni talab qiladi hamda ushbu bosqichning muhim ahamiyat kasb etishini asoslab beradi. Shartnoma tuzishdan avvalgi bosqichda lizing loyihasining barcha shart-sharoitlari batafsil o‘rganib chiqiladi:

1. Dastlabki muzokarlarni olib borish, jumladan, lizing loyihasi bilan tanishish, hujjatlarni tayyorlash, lizing oluvchini lizing beruvchining shartlari va lizingning boshqa ko‘rsatkichlari bilan tanishtirish.

2. Doimiy lizing oluvchi va uning taklif etayotgan loyihasini o‘rganib chiqish. Odadta quyidagilarga katta e’tibor qaratiladi:

- taqdim etilgan hujjatlarning huquqiy jihatdan to‘g‘ri tuzilganligi, lizing loyihasi samaradorligi tahlili;
- sotuvni amalga oshirish va naqd pul oqimini shakllantirish uchun foydalanimuvchi resurslarning operasion samaradorligini aniqlash;
- lizing oluvchining moliyaviy holati va kredit layoqati tahlili;
- lizing to‘lovlarining qaytarilishini ta’minlash uchun taklif qilinuvchi garovga qo‘yilayotgan mulk yoki boshqa majburiyatlarni baholash.

3. Lizing loyihasining kompleks ekspertizasi.

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Лизинг – М.: Дашков и К° 2003, 339 с.

Lizing oluvchi taqdim etgan barcha hujjatlar, uning moliyaviy ahvoli va kredit layoqati, lizing to‘lovlarining ta’minlanganligi tahlil qilingach, natijalar kompaniya rahbariyatiga ko‘rib chiqish va lizing loyihasini moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun taqdim etiladi. Mazkur bosqichda lizing beruvchiga mijozdan beriluvchi ariza, uning to‘lov layoqati to‘g‘risida xulosa, lizing beruvchi tomonidan ta’minlovchiga beriluvchi buyurtmanoma hamda lizing beruvchi bilan bank o‘rtasida lizing bitimini amalga oshirish uchun ssuda olish to‘g‘risidagi shartnomaga kabi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

**Ikkinchi bosqich** bu bitimni huquqiy rasmiylashtirishdir. Bu bosqichda quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

- lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi;
- lizing obyektini ekspluatatsiyaga qabul qilish dalolatnomasi;
- lizing shartnomasi;
- lizing obyektiga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomasi;
- lizing obyektini sug‘ortalash shartnomasi.

**Uchinchi bosqich** lizing to‘lovlarini amalga oshirish, monitoring, buxgalteriya hisobi va hisoboti, lizing obyektining lizing beruvchiga qaytarib berilishi yoki lizing oluvchiga berilishidan iborat bo‘ladi.

### **3.2. Lizing bitimlarini tayyorlash va asoslab berish**

Lizing kompaniyalari yoki banklar lizing operatsiyalarini amalga oshirishlaridan avval juda katta tashkiliy ishlarni bajarishlari zarur. Kompaniya yoki bank muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun potensial mijozlarga lizing operatsiyalarini keng reklama qilish imkoniyatlariga va bir qator ustunliklarga ega bo‘lishi lozim. Lizing bozori va uning asosiy tendensiylarini o‘rganish, ma’lum turdagи asbob-uskunalarga talabni aniqlash muhim rolъ o‘ynaydi. Bunda asbob-uskunalarning bozor narxi tebranishi, lizing obyektiga qo‘srimcha ko‘rsatiluvchi (ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish) xizmatlar narxi va tariflari, transport tariflarining o‘zgarishi kabi bir qator omillar e’tiborga olinadi.

Tayyorgarlik ishlarining umumiyligi maqsadi lizing beruvchining lizing olishdan manfaatdor mijozlarni izlab topishidir. SHu bilan bir paytda, lizing bitimini tuzish tashabbusi o‘zi mustaqil ravishda zarur asbob-uskunalarga ega bo‘lgan ta’minlovchini topuvchi yoki lizing kompaniyasiga ta’minlovchini topishda yordam berishni so‘rab murojaat qiluvchi bo‘lajak lizing oluvchi tomonidan ham bildirilishi mumkin. Biroq bu holatda lizing kompaniyasi taklif

etaryotgan variantlar ichidan lizing obyektini va muayyan ta'minlovchini tanlash huquqiga lizing oluvchi ega bo'ladi.

Lizing kompaniyalari amliyotidan kelib chiqqan holda, lizing jarayonini to'liq kuzatish mumkin.<sup>1</sup> Hamkorlar o'rtasidagi munosabatlar bo'lajak lizing oluvchining lizing beruvchiga ariza berishidan boshlanadi. Bu arizada lizing oluvchining tashkiliy-huquqiy shakli, lizing obyektining qiymati, asbob-uskunalarini yetkazib beruvchilar to'g'risidagi hamda potensial qarz oluvchida lizing operatsiyasini amalga oshirish uchun zarur resurslarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatib o'tiladi. Ariza topshirilgandan so'ng lizing oluvchi zarur hujjatlar to'plamini (nizomning nusxasi, biznes-reja, so'nggi ikki yil uchun buxgalteriya balansi, loyihani texnik va iqtisodiy jihatdan asoslash, lizing oluvchining iqtisodiy holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning rivojlanish istiqbollari va hokazolar) taqdim etadi. Potensial lizing oluvchining moliyaviy holati tahlili natijalariga ko'ra, lizing loyihasi iqtisodiy ekspertizadan o'tkazilgach, shuningdek, lizing oluvchining hujjatlarini huquqiy jihatdan tekshirish bo'yicha ma'lumotlarga asosan lizing kompaniyasi rahbariyati tomonidan lizing loyihasini moliyalashtirish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ijobiy natijalarga ega bo'lgandan so'ng lizing beruvchi bu haqda lizing oluvchini xabardor qiladi hamda unga tanishib chiqish uchun lizing shartnomasi loyihasini yuboradi. Loyihaning barcha qoidalari bo'yicha kelishib olingach, lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida lizing shartnomasi tuziladi. Bu shartnoma kelgusida ushbu xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib boradi. Shartnomada lizing obyektidan foydalanish va uni saqlash shartlari, lizing to'lovlari muddati, shuningdek, lizing obyektidan foydalanish bilan bog'liq tavakkalchiliklarning lizing oluvchi zimmasiga o'tishi ko'rsatiladi. Shu bilan bir paytda lizing beruvchi bilan mulkni yetkazib beruvchi o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi imzolanadi. Mulkni yetkazib beruvchini lizing oluvchi tanlaydi. Keljakda mulkning sifati, uning butligi va yetkazib berish muddati bo'yicha barcha e'tirozlar lizing oluvchi tomonidan bevosita mulkni yetkazib beruvchiga bildiriladi. Ko'rsatilgan mulk uchun pul to'langach lizing obyekti ta'minlovchi tomonidan bevosita lizing oluvchiga beriladi. Lizing obyektini qabul qilish-topshirishda uch tomon – lizing beruvchi, lizing oluvchi va lizing obyektini yetkazib beruvchi ta'minlovchi ishtirok etadi. Lizing muddati lizing oluvchi lizing obyektini amalda qabul qilgan paytdan boshlab hisoblanadi. Lizing beruvchi tomonidan lizing loyihasi monitoringi bo'yicha chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> Мезенцев Е., Маъмурев А. Лизинговые операции и этапы их проведения // Рынки, деньги и кредит, 2000 №1 17-186.

ko‘rilib, ular lizing obyektidan to‘g‘ri foydalanish va lizing to‘lovlarining o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishni ko‘zda tutadi. Monitoring davomida shuningdek, lizing oluvchining moliyaviy ahvoli ham doimiy ravishda o‘rganib boriladi. Lizing operatsiyalarida tavakkalchilik yuqoriligi sababli mijozlar bilan ishslash har bir lizing jarayonining asosini tashkil etadi. Lizing kompaniyasi mazkur ishga – mulk olish uchun arizadan tortib to to‘lovlarining o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash, lizing shartnomasi muddati tugaguncha lizing obyektini to‘g‘ri ekspluatatsiya qilishni nazorat qilishga katta e’tibor qaratishi lozim. Umuman, lizing jarayoniga aniqlik va tezkorlik zarur bo‘ladi.

### **3.3. Lizing loyihalarining kompleks ekspertizasi**

Lizing kompaniyasi loyihalar ekspertizasini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiradi:<sup>1</sup>

**1. Loyihani identifikatsiyalash va hujjatlarni tasdiqlash** – tasdiqlovchi hujjatlarning barchasi: kompaniyaning ro‘yxatga olinishi, muassasa to‘g‘risidagi hujjatlar, mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish uchun litsenziyalar, kompaniya balansi va 2 yillik moliyaviy hisobotlar huquqiy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkaziladi.

**2. Loyiha bo‘yicha chiqariladigan mahsulot** – sifat nazorati tizimi va loyiha bo‘yicha ishlab chiqarishdagi asosiy mahsulotning xususiyatlari.

**3. Loyihada foydaliluvchi texnologiya tavsifnomasi** – ishlab chiqarishni tashkil etish turi va tarmoqdagi ahvol bilan bog‘liq ravishda mo‘ljallanayotgan mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha texnologiyalar bilan bozorda yuzaga kelgan vaziyat tahlil qilinadi.

**4. Eksport bozorini jalb qilish.** Talab va taklif bashoratini hisobga olgan holda mahsulot bozori baholanadi.

**5. Marketing strategiyasi.** Mahsulotni bozorga olib chiqish bo‘yicha xatti-harakatlar.

**6. Loyihani boshqarish** – boshqaruva bo‘g‘ini va boshqaruvchilarni o‘qitish dasturining mos kelishini aniqlash.

**7. Loyiha homiyları** – homiylarning moliyaviy ahvoli hamda ularning loyiha bo‘yicha qo‘yilmalari va kafolatlarining mos kelishi tahlili.

**8. Taqsimlash tizimini tashkil etish** – mahsulotni sotuvchilar bilan kelishuvlar, kelajakdagi ishlab chiqarish hajmining butun taqsimlash tizimida

---

<sup>1</sup> Рекомендации по проведению лизинговых операций, УЛК “Барака”, - Т.: 1999, 12 с.

tovar aylanmasiga ta'siri, mazkur taqsimlash tarmog‘ining loyihadagi mahsulot bo‘yicha ixtisoslashish darajasi, mazkur taqsimlash tarmog‘ining ulushi.

**9. Loyihani joylashtirish** – hudud, ixtisoslashuv, tashkiliy masalalar, ishlab chiqarish joyida transport infratuzilmalari, kommunikasiya va maslahat xizmatlarining mavjudligi.

**10. Loyihaning ekologik xavfsizligi** – atrof-muhitni muhofaza qiluvchi davlat organlarining ruxsati va ekologiya nazoratining mavjudligi.

**11. Loyihaning huquqiy va moliyaviy qoidalari** – soliq va bojxona imtiyozlari tizimini aniqlash, loyihani rag‘batlantirish turlari (yangi investitsiyalar, kafolatlar, energiyaga subsidiyalangan narxlar va hokazo).

**12. Loyihaning moliyaviy ko‘rsatkichlari va qarz kafolatlari** – kutilayotgan investitsiya xarajatlarini aniqlash, moliyalashtirish manbalari va ularni jalb qilish imkoniyatlari, investitsiyalarning rentabelligi, sof diskontlangan daromad, o‘zini qoplash muddati, ichki daromadlilik normasi.

Loyiha dastlab kutilgan natijalarni oqlamagan hollarda loyiha strategiyasini qayta ko‘rib chiqish, yangi hamkorni izlab topish, loyihani sotib yuborish, faoliyatni o‘zgartirish, loyiha aktivlarini alohida-alohida sotib yuborish zarur. Loyiha ekspertizasining har bir bosqichida zarurat tug‘ilganda maslahatchilar jalb etilishi mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida lizing kompaniyasi loyiha bo‘yicha ijobjiy yoki salbiy xulosa bildiradi va uni oxiriga yetkazish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

### **3.4. Tadbirkorlik loyihasi va lizing oluvchini moliyaviy baholash**

Loyihani amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tahlili odatda moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash, bashorat qilinayotgan daromadlilik va likvidlilikni baholash, tavakkalchiliklar tahlilini o‘z ichiga oladi. Investitsiya loyihalarini baholash uchun turli xil usullar qo’llanadi. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz:<sup>1</sup>

- o‘zini qoplash usuli;
- o‘rtacha qaytish darajasi usuli;
- mablag‘larni diskontlash usuli;
- keltirilgan xarajatlar usuli.

**O‘zini qoplash usuli** eng oddiy usul bo‘lib, dastlabki ma’lumotlar sifatida In boshlang‘ich investitsiyalarni qoplash zarur bo‘lgan yillar, yillik daromad va RS xarajatlar o‘rtasidagi farqni aniqlash yo‘li bilan hisoblanuvchi

---

<sup>1</sup> Лещенко М.И. Основы лизинга – М.: Финансы и статистика, 2001, 2356.

VK har yillik badal hajmi olinadi. O‘zini qoplash davri quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{Tok} + \text{In} / \text{Dp} - \text{Rs} \quad (1)$$

Mazkur usulning afzalligi hisob-kitoblarning oddiyligi, boshlang‘ich kapital qo‘yilmalarining aniqligi, loyihalarni o‘zini qoplash muddatiga qarab taqsimlash imkoniyatining mavjudligidir. Bir xil hajmdagi investitsiyalarga o‘zini qoplash muddatidan qat’iy nazar bir xil baho belgilanishi (ya’ni bir yildan so‘ng olingan 5 ming so‘m besh yildan so‘ng olingan 5 ming so‘m bilan bir baholanadi) bu usulning kamchiligi hisoblanadi.

**O‘rtacha qaytish darajasi usuli** kiritilgan kapital va amortizatsiyani hisobga oladi. Mazkur usulning afzalligi hisob-kitoblarning oddiyligi, amortizatsiya hisobi va muqobil loyihalarni taqqoslash imkoniyatidan iborat. Usulning kamchiligi turli davrlarda investitsiya va daromadlar darajasidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratilmaslidadir, chunki u o‘rtacha bajarish darajasiga asoslangan. Shuningdek, bu usul keyinroq olingan pul daromadlari ilgari olingan daromadlar qiymatiga ega emasligiga ham e’tibor qaratmaydi, ya’ni birinchi yili olingan 5 ming so‘m besh yildan keyin ham xuddi o‘sha qiymatga ega hisoblanadi. Foydalilik quyidagicha aniqlanadi:

$$P+Vg/A \quad (2)$$

Kiritilgan kapitalning o‘zini qoplash muddati Tok o‘rtacha qaytish kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Vot + K/Tok \quad (3)$$

**Mablag‘larni diskontlash usuli (DSG usuli).** Mazkur usulning bir necha xil variantlari mavjud. Ularning barchasi keljakda olinadigan (yoki sarflanadigan) pullar hozirgi paytga qaraganda kamroq qiymatga ega bo‘ladi deb hisoblashga asoslanadi. Kelgusidagi pul tushumlarining diskontlangan qiymatini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$R + S \times 1 / (1+r)^n \quad (4)$$

Bu yerda R – diskontlangan qiymat; S – n-yil oxirida olingan kattalik; r - % stavkasi; n – xarajat va natijalari hisob-kitob yilida keltirilayotgan yil.; maxraj  $1/(1+r)^n$  – diskontlangan qiymat omili (diskontlash koeffitsiyenti).

Masalan, lizing kompaniyasi 500 ming so‘mli loyihaga boshlang‘ich investitsiyalarni kiritadi. Uch yil mobaynida yillik pul oqimi 200 ming so‘mni, foiz stavkasi (r) esa 25 %ni tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki, loyihani amalga oshirish yillari bo‘yicha sof joriy qiymat va diskontlash koeffitsiyenti mos ravishda quyidagilarga teng bo‘ladi (2-jadval).

2-jadval

### Yillik sof joriy qiymatini hisoblash<sup>1</sup>

Yil	Diskontlash koeffitsiyenti	Yillik sof joriy qiymat
1 yil	$1/(1+0.25) = 0.800$	$R=200 \times 0.800 = 160.00$
2 yil	$1/(1+0.25) = 0.640$	$R=200 \times 0.640 = 128.00$
3 yil	$1/(1+0.25) = 0.512$	$R=200 \times 0.512 = 102.40$
Jami		390.40

Mazkur loyihani investitsiyalashning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun boshlang‘ich investitsiyalar va sof joriy qiymat o‘rtasidagi farqni aniqlash kerak bo‘lib, u quyidagiga teng:  $390.40 - 500 = 109.9$

Bundan kelib chiqadiki, ko‘rib chiqilayotgan loyiha rentabelli emas, chunki bunda olinadigan daromadlar boshlang‘ich investitsiyalardan kam. Investitsion loyihalarini baholashda inflyatsiyani hisobga olish zarur. Buning uchun hisob-kitoblarni biroz modifikasiyalash, ya’ni diskontlangan qiymat formulasiga inflyatsiya darajasini kiritish lozim. Shunda kelajakda kelib tushadigan pullarning diskontlangan qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R = Sx \frac{1}{(1+r+h)^n}, \text{ bu yerda } h - \text{inflyatsiya darajasi.}$$

**Keltirilgan xarajatlar usulidan** foydalangan holda ham eng samarali loyihani aniqlash mumkin. “Keltirilgan xarajatlar” deganda jahon tajribasida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti yoki foiz stavkasi darjasasi yordamida yagona yillik hajmga keltirilgan bir qismigina tushuniladi. Bu shu bilan bog‘liqki, investitsiyalar katta hajm, mablag‘ kiritish uchun cheklangan vaqt, o‘zini qoplash muddatining uzunligi bilan tavislanishiga bog‘liq, ishlab chiqarish xarajatlari esa odatda yillik bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotida har bir korxona r foiz stavkasi darjasida En normativini yoki Rn investitsiyalar rentabelligi normativini belgilaydi. Bundan kelib chiqqan holda, keltirilgan xarajatlar quyidagi nisbatlardan kelib chiqadi:

$$Sp = S + rxK = \min, Sp = S + Rn \times K = \min \text{ yoki } Sp = S + EnxK \quad (5)$$

---

<sup>1</sup> Газман В.Д. Лизинг: теория, практика, комментарии. Учебник – М.: Фонд “Правовая культура”, 2000, 43 с.

bu yerda  $S$  – yillik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari;  $K$  – investitsiyalar;  $En = 0.1$  – iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti. U taqqoslanayotgan loyihalarda investitsiya kiritish uchun birinchi va ikkinchi loyihalarning yillik xarajatlari nisbatida aniqlanadi (3-jadval).

3-jadval  
Investitsiya loyihalarining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>1</sup>  
(ming so‘m)

Loyihalar	Investitsiyalar	1dona mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari	Yillik ishlab chiqarish hajmi, ming dona	Kelitirilgan xarajatlar
Birinchi	500000.0	0.15	1000	(0.15x1000)Q 0.1x500000 q 50.150
Ikkinci	450000.0	0.16	2000	(0.16x2000) Q 0.1x 450000 q 45 320

Demak, ikkinchi loyiha samaraliroq hisoblanadi.

Shu tariqa, loyiha samaradorligini aniqlash usullaridan foydalanish yo‘li bilan lizing kompaniyalari eng samarali loyihalarni tanlab oladilar. Bunda lizing kompaniyasi zarurat tug‘ilganda ekspertizaning har bir bosqichida malakali maslahatchilarni jalg qilishi mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida lizing kompaniyasi loyiha bo‘yicha ijobjiy yoki salbiy xulosaga keladi. O‘z navbatida lizing oluvchi lizing kompaniyasiga murojaat qilishdan avval uning loyihasidan foydalanishga tarafdar va qarshi bo‘lgan barcha holatlarni o‘rganib chiqishi lozim. Masalan, asbob-uskunalar narxi, undan samarali foydalanish imkoniyati, buzilish xavfi, loyihaning likvidligi. Agar lizing va kredit (yoki moliyalashtirishning boshqa usullari) variantlari o‘rtasida taxminiy paritet kuzatiladigan bo‘lsa, u holda lizing loyihasini batafsil ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

Lizing oluvchining kredit layoqatini, ya’ni lizing to‘lovlarini lizing shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarga mos ravishda o‘z vaqtida to‘lash layoqatini aniqlash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

---

<sup>1</sup> Газман В.Д. Лизинг: теория, практика, комментарии. Учебник – М.: Фонд “Правовая культура”, 2000, 456.

**Kiritilgan kapital daromadi** balans bo‘yicha foyda (zarar) miqdorining jami passiv miqdoriga nisbati sifatida hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich lizing oluvchining asosiy va aylanma vositalardan foydalanish samarasini tavsiflaydi hamda tarmoq yoki mintaqaning boshqa korxonalari ko‘rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Shuningdek, lizing oluvchining o‘tgan davrdagi faoliyatini baholash va uning istiqbollarini aniqlash uchun foydalilik ko‘rsatkichlari “Sotilgan mahsulot hajmida foydaning ulushi”, “Aylanma vositalarining bir so‘miga to‘g‘ri keluvchi foyda” ni qo‘llash tavsiya etiladi.

“Likvidlik”, “asosiy va aylanma kapitallarning aylanuvchanligi”, “jalb qilinuvchi vositalardan samarali foydalanish” ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun balans moddalarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha guruhash lozim: korxonaning o‘z mablag‘lari, joriy aktivlar, likvidli aktivlar, tez sotiluvchi aktivlar, joriy majburiyatlar.

Likvidlik balans aktivi va passivi bo‘yicha mablag‘larni taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi. Bunda balansning aktiv qismida lizing oluvchining pul mablag‘lari hisobiga tezroq joylashtirish muddatlari bo‘yicha taqsimlangan aylanma vositalarga (asosiy fondlarga) joylashtirilgan mablag‘lari, passiv qismida esa to‘lanishi lozim bo‘lgan muddatlar bo‘yicha joylashtirilgan mablag‘lar aks ettirilishi lozim. Balans likvidligi tahlili qarzlarning qaysi qismi ishlab chiqarish jarayonini buzmasdan tezda to‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

**Likvidlik koeffitsiyenti** tez sotiluvchi aktivlarning joriy majburiyatlarga (qarzlarga) nisbati sifatida hisoblanadi. Bu koeffitsiyent darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, qarzdor shunchalik ishonchli bo‘ladi.

**Balansni qoplash (to‘lov layoqati) koeffitsiyenti** korxonaning o‘z majburiyatlari bo‘yicha unga tegishli bo‘lgan barcha aktivlarni sotish yo‘li bilan hisob-kitob qilish istiqbollarini tavsiflaydi. U joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi. Balansni qoplash va likvidlik koeffitsiyentlarini tahlil qilishda lizing oluvchining zaxiralari va debitorlik qarzlarini ham hisobga olish zarur. Baholashda debitorlik qarzlaridan foydalanishda **aktivlarning sotuv hajmiga aylanish ko‘rsatkichi** yoki zaxiralardan foydalanishda **sotilgan mahsulot tannarxiga nisbat ko‘rsatkichi** bunday ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidligini aniqlashda “xususiy manbalar bilan ta‘minlanganlik” ko‘rsatkichini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy manbalar hajmi xususiy aylanma vositalar va boshqa xususiy manbalarning mavjudligi bilan belgilanadi. “Xususiy manbalar bilan ta‘minlanganlik” ko‘rsatkichi balans bo‘yicha xususiy manbalar

qoldig‘ining passiv qoldiqlariga (asosiy vositalar hamda qimmat bo‘limgan va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi) nisbati sifatida aniqlanadi. Lizing oluvchining faoliyatida kamchiliklar mavjud bo‘lgan holatlarda aktivlarni qoplashda xususiy manbalarning ulushi kamayadi.

Aktivlardan foydalanish samaradorligi va yil davomida kiritilgan kapitalning harakatchanligini baholash uchun “sotilgan mahsulotlar hajmining joriyga aktivlarga nisbati” ko‘rsatkichini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

**Mablag‘larni jalb etish koeffitsiyenti** lizing oluvchining kredit manbalariga moliyaviy bog‘liqlik darajasini aks ettiradi. U qarzlarning joriy aktivlar miqdoriga nisbati yordamida aniqlanadi. Mazkur koeffitsiyent darajasi qanchalik kichik bo‘lsa, lizing oluvchining kredit layoqati shunchalik yuqori hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan kredit layoqati ko‘rsatkichlarining har biri asosida lizing oluvchining moliyaviy ahvoli har tomonlama baholanadi. Obyektiv qaror qabul qilish uchun bitta ko‘rsatkichnigina emas, balki turli ko‘rsatkichlar yig‘indisini tahlil qilish zarur. Yuqorida taklif etilgan tahlil natijasida lizing kompaniyasi potensial lizing oluvchining ishonchlilik darajasini aniqlaydi hamda u bilan ishslashni davom ettirish yoki to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Lizing jarayonini shakllantirish uch bosqichdan iborat bo‘ladi: birinchi bosqichda tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi; ikkinchi bosqichda lizing bitimi rasmiylashtiriladi; uchinchi bosqich esa lizing obyektidan foydalanish muddatini to‘liq qamrab oladi.

Muvaffaqiyatli ishslash uchun lizing kompaniyasi lizing bozorini, uning asosiy tendensiylarini o‘rganishi, ma’lum turdagи asbob-uskunalarga talabni aniqlashi zarur. Har bir lizing bitimi amalga oshirilishidan avval muayyan shart-sharoitlar va ehtiyojlar har tomonlama tahlil qilinishi, lizingning ijobiy tomonlari aniqlanishi, potensial lizing oluvchi uchun lizing asosida kreditlash to‘g‘ri baholanishi zarur.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Lizing jarayonini tashkil etishning asosiy bosqichlarini aytib bering.
2. Tayyorgarlik bosqichining asosiy jihatlarini sanab bering.

3. Lizing operatsiyasini o‘tkazishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni tavsiflab bering.
4. Lizing jarayonining ikkinchi bosqichida qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
5. Lizing bitimini tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatini sanab bering.
6. Lizing jarayonining qaysi bosqichida lizing to‘lovlari va monitoring ko‘zda tutilgan?
7. Lizing oluvchi tomonidan amalga oshiriluvchi kichik biznes investitsiya loyihalarining asosiy bosqichlarini sanab bering.
8. Lizing loyihalarining kompleks ekspertiza qilish uslubiyatini tavsiflab bering.
9. Tadbirkorlik loyihasini investitsiyalash variantlarini baholab bering.
10. Lizing oluvchining tadbirkorlik faoliyati sohasini tanlash omillarini aytib bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Газман В.Д. Лизинг: теория, практика, комментарии. Учебник – М.: Фонд “Правовая культура”, 2000.
2. Горемыкин В.А. Лизинг – М.: Дашков и К°, 2003.
3. Мезенцев Е., Маъмуроев А. Лизинговые операции и этапы их проведения. // Рынок, деньги и кредит, 2000, №1.
4. Рекомендации по проведению лизинговых операций, УЛК “Барака” - Т.: 1999.
5. Лещенко М.И. Основы лизинга. Учебное пособие – М. Финансы и статистика, 2001.

## **IV bob. LIZING BITIMLARINING IQTISODIY ASOSI**

### **4.1. Lizing to‘lovlarining turlari**

Lizing oluvchi va beruvchi o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning asosi lizing to‘lovlaridan iborat bo‘lib, ular ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, sotish va egalik huquqini berish munosabatlarini aks ettiradi. Iqtisodiy jihatdan lizing vositalariga egalik qilish hamda bitim maqsadini amalga oshiruvchi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish huquqi lizing obyekti uchun pul to‘langandan so‘nggina yuzaga kelishi mumkin.

Lizing to‘lovlarining iqtisodiy jihatdan asoslangan tarkibi va hajmi lizing bitimlarini tashkil etishning markaziy, eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. **Lizing uchun to‘lov** bu mulk egasi va ijarachining lizing obyektidan foydalanish jarayonida yaratilgan daromadni taqsimlash bo‘yicha iqtisodiy munosabatlar shaklidir.<sup>1</sup> U lizing obyekti qiymatini qoplash, kapital jamg‘arish va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi.

Umuman, lizing to‘lovleri mulkka egalik huquqini amalga oshirishning iqtisodiy shakllaridan biridir. Asbob-uskunalar yoki boshqa obyektlarni lizingga berishda mulk egasi uning qiymatini kapitalga belgilangan % qo‘sghan holda qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Mulkning holati va qiymati, amortizatsiya muddati va normalari, ssuda foizlari, soliq imtiyozlari va faoliyat turi lizing to‘lovlarini belgilashning obyektiv asosi hisoblanadi. Lizing to‘lovlarida uchta asosiy tarkibiy qismni ajratib ko‘rsatish mumkin:<sup>2</sup>

- iqtisodiy elementlar bo‘yicha to‘lovlar tarkibi;
- to‘lovlar darajasi yoki hajmi;
- hisob-kitoblar usuli.

Ijaraga berilgan vositalarning mos keluvchi qo‘sishimcha mablag‘lar bilan qaytarilishi lizing to‘lovlarini aniqlashning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Lizing to‘lovleri hajmini belgilab beruvchi uslubiy asos bo‘lib lizing oluvchi tomonidan yaratilgan yalpi daromadni taqsimlash mexanizmi xizmat qiladi. U foya normasi o‘rtacha bo‘lganda lizing obyekti egasi va ijarachi manfaatlarining bir-biriga mos kelishini ta’minlashi mumkin. Lizing to‘lovlarining haqiqiy hajmi tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida belgilanadi.

---

<sup>1</sup> Лещенко М.И. Основы лизинга: Учебное пособие – М.: Финансы и статистика, 2001, 64 с.

<sup>2</sup> Горемыкин В.А. Лизинг: Учебник. – М.: Дашков и К°, 2003, 236 с.

Lizing to‘lovlarini ularni amalga oshirish shakli va uslubiga asosan turlarga ajratish mumkin. Lizing to‘lovlarini amalga oshirishning turli usullari mavjud bo‘lib, ularga asosan quyidagi to‘lov turlarini sanab o‘tishimiz mumkin:

- **chiziqli to‘lov**, mutanosiblik bo‘yicha teng ulushlar bilan to‘lanadi;
- **progressiv (o‘sib boruvchi) to‘lov**, asosan lizingning dastlabki bosqichida foydalanuvchi lizing to‘lovlarini kichik qismlar bilan amalga oshirishi oson bo‘lgan, keyinchalik esa asbob-uskunalarining bo‘shashi va mahsulot ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi bilan to‘lov miqdorini oshirish mumkin bo‘lgan, moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lmagan lizing oluvchilar tomonidan amalga oshiriladi;
- **degressiv (kamayib boruvchi) to‘lov**, lizingning dastlabki bosqichida foydalanuvchi lizing to‘lovlarining asosiy qismini to‘lashni afzal ko‘rgan, moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan lizing oluvchi tomonidan foydalaniadi;
- **mavsumiy to‘lov** – to‘lov imkoniyatlari hosilni yig‘ib olgandan so‘ng amalga oshirish yengilliklar yaratuvchi qishloq xo‘jaligida va ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan qayta ishlash tarmoqlarida qo‘llanadi.<sup>1</sup>

To‘lash shakllari bo‘yicha lizing to‘lovlari **pulli, kompensatsion**, ya’ni lizing oluvchining mahsulotlari yoki xizmatlari orqali, va **aralash** to‘lovlariga bo‘linadi. Kompensatsion va aralash to‘lovlarda lizing oluvchining mahsutlot va xizmatlarni narxlari qonuniy o‘rnatilgan qoidalar asosida belgilanadi.

Shartnoma tomonlari quyidagi to‘lash usullarini qo‘llash mumkin: **umumiyl summasini belgilangan usuli, avans bilan usuli**. Avans usulida lizing oluvchi to‘laydigan avans miqdorini shartnomada belgilanadi va lizing to‘lovlari umumiyl summasidan qolgan to‘lovlarini (avans ayrılgan holda) teng qismlarida to‘lanadi. Umumiyl summasini belgilangan usulida lizing muddati davomida ikki tomon kelishilgan holda to‘lovlarni umumiyl summasi teng miqdorda (har oy, kvartal, yarim yil, yilda) to‘lanadi.

Lizing shartnomasini tuzishda tomonlar muayyan sharoitlarda bitimning barcha ishtirokchilari talablariga javob beruvchi eng ma’qul variantni tanlashlari mumkin.

---

<sup>1</sup> Джуха В.М. Лизинг. Учебное пособие – Ростов н/Д.: Феникс, 1997, 456.

## **4.2. Lizing to‘lovi hajmini aniqlash usullari**

Lizing to‘lovleri hajmini hisoblash lizing turi, to‘lovlar shakli va usuli, shuningdek, iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq holda, ya’ni barqaror rivojlanish va inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Odatda lizing to‘lovleri hisob-kitob qilinganda qat’iy belgilangan umumiy to‘lov summasi bo‘yicha to‘lovlardan foydalaniladi. Bu holda lizing to‘lovi o‘z ichiga amortizatsiya chegirmalari, qarzga olingan vositalar uchun to‘lovlar, lizing kompaniyasi marjasи, bitim bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar va lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarni kiritadi.

Hozirgi kunda lizing kompaniyalari amaliyotida amortizatsiya chegirmalari o‘rniga lizing kompaniyalari vositalarini qaytarish summasi (lizing obyekti qiymati) foydalaniladi. Avans to‘lovli lizingni hisoblashda lizing kompaniyasi marjasи lizing obyektining qoldiq qiymatidan hisoblanadi. Lizing to‘lovi bu lizing muddati davomida to‘lanuvchi barcha lizing to‘lovleri va lizing oluvchi mulkni sotib olganda to‘lashi lozim bo‘lgan summa yig‘indisidir. Qoidaga ko‘ra moliyaviy, qaytma, bo‘linma lizingda u umumiy lizing to‘lovleri tarkibiga kiritiladi. Quyida iqtisodiy adabiyotlarda o‘z aksini topgan lizing to‘lovlarini hisoblanishi ko‘rsatilgan.

### **Lizing to‘lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi:**

$$A = S * N / 100\% * T \quad (6)$$

S – lizing obyekti qiyatlari; N – to‘liq qayta tiklash uchun yillik amortizatsiya chegirmalari normasi; T – lizing muddati (yillarda).

### **Lizing kopmaniyaning vositalarni (mablag‘) jalb qilganlik uchun haq to‘lash:**

$$P_{kr} = K_r * S_{kr} / 100 \% \quad (7)$$

P<sub>kr</sub> – jalb etilgan mablag‘lar uchun haq to‘lash; K<sub>r</sub> – kredit summasi; S<sub>kr</sub> – kreditdan foydalanish stavkasi.

### **Lizing kompaniyasi marjasи:**

$$P_{kom} = K_r * S_{kom} / 100\% \quad (8)$$

P<sub>kom</sub> – lizing kompaniyasi marjasи; S<sub>kom</sub> – lizing kompaniyasi stavkasi.

**Lizing beruvchining qo‘srimcha xizmatlari** P<sub>u</sub> o‘z ichiga lizing beruvchining bitim bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish hamda lizing obyektini sotib olish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni kiritadi.

### **Lizing shartnomasi bo‘yicha jami lizing to‘lovleri summasi (LP):**

$$LP = A + P_{kr} + P_{kom} + P_u \quad (9)$$

QQS - qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 - yil 28 - avgustdag'i "Lizing tizimini rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmoniga asosan (lizing kompaniyalari lizing muddati davomida QQSdan ozod qilinadi) jami lizing to'lovleri summasiga kiritilmaydi.

Har choraklik – LV q LP / 4, har oylik – LV = LP / 12.

bu yerda LV – davriy lizing to'lovi.

Yuqorida ko'rsatilgan hisob-kitob uslubiyati bilan bir qatorda respublikamiz lizing kompaniyalari mutaxassislari o'z faoliyatida oddiy bank kreditlari bo'yicha hisob-kitoblarga o'xshash bo'lган boshqacha yondashuvdan ham foydalanadilar.<sup>1</sup> Lizing to'lovleri to'lov vaqtini bo'yicha hisoblanadi hamda o'z ichiga lizing kompaniyasi marjasni, marjaga hisoblanuvchi QQS va lizing obyekti qiymatining qaytimini kiritadi. Lizing obyekti qiymatining qaytimi uning qoldiq qiymati qaytuvini va unga nisbatan hisoblangan amortizatsiyani o'z ichiga oladi.

### **Lizing to'lovlariga kiritiluvchi amortizatsiya chegirmalari hajmi:**

$$A = (S \times N \times D) / 12 \quad (10)$$

A – lizing obyektiga hisoblangan amortizatsiya, S – lizing obyektining balans qiymati, N – lizing obyektni to'liq qayta tiklash uchun amortizatsiya chegirmalari normasi, D – ketma-ket lizing to'lovleri o'rtaidagi davr, oylarda.

Lizing obyektining qoldiq qiymati (V) lizing obyektining balans qiymati (S) va to'plangan amortizatsiya summasi (A x N) o'rtaidagi farq sifatida aniqlanadi. Lizing obyektining qoldiq qiymatini taqsimlash lizing operatsiyasi ishtirokchilari – lizing beruvchi va lizing oluvchining kelishuvchi asosida amalga oshiriladi.

$$V_n = V, \text{ bu yerda } N = T / D \text{ i } B = C - A \times N \quad (11)$$

V – lizing obyektining qoldiq qiymati, Bn – lizing to'lovlarining n-yilida lizing obyekti qoldiq qiymatining bir qismi, T - lizing muddati (yillarda), n – n-lizing to'ovi amalga oshiriluvchi davr, N – jami lizing to'lovleri soni.

### **Lizing kompaniyasi marjasni:**

$$M_n = Skom \times (S - A \times (n - 1) - V_i) \quad (12)$$

Mn – n-lizing to'lovida lizing kompaniyasi marjasni; Skom – lizing kompaniyasi marjasni.

### **Lizing kompaniyasi marjasiga hisoblanuvchi qo'shilgan qiymat solig'i (agar kompaniya QQSdan ozod qilinmagan bo'lsa):**

$$N_n = S_n \times M_n \quad (13)$$

Sn – QQS stavkasi; Nn – n-lizing to'loidagi marjaga QQS.

---

<sup>1</sup> Рекомендации по проведению лизинговых операций УЛК "Барака" - Т.: 1999, 20 с.

**Jami n-lizing to‘lovi:** LP<sub>n</sub> q A Q M<sub>n</sub> Q N<sub>n</sub> Q V<sub>n</sub> (14)

LP<sub>n</sub> – n-lizing to‘lovi.

Shu tariqa, lizing shartnomasi bo‘yicha jami lizing to‘lovlar quyidagiga teng bo‘ladi: LP = LP<sub>n</sub>.

Lizing to‘lovlar summasini hisoblashda boshqa usullari ham qo‘llaniladi. Masalan, **lizing to‘lovini miqdorini mulk qiymati va koeffitsiyentlar orqali aniqlasa bo‘ladi.**<sup>1</sup>

$$L_p = B_s \cdot a_1 \cdot a_2 \cdot \dots \cdot a_n \quad (15)$$

Bu yerda, a<sub>1</sub>, 2...n - lizing bitimi shartlarini bog‘liqligini ta’minlaydigan koeffitsiyentlar. Mulkni qoldiq qiymatini hisobga olgan holda lizing to‘lovlarini koeffitsiyenti quyidagi tenglama asosida aniqlanadi:

$$a_1 = \frac{1}{1 + Bos \times 1(1 + C_{kom}/m)^N} \quad (16)$$

bu yerda, Bos – mulkni balans qiymatidan qoldiq qiymati, foiz; Skom – moliyalashtirish stavkasi, foizi; m – yildagi to‘lovlar ni soni; N – lizing muddati davomida to‘lovlar ni umumiy soni: N = m x T.

Agar avans to‘lansa, bunda lizing to‘lovlar ni miqdorini koeffitsiyenti

$$a_2 = 1/(1 + C_{kom}/m) \text{ aniqlanadi.}$$

Birinchi to‘lovini lizing oluvchi keyinroq to‘lanadigan bo‘lsa lizing to‘lovlar ni miqdori quyidagi koeffitsiyent orqali hisoblanadi.

$$a_3 = 1/(1 - C_{kom}/m)^{N-t}, \text{ bu yerda } t - \text{yillar muddati.}$$

Shu tariqa, lizing to‘lovlar ni tenglamasi quyidagicha:

$$LP = B_s \cdot (Skom/m) / [1 - 1/(1 + Skom/m)^N] \cdot 1 [(1 + Bos \times 1/(1 + Skom/m)^N) \times 1/(1 + C_{kom}/1)]$$

#### **4.3. Lizing bitimlarini tugatish tartibi va shartlari**

Agar lizing kelishuvi lizing beruvchining tashabbusi bilan to‘xtatiladigan bo‘lsa, bu holda lizing kelishuvida ko‘zda tutilgan qoidalar asosida lizing oluvchi lizing beruvchiga bitimni yopish qiymatini to‘lashi zarur. Bitimni yopish summasi kelishuvda ko‘rsatilgan vaqt ichida to‘lanishi lozim. Lizing oluvchining lizing to‘lovlar summasini kiritish majburiyati lizing beruvchi

<sup>1</sup> Прилуцкий Л.Н. Финансовый лизинг. Правовые основы, экономика, практика.- М.: “Ось-89”, 1999, 200 с.

bitimni yopish summasini olgandan so‘ng bajarilgan hisoblanadi. Bitimni yopish summasiga quyidagilar kiradi:

1. Lizing beruvchiga lizing kelishuvi bo‘yicha to‘lanmagan barcha lizing to‘lovlari summasi ( $P_n$ ), quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(17) P_n = P_n - P_f, \text{ bu yerda } P_f - \text{amalda kiritilgan lizing badallari.}$$

2. Lizing kelishuvida ko‘zda tutilgan lizing muddati tugash davrida lizing obyektining qoldiq qiymati:

(18)  $S_0 = S - A$ , bu yerda  $S_0$  – lizing obyektining qoldiq qiymati;  $S$  – lizing obyektining balans qiymati;  $A$  – amortizatsiya chegirmalari.

3. Jarima quyidagicha aniqlanadi.

$$(19) N = S_s \times (Stk/100 + Skom/100)$$

bu yerda,  $S_s$  – lizing shartnomani to‘xtatish vaqtidan lizing obyektining o‘rta qiymati;  $Stk$  – kredit bo‘yicha foizli stavkasi; lizing beruvchining %li stavkasi.

Bitimni yopilish summasini hisoblashda keltirilgan ko‘rsatkichlarni ko‘shib chiqamiz.

$$Z = P_n + S_0 + N$$

Lizing kelishuvi shartlari bo‘yicha lizing muddati tugagach, asbob-uskunalar lizing oluvchi tomonidan sotib olinmaydi, shu sababli lizing obyektining qoldiq qiymati mavjud emas.

### **Qisqa xulosalar**

Lizing oluvchi va beruvchi o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarning asosini lizing to‘lovlari tashkil etib, bunda ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, undan foydalanish, sotish va egalik huquqini berish munosabatlari aks etadi. Lizing bitimi summasi lizing beruvchi uchun tijoratga oid qiziqish uyg‘otadi, chunki u iqtisodiy foydaga ega.

Lizing to‘lovlaring obyektivligi mulkning qiymati va holati, amortizatsiya muddati va normasi, ssuda foizlari, soliq imtiyozlari va shu kabilar yordamida aniqlanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan lizing to‘lovlari lizing mulkining yosh qiymatidan kichik bo‘lmasligi lozim, aks holda uni takror ishlab chiqarish ta’milanmaydi.

Lizing oluvchi lizing to‘lovlarini pul ko‘rinishidagi, kompensatsiya va aralash shakldagi alohida badallar ko‘rinishida to‘laydi. Lizing to‘lovlari sxemalarining quyidagi turlari qo‘llanadi: degressiv shkala (shartnoma amal qiluvchi vaqt mobaynida teng ulushlar bilan) va regressiv shkala (to‘lovlar hajmi kuchayib boradi) bo‘yicha.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Lizing beruvchining tijorat manfaatlari nimada namoyon bo‘ladi?
2. Lizing bitimlarining iqtisodiy asosini nimalar tashkil etadi?
3. Lizing to‘lovlarining turlarini tavsiflab bering.
4. Lizing hisob-kitoblarining asosi nimalardan iborat?
5. Lizing hisob-kitoblarining turlarini sanab bering.
6. Lizing to‘lovlarining turlari va ularning davriyligini aytib bering.
7. Lizing to‘lovlarining qanday sxemalari mavjud?
8. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatuvchi lizing kompaniyalari tomonidan lizing to‘lovlarini hisoblashning qaysi uslubiyati qabul qilingan?
9. Lizing to‘lovi tarkibiga kiruvchi elementlarni sanab bering.
10. Lizing hisob-kitoblarining kompensatsiya shakli nimani anglatadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Горемыкин В.А. Лизинг: Учебник. – М.: Дашков и К°, 2003
2. Красева Т. Влияние амортизации и процентной ставки на динамику лизинговых платежей //Маркетинг 2001. № 6, 56-59 с.
3. Лещенко М.И. Основы лизинга Учебное пособие – М. “Финансы и статистика”, 2001, 64-82 с.
4. Прилуцкий Л.Н. Финансовый лизинг. Правовые основы, экономика, практика – М.: “Ось-89”, 1999.
5. Рекомендации по проведению лизинговых операций УЛК “Барака” - Т.: 1999.
6. Джуха В.М. Лизинг. Учебное пособие. – Ростов н/Д.: Феникс, 1997.

## V bob. JAHON BOZORIDA LIZING SIYOSATI

### 5.1. Lizingning jahon miqyosida rivojlanish xususiyatlari

Jahon tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, lizing rivojlanib borayotgan 30 yil ichida uning Yevropa investitsiya bozoridagi ulushi 15 % ga yetdi. Lizing rivojlanib, oddiy moliyaviy xizmatdan yuqoriq ahamiyat kasb eta boshladi. Jahon lizing bozorining asosiy qismi “AQSH-G‘arbiy Yevropa-Yaponiya” uchburchagida mujassamlashgan. Lizing sohasida Amerika yetakchilik qilib, ikkinchi o‘rin Yevropaga, uchinchi o‘rin esa Osiyoga tegishli.

1992-93 - yillar jahonda lizingning rivojlanishi uchun noqulay yillar bo‘ldi. Bu yetakchi G‘arb mamlakatlaridagi kuchli iqtisodiy inqirozlar bilan bog‘liq hisoblanadi. Shu yillar davomida jahonda lizing operatsiyalari hajmi 10 %ga qisqardi. Bu pasayish shunday kuchga ega bo‘ldiki, AQSH, Avstraliya, Osiyo va Afrika mamlakatlarida lizing operatsiyalari sonining o‘sishiga qaramay, jahonda lizing operatsiyalari hajmi 4 %ga kamaydi.<sup>1</sup>

Yevropada lizing biznesi “Leaseurope” lizing kompaniyalari assotsiatsiyalari Yevropa federatsiyasining yillik hisobotlarida yoritib boriladi. Yevropada oxirgi 13 yil ichidagi lizing faoliyati tadqiqotlarini baholash bo‘yicha lizing operatsiyalari hajmi 6 baravar, ya’ni yiliga o‘rtacha 15 % ga o‘sdi. Lizing faoliyati bo‘yicha yetakchilar qatoriga lizingga kiritilgan kapital hajmi 436,7 mln yevro bo‘lgan Daniya, Buyuk Britaniya (271,9 mln yevro), Fransiya (275,05 mln yevro) va Italiya (228,9 mln yevro) kabi mamlakatlarni kiritish mumkin. Hozirgi paytda, lizing xizmatlarining Estoniyada 42,07 %, Irlandiyada 21,9 %, Chexiyada 19,5 % va Shveysariyada 17,6 % o‘sishi kuzatildi.<sup>2</sup>

Yevropada lizing operatsiyalarining aksari qismi ko‘char mulk bilan bog‘liqdir. Yevropaning yetakchi mamlakatlari bo‘yicha yangi asbob-uskunalar yetkazib berishda lizing obyektlarining ulushi 11-15 % atrofida bo‘lib, faqat Buyuk Britaniyadagina 30 %dan oshdi. Buyuk Britaniyada lizing juda rivojlangan bo‘lib, jami lizing bitimlari qiymati 35,025 mln yevroni tashkil etadi. Bu jihatdan Daniyaning ko‘rsatkichlari ham yuqori – 31,029 mln yevro. Asbob-uskunalar lizingi Estoniyada 77,2 %, Shvetsiyada 52,6 %, Slovakiyada 41,9 %, Germaniyada 33 % va Marokashda 32,1 % o‘sdi. Ko‘chmas mulk lizingi ko‘proq Italiyada tarqalgan bo‘lib, uning ulushi 35,9 %ni, Fransiya va Daniyada esa mos ravishda 20,7 va 17,8 %ni tashkil etadi.

<sup>1</sup> [www.innov.ru/leasing/news/in-i.htm](http://www.innov.ru/leasing/news/in-i.htm)

<sup>2</sup> Прилуцкий Л.Н. Финансовый лизинг. Правовые основы, экономика, практика – М.: “Ось-89”, 1999, 145б.

Lizingga olingan asbob-uskunalar tuzilmasi juda qiziq bo‘lib, u mamlakatdan mamlakatga o‘tib borgan sari keng miqyosda o‘zgarib boradi. Jami lizing operatsiyalari hajmi va lizingning o‘sish sur’atlari bo‘yicha yengil avtomobillar lizingi yetakchilik qiladi. Bu bexosdan emas, albatta, chunki xalqaro turizm rivojlanib, ishbilarmonlik faolligi o’smoqda, demak, faoliyat sohasi turli xil bo‘lgan shaxslarning ish bilan bog‘liq safarlari ham ortib bormoqda. O‘zbekistonda mazkur biznes turini amalga oshirishga birinchi harakatlar qilinmoqda. Xususan, “UZDAEWO” korxonasi o‘z faoliyatida “Damas” markali avtomobillarni lizingga beradi. Yevropa mamlakatlarida yuk avtomobillari lizingi faolroq qo‘llanmoqda. Bu sohadagi ko‘rsatkichlar uning lizing biznesi uchun katta hajmli va barqaror bozor ekanligidan dalolat beradi. Masalan, Italiyada mashina va sanoat asbob-uskunlari ulushi 54,3 %ga, Ispaniyada 44,3 %ga va Fransiyada 37,2 %ga yetdi. Norvegiya va Lyuksemburgda esa umuman rivojlanmagan. Slovakiya (63,0 %), Chexiya (60,8 %) va Vengriya (58,4 %) avtomobillar lizingi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Germaniyada lizingga olingan asbob-uskunalarning yaramidan ko‘pi kompyuterlar va idora texnikasiga to‘g‘ri keladi.

Lizing xizmatlarining asosiy foydalanuvchilari sanoat, qurilish, xususiy xizmat ko‘rsatish sohasi, qishloq xo‘jaligi va kommunal xo‘jalik sohalari hisoblanadi. Sanoatda lizing operatsiyalari eng yuqori ko‘rsatkichlarga Italiya (59,6 %), Fransiya (53,3 %) va Ispaniyada (47,0 %) erishildi. Qishloq xo‘jaligida Fransiya (5,3 %) yetakchi hisoblanadi. Finlyandiyada lizing kompaniyalarining davlat xizmatlari sohasida mijozlar soni ko‘p – 35,6 %. Xususiy foydalanuvchilar bilan lizing operatsiyalari esa Shveytsariya (49,8 %), Irandiya (37 %), Avstriya (31,7 %) va Vengriyada (20 %) keng tarqalgan. Bundan tashqari, Yevropada ko‘chmas mulk lizingi ham tobora keng tarqalmoqda (4-jadval).

4-jadval  
1991-2015 yillarda Yevropada ko‘chmas mulk lizingi tuzilmasi<sup>1</sup>

Yil	Sanoat inshooti	Chakana savdo do‘konlari	Ofis	Mehmonxona	Jamoat. binolari	Boshqa	%da
1991	32,9	19,2	21,5	6,5	3,1	16,8	
1995	31,8	21,5	24,2	6,0	1,9	14,6	
2000	26,3	26,3	28,6	2,2	4,4	12,2	
2010	28,0	25,8	26,6	2,1	6,8	10,7	
2015	29,2	22,6	27,4	3,5	4,7	12,6	

<sup>1</sup> [www.innov.ru/leasing/news/in-i.htm](http://www.innov.ru/leasing/news/in-i.htm).

Ko‘chmas mulk lizingida sanoat inshootlari, idora binolari va chakana savdo do‘konlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu lizing xizmatlari rivojlanishi bo‘yicha Italiya va Fransiya yetakchi hisoblanadi.

Shunisi qiziqliki, lizing operatsiyalarining chorak qismidan ko‘pi sanoat inshootlariga to‘g‘ri keladi. Lizing munosabatlarining bunday turi O‘zbekiston uchun ham, ayniqsa, kichik va xususiy tadbirkorlikda juda qulay deb hisoblash mumkin, chunki lizing kompaniyalari tadbirkorlarga narxi juda ham qimmat bo‘lmagan kichik novvoyxonha, mini-pisseriya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va yog‘ ishlab chiqaruvchi mini-zavodlarni lizingga berishi mumkin.

Osiyo mintaqasi ham chetda qolgani yo‘q, bu yerda ham lizingga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Osiyoda eng ko‘p lizing operatsiyalari Yaponiyada amalga oshiriladi. Bu mamlakat lizing operatsiyalari hajmi bo‘yicha jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

O‘tgan asrning 90 - yillaridan boshlab lizing Gonkong, Indoneziya, Tayvan, Singapur va ayniqsa Janubiy Koreyada juda tez rivojlanmoqda. Janubiy Koreya jahon tasnifida bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha beshinchi o‘ringa chiqib olgan.

Lizingning rivojlanishi Avstraliyada ham muvaffaqiyatli kechmoqda. Lizing operatsiyalari hajmining o‘sishi Avstraliyaning jahon tasnifida to‘qqizinchi o‘ringa chiqib olishiga imkon berdi.

Afrikaning lizing bozorini asosan bitta mamlakat, ya’ni Janubiy Afrika Respublikasi namoyon etadi. Afrikaning moliyaviy kompaniyalari lizing operatsiyalarini o‘z mamlakatida ham, xorijiy mamlakatlarda ham kengaytirib bormoqda.

Lizing tuzilmasi Janubiy Amerikada ham rivojlangan. Janubiy Amerikada lizing bozorining katta qismi Braziliyaga (73 %) tegishli bo‘lib, bu mamlakat jahon tasnifida sakkizinchi o‘rinni egallagan. Boshqa mamlakatlar ulushi esa quyidagicha: Kolumbiya – 28,7 %, Chili – 24,7 %, Peru – 91,7 %. Faqat Venesuelladagina (11,3 %) bu ko‘rsatkichlarning biroz pasayganligini qayd etish joiz.

Hozirgi kunda jahonda bir necha mingta lizing kompaniyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning faoliyati lizing operatsiyalarining hajmi va yo‘nalishi, salohiyati, mintaqaviy joylashuvi va boshqa oimllariga ko‘ra taqsimlanadi.

## **5.2. Lizingning jahon integrasiyasi bilan bog‘liqlikda rivojlanishi**

Amerikaning ikkita yirik kompaniyasi - General Motors Acceptance Corp. va GE Capital jahondagi eng yirik lizing kompaniyalari bo‘lib, ularning lizing operatsiyalari hajmi deyarli bir xil hisoblanadi. Bundan tashqari, GE Capital aktivlar hajmiga ko‘ra boshqa barcha kompaniyalardan deyarli ikki baravar oldindadir. U ichki bozor bilangina cheklanib qolmay, xorijiy bozorlarni ham faollik bilan egallab olmoqda.

Amerikaning keyingi uchta kompaniyasi - AT & Capital, BOT Financial Corp va IBM Credit Corp ham lizing shartnomalari hajmi sezilarli o‘sib borayotgan kompanyalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, birinchi o‘nlikdan Yaponianing Orix Corporation kompaniyasi va Yevropaning to‘rtta lizing kompaniyasi o‘rin olgan. Yaponianing eng yirik lizing kompaniyasi Orix Corporation faoliyatida lizing faoliyatining faollashuvi kuzatilmoqda. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, bu kompaniyada lizing hajmi o‘rtacha 1,3 % ortgan.

Fransiyaning Sociate Generale lizing kompaniyasi 1968 - yildan boshlab dunyoda eng tarqalgan “Sogellease” lizing tuzilmalari tarmog‘ini yarata boshladi. Bu tarmoq hozirgi kunda jahondagi 27 ta firmani o‘z ichiga oladi. 10 yillik faoliyat davomida lizing operatsiyalari hajmi 1,6 mld. AQSH dollaridan 5,4 mld. AQSH dollarigacha, ya’ni to‘rt baravar o‘sdi.<sup>1</sup>

Bu kompaniyalar uchun umumiyligi jihat shuki, jahon lizing biznesida yetakchi o‘rinlarni yirik ishlab chiqaruvchilar - General Motors, General Electric, Daimer Benz (debics) va IBM tomonidan tuzilgan moliya tuzilmalari egallagan. Jahondagi eng yirik lizing kompaniyalari – kelajakdagi potensial hamkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mamlakatimizdagi lizing oluvchilar uchun lizing loyihibarini amalga oshirishda foyda keltirishi shubhasiz, albatta. Bunga sabab shuki, yuqorida sanab o‘tilgan kompaniyalardan har birining imkoniyatlari lizing bitimini amalga oshirish uchun yetarligini aniqlashga imkon beradi hamda dastlabki tanishib chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing qo‘llanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligidagi lizing kompaniyalari o‘z manfaatlarini himoya qilish va lizing bznesini rivojlantirish uchun milliy lizing assotsiatsiyalarini tuzib olganlar.

Uchta qit’ada Milliy lizing assotsiatsiyalari lizing tarmog‘ini xalqaro miqyosda namoyon etish, boshqa xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilish, lizing sohasida bilimlar to‘plash, bahs va munozaralar o‘tkazish uchun mintaqaviy tashkilotlarga asos solganlar.

---

<sup>1</sup> [www.innov.ru/leasing/news/in-i.htm](http://www.innov.ru/leasing/news/in-i.htm)

Yevropada bu shtab-kvartirasi Bryussel shahrida joylashgan Leaseurope (asbob-uskunalar lizingi bo'yicha kompaniyalarning Yevropa federativ uyushmasi).

Osiyoda – sekretariati Singapurda joylashgan Asia lease.

Janubiy Amerikada – sekretariati Meksikada joylashgan Fela lease Lotin Amerikasi lizing Federatsiyasi.

Yuqorida sanab o'tilgan uch federatsiya hamda AQSH va Avstraliyaning lizing kompaniyalari assotsiatsiyalari Jahon lizing kengashini (World leasing Counsil) tuzdilar.

Lizing biznesi tobora ko'proq kompaniyalarni qamrab olmoqda. Bu holat Rossiyada lizing kompaniyalari assotsiatsiyasini tuzish zaruratini tug'dirdi va bu assotsiatsiyaga 1994 - yil 5 - mayda asos solindi.

Bundan tashqari, yengil va yuk avtomobillari, samolyotlar, kompyuterlar lizingi ishtirokchilari uchta ixtisoslashgan assotsiatsiya tuzdilar. Bular European Car and Truck Rental Association (ECATRA) – yengil va yuk avtomobillarini ijara beruvchilarning Yevropa assotsiatsiyasi; International Association of air craft lessors – samolyotlar lizingi bilan shug'ullanuvchilarning xalqaro tashkiloti; Europlan Computer leasing and trading association (ECLAT) - kompyuterlar lizingi va savdosi Yevropa assotsiatsiyasidir.

Jahoning barcha mamlakatlarida xususiy va davlat korxonalari bilan lizing operatsiyalarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi "Orien Lizing Grup" turidagi xalqaro lizing birlashmalarini tuzish xalqaro lizing operatsiyalarini rifojlantirishga xizmat qildi. Bunda xalqaro lizing klublari ham katta rol o'ynadi. Ularning faoliyati bir mamlakatdan boshqasiga lizing obyektlarini yetkazib berishda vositachilik qilishga asoslanadi. G'arbiy Yevropada lizing klublariga misol qilib "Interliz" assotsiatsiyasini ko'rsatish mumkin. U Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Norvegiya, Fransiya, Germaniya, Shveytsariya va Shvetsianing lizing firmalarini birlashtiradi. "Lizklab" assotsiatsiyasiga esa Avstraliya va Yevropa mamlakatlarining 10tasi kiradi. Osiyoda esa bunday birlashmalar qatoriga "Eyshaliz" birlashmasini kiritish mumkin.

Xalqaro lizing bitimlari xalqaro lizing birlashmalaridan tashqari asosan mamlakat ichida faoliyat yuritishi mo'ljallangan milliy kompaniyalar tomonidan ham amalga oshiriladi. Bunda bosh kompaniya chet elda o'zining shu'ba bo'limlarini ochadi. Ularning ichida Amerika kompaniyalari yaqqol ajralib turibdi – "Siti Korporeyshn", "Benk Amerika korporeyshn", "Kemikal N'yu-York Korp.", "Menyufekchurers Xanover Korp." kabi AQSH transmilliy

banklarining lizing bo‘linmalari shu’balari. Asosan ular eksport lizing operatsiyalari bilan shug‘ullanadilar.

Amerika kompaniyalariga Angliyaning “Barklayz Benk”, “Lloyds”, “Neshnl Vestminster Benk” va “Midlend” banklariga mansub bo‘lgan lizing kompaniyalari jiddiy raqobat ko‘rsatmoqdalar. Ularning umumiy eksport hajmi 1,5-4,5 %ni tashkil etadi.

Tinch okeani havzasida esa Yaponianing “Sumitomo” yirik moliyaviy guruhining vakillari “Orient lizing” va “Djeneral Lizing” boshchiligidagi yapon kompaniyalari mustahkam o‘rinlarga ega. Ularning umumiy eksportdagi ulushi esa 2-4 %ni tashkil etadi.

Eksport lizingining ulushi hozircha uning ichki bozordagi rolini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan ancha pastligi shubhasiz, albatta. Shu bilan birga, eksport lizing operatsiyalarini o‘stirish uchun mavjud zaxiralar ham katta. Bu zaxiralar rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida ijara xizmatlari savdosini o‘stirishdan tashqari ichki bozori katta bo‘lgan rivojlanayotgan va yangi sanoat mamlakatlarida lizing miqyosini kengaytirish bilan ham bog‘liq. Bu mamlakatlarning lizing xizmatlariga ehtiyojlari asosan ularni import qilish hisobiga qondirilishi ko‘rinib turibdi.

### **5.3. Rivojlangan mamlakatlarda lizingning rivojlanishi**

**Amerika Qo‘shma Shtatlarida lizing bozori.** Bugungi kunda, AQSHdagi lizing beruvchilar uchta asosiy guruhga bo‘linadilar: Mustaqil lizing kompaniyalari, banklar huzuridagi lizing kompaniyalari va uskunalar ishlab chiqaruvchilar huzuridagi kompaniyalar. Mustaqil lizing kompaniyalariga lizing tarmog‘idagi mablag‘ aylanishining taxminan yarmi, ya’ni 50-52 %i, banklarga 27 va uskunalar ishlab chiqaruvchilar huzuridagi kompaniyalar 19 %i, bozorning boshqa ishtirokchilariga esa 2 %i to‘g‘ri kelmoqda. Lizing eng daromadli moliya vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda: soliqlar to‘lagunga qadar foydaning tushumga nisbati tarmoq bo‘yicha o‘rtacha 18 %ini, sarmoyadan daromad esa 15 %ga yaqinroqni tashkil etadi.

AQSHda lizingning bunchalik gullab-yashnashiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

1. Iqtisodiy pasayish ro‘y bergen va sanoat korxonalarining foydasi kamayib ketgan, yuqori inflyatsiya hukm surgan, ishlab chiqarishni modernizasiyalash va aholini band qilish muammolarini hal etish zarurati paydo bo‘lgan dastlabki kezlarda lizing sektoriga rag‘batlantiruvchi imtiyozlar berish va uning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga ehtiyojlar tug‘ildi.

1970 - yilga qadar Amerikada lizingga asosan qimmat turadigan, obyektlar berilgan edi. Usha yili Bank xolding kompaniyalari haqida qonun qabul qilinganidan keyin banklarga lizing bilan shug‘ullanish ruxsat berildi. Banklar lizingga juda jiddiy e’tibor bilan qaray boshladilar. Ko‘pgina mustaqil kompaniyalar banklar tomonidan sotib olindi, o‘z lizing kompaniyalarini rivojlantirishga ancha-muncha mablag‘larni investitsiya qildilar, bozorga professional yosh odamlar kirib kelishdi, ular bank tuzilmasi orqali bu bozorni qizdirdilar va lizingga nisbatan qiziqishni kuchaytirib yubordilar.

2. Tarmoqning rivojlanishi barobarida lizing operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotni hisobga olish, yoritish va ochishning yangi tamoyilini qabul qilishga ehtiyoj tug‘ildi. Hisobga olishning takomillashtirish jarayonida AQSH qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha komissiyasi turdi. 1964-1976 - yilgacha lizing operatsiyalarini buxgalteriya ro‘yxatiga olish tamoyillari to‘xtovsiz takomillashib bordi, bu esa oxir oqibatda 1976 - yili 13-sonli Moliya hisobi standartining qabul qilinishiga olib keldi. Mazkur standart bugungi kunda ham amalda bo‘lib, hamma uchun tushunarli va yaqqol ko‘rinib turadigan lizing operatsiyalarining joriy etilishiga imkon to‘g‘dirdiki, natijada keyinchalik tarmoqqa sarmoyaning oqib kirishini ta’mnladi, lizing operatsiyalarining korporativ va qarz qog‘ozlari bozori rivojlanishiga rag‘bat bo‘ldi.

3. AQSHda lizingning juda tez rivojlanib ketishi sabablardan soliq imtiyozlari: ya’ni jadallashtirilgan amortizatsiya va investitsiyalangan soliq imtiyozi (yangi investitsiyalar qiymatining 10 %gacha soliq summasidan chiqarib tashlandi) sabab bo‘ldi. Ammo soliq imtiyozlariga huquq-shartnoma AQSH moliya vazirligining ichki daromadlar boshqarmasi tomonidan lizinglar uchun o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq kelgan taqdirdagina paydo bo‘ladi. Ya’ni:

- lizingning davomiyligi 30 yildan kam bo‘lishi shart;
- lizing mulkni oqilona bozor narxidan past naxrda sotib olinishi imkoniyatini ko‘zda tutmasligi kerak;
- lizing dastlabki to‘lovlar bitimining oxirigacha keyingilaridan ko‘p bo‘ladigan to‘lovlar jadvalini ko‘zda tutmasligi lozim. Agar bunga yo‘l qo‘yilsa, oldi-sotdi bitimi ba’zi soliqlardan qochish maqsadida amalga oshirilgan lizing sifatida tuzilganligidan dalolat berishi mumkin;
- lizing ijara beruvchini foyda olishning bozordagi me’yoriy darajasi bilan ta’minalashi zarur;
- lizingni uzaytirish imkoniyati uskunalarning bozordagi me’yoriy bahosini hisobga olishi kerak. 1977 - yilgacha firmalar uskunalarni ijaraga, ularning bahosini balanslarida ko‘rsatmagan holda olishlari mumkin edi, katta

miqdorda qarzdor bo‘lgan firmalar o‘sib ketgan qarz summasini ko‘rsatmagan holda qo‘sishimcha ravishda uskunalar sotib olish imkoniyatiga ega edilar. Shunday qilib, haqiqiy qarz miqdori investor va ekspertlardan yashirib qolinardi. 1976 - yili Moliya hisobini standartlash boshqarmasi RA5 13 ni tasdiqladi, unga ko‘ra ba’zi lizing bitimlari mulk xarid qilish va zimmaga moliyaviy majburiyatlar olish sifatida hisoblana boshladи. Bunday standartdan ko‘zda tutilgan maqsad "haqiqiy ijara" va lizing vositasida mulk sotib olish o‘rtasidagi farqni chegaralab qo‘yish edi. Standartda quyidagi bandlar bor edi: bitimning yakunida mulkka egalik huquqi ijarachiga o‘tadi; lizing bitimi mulkni bitimning oxirida bozordagi narxdan arzon sotib olishga imkon beradi; bitim muddati mulk xizmati foydali muddatining 75 %dan ko‘p yoki shunga teng bo‘ladi; lizing to‘lovlarining joriy qiymati lizing mulkining bozordagi me’yoriy bahosinining 90 %dan ko‘p yoki shunga teng bo‘ladi. Agar bitim mana shu shartlardan loqal bittasini qoniqtirsa ham mulk ijarachi balansida hisobga olinadi.

1986 - yildan boshlab lizingning soliq asosidagi iqlimi o‘zgardi. AQSH soliq tizimida o‘tkazilgan islohot investitsiyalarga soliq imtiyozlarini bekor qilinishi hamda amortizatsiya sohasini o‘zgarishi orqali soliq imtiyozlariga yaqinlashuvni cheklab qo‘ydi. Soliq islohoti lizingning iqtisodiy foydasini ancha-muncha kamaytirib yubordi, ammo, shunday bo‘lsada, bu tarmoq rivojlanishdan to‘xtab qolgani yo‘q.

Keyingi 50 yil mobaynida lizing AQSHda davlat iqtisodiy siyosatining strategik muhim yo‘nalishi sifatida e’tirof etib kelindi. Lizing tarmog‘i tarixining kattagina qismi AQSH Kongressi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Kongress asosiy vositalarining sotib olinishiga, Amerika ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish bazasini yangilashga sarmoya kiritilishini har tomonlama rag‘batlantirib turdi.

XX asrning 70-80 - yillarida lizingning gurkirab rivojlanishiga aynan vositachi tuzilmalarning faol ishtiroki sabab bo‘lgan. Mazkur vositachi moliyaviy tashkilotlarga soliq bo‘yicha yo‘naltirilgan katta imtiyozlar ularning mazkur sohadan manfaatdor bo‘lishlarini ta’minlab bergen.

**Yevropada lizing bozori.** Yevropada lizing turlaridan biri bo‘lmish moliyaviy lizing 60-yillar boshlarida rivojlanishni boshladи. G‘arbiy Yevropada moliyaviy lizingni tez rivojlanishiga bir qancha omillar sabab bo‘ldi. Eng asosiysi bu 50 - yillardagi ilmiy-texnika inqilobi bo‘lib, bu korxonalar tomonidan asosiy vositalarni yangilashning katta hajmdagi ehtiyojiga olib keldi. Moliyaviy lizing mexanizmi esa uskunalarni bank kreditlari orqali sotib olishdan ko‘ra korxonalar uchun qulay bo‘lib chiqdi. Xuddi shu davrga kelib moliyaviy

xizmatlar bozori jadal rivojlanishi tufayli, yangi shakldagi moliyaviy kreditlash va past foizli stavkalar taklifi ko‘paydi. Ushbu xolat lizing faoliyatini soliqqa tortishning har tomonlama qulayligi bilan birgalikda lizing kelishuvlarini rivojlantirdi. 2002 - yilda jahon iqtisodiyoti pasayishiga qaramay, Yevropa lizing kompaniyalari tomonidan lizing orqali 200 mldr. yevro mablag‘ investitsiya qilindi. Bu esa 2001 - yilga nisbatan 3,4 %ga ko‘p edi.

Shuni ta’kidlash lozimki, 1994 va 2002 - yillar oralig‘ida lizing sektori yaxshi rivojlanib, har yiliga 11 %dan o‘sishi kuzatildi. Agarda lizing faoliyatini jug‘rofiy jihatdan taqsimlanishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Yevropadagi umumiy moliyalashtirish hajmining 72 %i to‘rtta mamlakat - Fransiya, Germaniya, Italiya va Buyuk Britaniyaga to‘g‘ri kelishini ko‘rishimiz mumkin. Yevropada lizing operatsiyalarini ikki yo‘nalishga ajratish qabul qilingan bo‘lib, bu — ko‘chmas mulk lizinga va uskunalar lizingidir. 2002 - yilda ko‘chmas mulk lizingi 39 mldr. yevro miqdoridagi hajmda bo‘lib (bu 2001 - yilga nisbatan 18 %ga ko‘proq), shu davrdagi uskunalar lizingi hajmi o‘zgarmagan holda 160 mldr. yevroni tashkil etdi (2001 - yilga nisbatan 0,45 %ga o‘sgan).<sup>1</sup>

**Germaniyada** hozirgi kunda ko‘plab lizing kompaniyalari mavjud bo‘lib, Lizing uyushmasi tashkil etilgan va unga 57 ta nemis lizing kompaniyalari a’zo bo‘lgan. Eng katta kompaniyalardan "Mitfinans Gmbx" va "Gefa-lizing Gmbx" yirik kompaniyalar hsoblanadi.

**Avstriya davlatida** lizing sohasi 25 yildan beri rivojlanib kelmoqda. Ularda bolalar bog‘chasi va xattoki maktablar ham lizingga beriladi.

Ma’lumot uchun shuni aytib o‘tish joizki, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida turli darajada bo‘lsa ham amortizatsiya ajratmalari tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan soliq imtiyozlari mavjud. Ular muayyan sohani rivojlanishini rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajribaviy-konstrukturlik ishlanmalarni yoki umumiy investisiyani jonlantirish uchun foydalaniladi.

#### **5.4. Mustqil davlatlar va hamkorlik mamlakatlarda lizingni huquqiy asoslari**

**Rossiya** davlati o‘tgan asrning 90 - yillaridan boshlab, lizingning rivojlanishidan manfaatdorlikni namoyon qilmoqda. 90 - yillargacha Rossiyada lizing kichik miqyosdagina, shunda ham faqat xalqaro savdoda qo‘llangan. Sobiq Ittifoqda xalqaro lizing bitimlarini amalga oshirish harakatlari o‘tgan asrning 40 - yillarida, ikkinchi jahon urushi davrida ko‘zga tashlangan edi.

<sup>1</sup> Газибеков Д.Г. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти – Т.: Фан ва технология, 2004, 14 б.

AQSH Lend-liz dasturini qabul qilgan, unga ko‘ra Rossiya lizing shartlarida harbiy texnika oluvchi asosiy tomon bo‘lgan. 80 - yillarning boshida esa V/O “Sovfraxt”, “Sovtransavto” kabi tashkilotlar xalqaro lizing bilan shug‘ullana boshlagan, 90 - yillarga kelib esa ular qatoriga “Avtoeksport”, “Traktoreksport” tashkilotlari ham qo‘shilgan.

Rossiyada birinchi lizing kompaniyalari 1990 - yilda paydo bo‘ldi. Birinchi bo‘lib ro‘yxatga olingan lizing kompaniyalari qatoriga mamlakatda ishlab chiqariluvchi qishloq xo‘jalik texnikalari lizingi bilan shug‘ullanuvchi “Rosagrosnab” va samolyotlar lizingi bilan shug‘ullanuvchi “Aerolizing”ni kiritishimiz mumkin. Banklar tomonidan ham ko‘plab lizing kompaniyalari tuzilgan: “Baltliz” (Promstroybank), “Lizing biznes” (Mosbiznesbank), “Rossiya” (Agroprombank bilan Promstroybankom) va boshqalar. Birinchi kompaniyalar ortidan qo‘shma korxonalar ham tuzila boshladi: “Kolumb” (“Agrolizing” firmasi), Rossiya-Germaniya “Mejsberyuraskolizing” korxonasi (Mejekonomberbank”). Moskva shahri hukumati tomonidan qurilish texnikasi lizingiga ixtisoslashgan “Likostroy” kompaniyasi ta’sis etildi. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha “Lukoil” neft kompaniyasi o‘ziga xos yo‘l tutdi. 1995 - yilda u xolding kompaniyasining barcha shu’ba bo‘limlari uchun asbob-uskunalar yetkazib berishni o‘z zimmasiga olgan “LK-lizing” kompaniyasini ta’sis etdi.<sup>1</sup>

Rossiyada lizing operatsiyalarini rivojlanishida muhim qadamlardan biri soliq va bojxona imtiyozlarini qonunchilikda belgilanishi bo‘ldi. Rossiya Federatsiyasi hukumatining qator qarorlari lizing sektorini rivojlantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bulardan:<sup>2</sup>

- 1995 - yilda qabul qilingan 1133-raqamli “Ishlab chiqarish va mahsulot realizatsiyasidagi xarajatlar tarkibi va foyda solig‘i hisoblanayotganda hisobga olinadigan moliyaviy natijalarni shakllantirishni tartibga solish to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori bo‘lib, lizing oluvchilarga lizing to‘lovlarining mahsulot tannarxiga to‘liq o‘tkazishga ruxsat bergen;

- 1996 - yilda qabul qilingan 752-raqamli “Rossiya Federatsiyasida lizing faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qaror bo‘lib, unda lizingga berilgan asbob-uskunalarga jadallashtirilgan amortizatsiyasini qo‘llash imkoniyatini yaratib bergen;

<sup>1</sup> [www.leasbusi.ru/](http://www.leasbusi.ru/) Анализ деятельности Российских лизинговых компаний.

<sup>2</sup> Фозибеков Д.Ф. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма— Т.: Фан ва технология, 2004.

• Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan 633-raqamli “Investitsion faoliyatda lizingni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Hukumat 1996-2000 - yillarga mo‘ljallangan lizingni rivojlantirishning federal dasturini tayyorlash majburiyatini o‘z zimmasiga olish bilan birga, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini uch yilgacha moliyaviy lizing shartnomalaridan oladigan daromadiga solinadagan soliqdan, bank va kredit tashkilotlarini uch va undan ortiqroq muddatga mo‘ljallangan, hamda moliyaviy lizing operatsiyalarini o‘tkazishga yo‘naltirilgan kreditlarni berishdan oladigan daromadni foyda solig‘idan, lizing beruvchi obyektini sotib olayotganda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etish kabi qator o‘zgartirishlar kiritilishini belgiladi. Qarorda xalqaro moliyaviy lizing operatsiyasi obyektini bojxona boji va soliqlardan qisman ozod qilinishi ko‘zda tutilgan;

• 1998 - yilda qabul qilingan “Lizing to‘g‘risida”gi qonun Rossiya Federatsiyasida lizingni rivojlanishida ma’lum bir to‘siqlarni yuzaga keltirdi, ya’ni qonunda ichki qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lib va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan mos kelmagan;

• 2000 - yilda davlat Dumasida Rossiyada lizing rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida parlament tinglovlari o‘tkazildi va unda ishchi guruhni tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ishchi guruhning asosiy vazifasi sifatida "Lizing to‘g‘risida"gi qonunga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritishning tashkil etish va yagona qonun loyhasini ishlab chiqish bilan birga, moliyaviy ijara (lizing)ni tartibga soluvchi soliq, bojxona va valyuta qonunchiliga qilinadigan qo‘srimcha va o‘zgarishlarni umumlashtirish yuzasidan tavsiyalar tayyorlash belgilandi;

• 2002 - yilda “Lizing to‘g‘risida”gi federal qonunga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, u “Moliyaviy ijara (lizing) to‘g‘risida”gi qonun deb nomlandi va lizingni rivojlantirishga qaratilgan yangi huquqiy me’yirlarni o‘z ichiga qamrab oldi. Qonunning yangi tahriri lizing sohasini moliyalashtirishga qiziqqan investorlar lizing loyihibalarini amalga oshirishda qonun qoidalar tez-tez o‘zgarmasligiga ishonch xosil qilishlari uchun juda muhim bo‘ldi.

**Qozog‘iston Respublikasi** lizing operatsiyalarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish 1999 - yilning iyul oyida qabul qilingan Fuqarolik Kodeksining «Mulkiy yollash» 29 - bobi va 2000 - yilning iyulida qabul qilingan «Moliyaviy lizing to‘g‘risida»gi Qonunga asosan amalga oshiriladi. Fuqarolik Kodeksi va yuqoridagi Qonunga 2004 - yilning 18 - martida o‘zgartirishlar kiritilgan.

Qonunga asosan moliyaviy lizingning ta’riflanishi quyidagicha: «lizing oluvchi sotuvchidan xarid qilingan va lizing shartnomasida ko‘rsatilgan lizing predmetini belgilangan haq to‘lash evaziga va belgilangan shartlarda tadbirkorlik maqsadlrida foydalanish uchun uch yildan kam bo‘lmagan muddatga lizing oluvchiga beruvchi investitsion faoliyat turi hisoblanadi». Bunda lizing shartnomasi bo‘yicha lizing predmetini berish quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasiga javob berishi lozim:

- ◆ lizing predmetini lizing oluvchiga mulk qilib berish va (yoki) lizing oluvchiga qat’iy belgilangan narxda lizing predmetini xarid qilish huquqini berish lizing shartnomasida belgilab qo‘yiladi;
- ◆ lizing muddati lizing predmetining foydali xizmat ko‘rsatish muddatining 75 %idan ortishi lozim;
- ◆ butun lizing muddati bo‘yicha joriy (diskontlangan) lizing to‘lovlar qiymati berilayotgan lizing predmetining 90 %idan ortadi.

Qozog‘iston Respublikasida buxgalteriya hisobini yuritish 1995 - yilning 26 - dekabrida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar to‘g‘risida»gi Qonun, shuningdek, korxonalar mulkchilik shakli va faoliyat turidan kelib chiqqan holda qo‘llanuvchi buxgalteriya hisobi milliy standartlari tomonidan tartibga solib boriladi.

Lizing bitimlarini tartibga solishning bojxonaga doir masalalari quyidagilarga taalluqli:

- ◆ xalqaro lizing, bunda lizing oluvchi rezident lizing predmetini chet ellik lizing beruvchidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri oladi yoki Qozog‘iston rezidenti bo‘lgan lizing oluvchi (sublizing beruvchi) lizing predmetini chet ellik lizing beruvchidan sublizingga berish uchun oladi, yoki Qozog‘iston rezidenti bo‘lgan lizing beruvchi lizing predmetini chet ellik lizing oluvchiga beradi;
- ◆ Qozog‘iston rezidenti bo‘lgan lizing beruvchi lizing predmetini kelgusida lizingga berish uchun chet ellik ta’motchidan sotib oladi.

Qozog‘istonga xalqaro lizing shartnomalari bo‘yicha kiritiluvchi tovarlarga nisbatan vaqtinchalik kiritish va erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimlari qo‘llanishi mumkin.

Tovarlarni erkin muomalaga chiqarishni faqat ko‘zda tutilgan barcha bojxona to‘lovlar va soliqlar to‘langandan so‘ng amalga oshirish mumkin. Lizingga nisbatan bunday rejim xalqaro lizing shartnomasi bo‘yicha mulkka egalik huquqi lizing beruvchidan lizing oluvchiga o‘tgan hollarda yoki lizing kompaniyasi lizing predmetini kelgusida lizingga berish uchun chet ellik ta’motchidan sotib olgan hollarda qo‘llanadi.

Vaqtinchalik kiritish rejimi xalqaro lizing shartnomalari bo‘yicha kiritiluvchi, lekin mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o‘tishi ko‘zda tutilmagan hollarda qo‘llanadi. Ko‘rsatilgan rejim bojxona to‘lovlari va soliqlarni to‘lashdan to‘liq (2001 - yilning 21 - avgustida tasdiqlangan Hukumatning 1092-sonli Qarorida tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan tovarlar bo‘yicha) yoki qisman (ushbu ro‘yxatga kiritilmagan tovarlar bo‘yicha) ozod qilishni ko‘zda tutadi.

Vaqtinchalik kiritish muddati uch yildan ortishi mumkin emas. Yuqorida qayd etilgan qaror bilan tasdiqlangan «Transport vositalari va tovarlarni vaqtinchalik kiritish bojxona rejimi qo‘llanuvchi lizing predmetlari ro‘yxati»ga kiritilgan tovarlar bo‘yicha vaqtinchalik kiritish muddati lizing shartnomalari muddatiga muvofiq belgilanadi.

Vaqtinchalik kiritish rejimi erkin muomala rejimiga o‘zgartirilgan hollarda (masalan, lizing shartnomasiga mulkka egalik huquqining boshqalarga berilishi ko‘zda tutiluvchi o‘zgartirishlar kiritishda) bojxona to‘lovlari va soliqlar to‘liq yoki ilgari to‘langan summani hisobga olgan holda to‘lanishi lozim. Bunda keyinchalik moliyaviy lizingga berish uchun import qilishda QQSdan ozod qilinuvchi asosiy vositalar ro‘yxatiga kiritiluvchi lizing predmetlari bo‘yicha QQS to‘lanmaydi.

Hozirgi paytda **Tojikiston Respublikasida** lizing bitimlarini tartibga solish 2000 - yilda qabul qilingan Fuqarolik Kodeksi va 2003 - yilning 29 - yanvarida qabul qilingan «Moliyaviy ijara (lizing) to‘g‘risida»gi Qonunga asosan amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilgan Qonunning 2-moddasida lizing tomonlardan biri (lizing beruvchi) ikkinchi tomon (lizing oluvchi) ko‘rsatgan mulkni uchinchi tomon(sotuvchi)dan sotib olish va lizing oluvchiga belgilangan haq evaziga lizing shartnomasida belgilangan shartlar bo‘yicha tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga taqdim etuvchi iqtisodiy va mulkchilik munosabatlari sifatida ta’riflanadi.

Ushbu ta’rifdan kelib chiqadiki, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridan farqli o‘laroq, bu ta’rifga ko‘ra minimal lizing muddati ko‘rsatilmaydi va lizingning majburiy belgilari tasniflanmaydi. Shu tariqa fuqarolik-huquqiy tartibga solish maqsadida lizing bitimi masalan, lizing shartnomasini lizing predmetining foydali xizmat ko‘rsatish muddati yoki mulkka egalik huquqining lizing muddati tugagach boshqalarga berilishi bilan cheklab qo‘yilmaydi. Shu bilan bir paytda mazkur ta’rifda uchta subyektning (lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi) ishtirok etishi, lizing beruvchining

lizing predmetini lizingga berish uchun maxsus sotib olishi va lizing predmetidan albatta tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish kabi majburiy belgilar ko'rsatilgan.

Tojikiston xalqaro moliyaviy lizing to‘g‘risidagi UNIDROIT Konvensiyasiga 2004 - yilning 19 - aprelida qo‘shilgan. Konvensiya xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishda miliy huquq me’yorlarga nisbatan ustunlikka ega. Lizing beruvchi va lizing oluvchi turli mamlakatlar vakili bo‘lgan hollarda amalga oshiriluvchi lizing operatsiyalari xalqaro lizing operatsiyalari deb tan olinadi. Muayyan xalqaro lizing bitimiga nisbatan mazkur Konvensiyani qo‘llash mumkin bo‘lishi uchun quyidagi talablarga rioya qilinishi zarur:

◆ bitim Konvensiyada belgilangan moliyaviy lizing ta’rifiga mos kelishi lozim, unga muvofiq bir tomon (lizing beruvchi) ikkinchi tomon (lizing oluvchi) topshirig‘i bilan uchinchi (sotuvchi) tomondan lizing shartnomasida ko‘rsatilgan mulkni (lizing predmetini) sotib oluvchi va lizing oluvchiga belgilangan haq evaziga lizing shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarda vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga taqdim etuvchi operatsiya lizing deb tan olinadi. Shu tariqa mazkur ta’rif «Lizing to‘g‘risida»gi Qonundagi lizing (molivayi ijara)ga beroilgan ta’rif bilan bir xil kuchga ega bo‘ladi;

◆ lizing beruvchi va lizing oluvchining tijorat korxonalari Konvensiyaga qo‘shilgan istalgan ikki davlat hududida bo‘ladi va yoki sotuvchining tijorat korxonasi lizing beruvchi yoki lizing oluvchi joylashgan davlatda bo‘ladi, yoki lizing shartnomasi va oldi-sotdi shartnomasi Konvensiyaga qo‘shilgan davlatlarning huquqiga asoslanadi;

◆ lizing shartnomasi va oldi-sotdi shartnomasi mos keluvchi davlatda Konvensiya kuchga kirgandan so‘ng tuzilishi lozim.

Tojikistonda buxgalteriya hisobini yuritish 1999 - yilning 14 - mayida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunga asosan tartibga solib boriladi. 2004 - yilda buxgalteriya hisobining yangi hisoblar rejasiga tasdiqlangan bo‘lib, u buxgalteriya hisobi tizimini MHXS bo‘yicha hisobga olish tamoiyllariga muvofiqlashtirishi mo‘ljallangan.

2004 - yilning 1 - yanvaridan boshlab Tojikistondagi 30 - ta korxona sinov tariqasida yangi hisob tizimiga o‘tkazildi. 2005 - yilning 1 - yanvaridan boshlab esa mamlakatdagi barcha korxonalar yangi hisob rejasiga majburiy tartibda o‘tkazildi.

2004 - yilning o‘rtalaridan boshlab buxgalteriya hisobini tartibga solishga taalluqli barcha me’yoriy hujatlarni yangi hisoblar rejasini qo‘llash bo‘yicha

uslubiy ko'rsatmalarda belgilangan qoidalarga muvofiq holga keltirish borasida faol ishlar olib borilmoqda. Biroq «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga hali hech qanday o'zgartirish kiritilgani yo'q.

Lizing predmetini xarid qilishda lizing beruvchi uni o'z balansiga asosiy vosita sifatida kirim qilib kiritadi. Lizing predmetini lizing oluvchiga o'tkazishda lizing beruvchi lizing premetini o'z balansidan chiqarib tashlaydi hamda keyinchalik lizing lizing beruvchining balansida sof lizing investitsiyasiga teng bo'lgan debitorlik qarzi sifatida aks ettiriladi.

Lizing predmeti lizing oluvchining balansida aks ettirilib, unda lizing predmeti lizingga olingan aossiy vosita sifatida hisobga olinadi va shu vaqtning o'zida moliyaviy ijara bo'yicha majburiyatlarni ham aks ettiradi. Balansga kirim qilish va lizing bo'yicha majburiyatlarni tan olish quyidagilardan eng kichigi bo'yicha amalga oshiriladi: lizing predmetining adolatli bahosi va lizing to'lovlari diskontlangan bahosi.

Foizlarga teng qismdagi xarajatlarni tan olish to'lov muddatlaridan kelib chiqqan holda hisoblash usuli yordamida amalga oshiriladi.

Lizing predmeti bahosi lizing oluvchi tomonidan o'zining asosiy vositalari uchun tanlab olingan usul bo'yicha amortizatsiya chegirmalari shaklida davr xarajatlariga mansub bo'ladi. Agar lizing muddati oxiriga borib aktivlarga nisbatan mulkka egalik huquqi lizing oluvchiga o'tishiga yetarli darajada ishonch bo'lmasa, aktivning bahosi lizing muddati yoki mulkning foydali xizmat ko'rsatish muddati orasidan eng qisqasi davomida amortizatsiya orqali xarajatlar tarkibiga kiritilishi lozim.

Tojikistonda 2005 - yilning 1 - yanvaridan boshlab kuchga kirgan yangi Soliq Kodeksi hozirgi kunda soliqqa tortishni tartibga solib turuvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Soliq Kodeksida lizing moliyaviy xizmatlar tarkibiga kiritilgan. Soliqqa tortish maqsadlarida (QQSni istisno qilganda) moliyaviy ijara (lizing) amortizatsiya qilinuvchi mulkni xarid qilish (yetkazib berish yoki import) yoki uni lizingga berishni qamrab oluvchi yaxlit operatsiya sifatida ko'rib chiqiladi. Bitim quyida sanab o'tilgan belgilardan biriga muvofiq holda soliqqa tortishda lizing bitimi sifatida tasniflanishi mumkin:

- ◆ ijarada ijara muddati tugagandan so'ng mulkni berib yuborish ko'zda tutiladi yoki ijarachi mulkni qat'iy belgilangan (yoki shartnomada ko'rsatilgan) narx bo'yicha sotib olish huquqiga ega bo'ladi;

- ◆ ijara muddati ijaraga olinuvchi mulkning xizmat ko'rsatish muddati 75 %idan katta bo'ladi;

- ◆ ijara muddati tugagandan so‘ng mulkning qoldiq qiymati uning ijara boshidagi bozor narxidan 20 %ni tashkil qiladi;
- ◆ butun ijara muddati davomida minimal to‘lovning joriy diskontlangan qiymati ijara boshidagi mulkning bozor narxi 90 %iga teng yoki undan katta bo‘ladi;
- ◆ ijaraga olinuvchi mulk ijarachi uchun buyurtma bo‘yicha tayyorlanib, ijara muddati tugagandan so‘ng ijarachidan boshqa hech kim tomonidan foydalaniishi mumkin emas.

Soliq Kodeksining yangi tahririni qabul qilish bilan birga 2004 - yilning 3 - dekabrida yangi Bojxona Kodeksi ham qabul qilindi. Bojxona jarayonlari shuningdek, 1995 - yilning 4 - noyabrida qabul qilingan «Bojxona tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonun bilan ham tartibga solib boriladi. Bu qonunga ko‘ra bojxona bojlarini shakllantirish va qo‘llash tartibi, shuningdek, tovarlarni Tojikiston Respublikasi hududidan olib o‘tishda boj solish qoidalari belgilab beriladi.

Tojikiston Respublikasiga import qilinuvchi tovarlar bo‘yicha bojxona bojlari hukumat qarorlariga asosan belgilanadi va bojxonadan o‘tuvchi tovarga qarab farqlanadi.

Mamlakat hududiga olib kiriluvchi lizing predmetlariga nisbatan erkin muomala va vaqtinchalik kiritish rejimlari qo‘llanishi mumkin.

Erkin muomala uchun tovar chiqarishda bojxona bojlari, QQS, aksizlar va bojxona yig‘imlari to‘lanishi lozim.

Tovarlarni vaqtinchalik olib kirish (olib chiqish) muddati Tojikiston Respublikasi bojxona organi tomonidan belgilanib, ikki yildan ortmasligi lozim. Ayrim hollarda bu muddatlar o‘zgartirilishi mumkin.

Vaqtinchalik kiritish rejimi xalqaro lizing shartnomalari bo‘yicha kiritiluvchi, lekin mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o‘tishi ko‘zda tutilmagan hollarda qo‘llanadi. Ko‘rsatilgan rejim bojxona to‘lovlari va soliqlarni to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod qilishni ko‘zda tutadi.

To‘liq yoki qisman to‘lovlardan ozod qilingan tovarlar ro‘yxati hukumatning qaroriga asosan belgilanib, aynan lizing uchun bojxona bojlari va soliqlardan to‘liq ozod qilish ko‘zda tutiladi. Lizing predmetlari uchun bu to‘lovlardan to‘liq ozod qilish ko‘zda tutilmagan hollarda shartli qisman ozod qilishdan foydalaniilib, bunda bojxona va soliq to‘lovlari erkin muomalada to‘lanishi lozim bo‘lgan miqdorning 3 %i to‘lanadi. Vaqtinchalik kiritiluvchi tovardan olinuvchi bojxona to‘lovlari umumiyligi miqdori erkin muomala rejimida

to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlardan oshmasligi lozim. Bojxona to‘lovlari to‘liq to‘langan hollarda tovar erkin muomalaga chiqarilgan hisoblanadi.

### **5.5. Lizing munosabatlarning xalqaro unifikatsiyasi**

O‘tgan asrning 70 - yillarida lizing faoliyati huquqiy, soliq va valyuta xarakteriga ega muammolar tufayli kamdan-kam qo‘llangan bo‘lsa, hozirgi kunda xalqaro lizing operatsiyalari soni tez o‘sib bormoqda. Bu holat Ottavada qabul qilingan “Xalqaro moliyaviy ijara to‘g‘risidagi Konvensiya”da qayd etilgan lizing to‘g‘risidagi umumiy unifikatsiyalangan “Unidrua” kabi tashkilotlarni tuzish zaruratini yuzaga keltirdi.

Kirish qismida mazkur Konvensiyaning maqsadi – xalqaro moliyaviy lizing oldida turgan huquqiy to‘siqlarni olib tashlash, an’anaviy ikki tomonlama ijara shartnomalarini uch tomonlama shartnomalarga moslashtirish va asosiysi, lizing bitimining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona normalarni o‘rnatish ko‘rsatib berilgan.

UNIDRUA Konvensiyasida ko‘zda tutilgan asosiy qoidalar quyidagilardan iborat:<sup>1</sup>

- lizing – mustaqil huquqiy institut;
- lizing – ijara, shartli oldi-sotdi, ssuda bilan umumiy jihatlarga ega, biroq ulardan hech biriga mansub bo‘lmagan va ikkita kelishuv – oldi-sotdi va lizing shartnomasini ifodalovchi uch tomonlama bitim.

Konvensiyada oldi-sotdi va lizing shartnomalarining uzviy va chambarchas bog‘liqligi belgilab qo‘yilgan. Bunda foydalanuvchi birinchi shartnomaning shartlarini ma’qullashi kerak, ta’mintonchi esa asbob-uskunalar qanday maqsadda sotib olinayotganligini bilishi zarur.

Mulkdan foydalanuvchiga ham katta rolъ ajratilgan bo‘lib, u bitim tashabbusi bilan chiqqanligi sababli huquqiy jihatdan mulknинг egasi bo‘lmasada, lizing mulki bo‘yicha barcha tavakkalchiliklarga javob beradi. Bunda lizing beruvchi faqat bitimni investitsiyalashda vositachi rolini o‘ynaydi, xolos. Lizing kelishuvi muddati lizing beruvchiga kapital qo‘yilmalarni qaytarish shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va taxminan mult ammortizatsiyasi muddatiga teng bo‘ladi.

Shuni ham qayd etish joizki, Konvensiya talablari faqat lizing asbob-uskunalariga nisbatan qo‘llanadi va ko‘chmas mulkka aloqasi bo‘lmaydi.

---

<sup>1</sup> Лещенко М.И. Основы лизинга.- М.: 2001, 163 с.

Konvensiyaga asosan bitimlar xalqaro moliya lizingi toifasiga mansub bo‘lishini ta’minlovchi ta’riflar MDH va O‘zbekistonda amal qilayotgan ta’riflarga to‘laligicha mos keladi.

Bundan tashqari, Konvensiya normalari lizing shartnomasida asbob-uskunalarni kelgusida sotib olish yoki ijaraga berish ko‘zda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat’iy nazar, barcha hollarda qo‘llanadi.

### **5.6. Lizing bozori infratuzilmasini shakllantirish yo‘llari**

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, raqobatchilik sharoitlarida lizing kompaniyalarining samarali faoliyat ko‘rsatishi ko‘p jihatdan rivojlangan infratuzilmaga bog‘liq bo‘ladi.

Bozor infratuzilmasi bu mahsulot (xizmat) ishlab chiqaruvchi va iste’molchini yagona bozor makonida bir-biriga bog‘lab turuvchi, ishlab chiqarish va iste’mol miqyosi o‘rtasidagi ziddiyatlarni yo‘qotuvchi hamda barcha ishtirokchilarining qo‘yilgan maqsadlarga erishishini ta’minlovchi vositachi tuzilma va institutladir.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda lizing bozori infratuzilmasi endi shakllantirilmoqda. Shu sababli, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz rahbari I.Karimov o‘z chiqishlarida bozor munosabatlarining asosini tashkil etadigan kichik biznes rivojlanishiga mutanosib ravishda bog‘iq bo‘gan bozor infratuzilmasini: sug‘urta, auditorlik, konsalting tashkilotlari qatorida, lizing kompaniyalarini tuzish zarurligini e’tirof etish bilan birga, ushbu infratuzilmalarga ega bo‘masdan bozor mexanizmlari to‘liq ishlay olmasligini alohida qayd etgan.

Lizing bozor infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o‘zida mujassam etadi. Buning uchun quyidagilarni amalgalash zarur:

- ilmiy yutuqlardan samarali foydalanish, shuningdek, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni ta’minlashga imkon beruvchi infratuzilmani yaratish va modernizasiyalash;
- ilmiy faoliyat natijalarini tijorat jihatidan samarali texnologiyalar va raqobatbardosh mahsulotga aylantirishni ta’minlash;
- kadrlar tayyorlashni qayta qurish;
- lizing rivojlanishiga xizmat qiluvchi va uni rag‘batantiruvchi institutlar tizimini, xususan, lizing kompaniyalari assotsiatsiyasi, lizing tizimini rivojlantirish jamg‘armasi, lizing rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi markaz va brokerlik kompaniyalarini yaratish;

- biznes-fond, O‘zbekiston Respublikasi banklar assotsiatsiyasi, “O‘zinvestloyiha”, respublika valyuta birjasi, dehqon va fermer xo‘jaliklar assotsiatsiyasi, tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi, sug‘urta kompaniyalari, soliq qo‘mitasi va xorijiy investitsiyalar departamenti, kredit muassasalari va boshqalar bilan aloqa o‘rnatish.

### **Qisqa xulosalar**

O‘zbekiston hukumati xorijiy investorlarni O‘zbekiston iqtisodiyotining belgilangan yo‘nalishlariga mablag‘lar kiritishini yo‘naltiradi.

Jahon lizing bozorining rivojlanishi ishtirokchi mamlakatlar sonini oshirish va ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishdan tashqari, umumiqtisodiy darajadan o‘rtada qolayotgan xalqaro lizingni kengaytirish va integrasiya qilish bilan ham bog‘liq.

MDH mamlakatlarining intilishlari lizing faoliyati shartlari optimal ravishda unifikatsiyalanishidan umid qilishga imkon beradi. Lizing bozorini kengaytirish moliya sohasi va ishlab chiqarishni baynalmallashtirishning obyektiv omili hisoblanadi. Lizing xizmatlari bozorining rivojlanishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat: lizing kelishuvlarini standartlashtirish; mijozlarning kredit layoqatini nazorat qilish; investitsion xizmatlar va mulkni sotish kanallarini kengaytirish.

O‘zbekistondagi makroiqtisodiy holat, ayniqla, bojxona, soliq va tashkiliy qonunchiliklar xalqaro lizingning O‘zbekistonda samarali rivojlanishini ta’minlashga imkon yaratadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Lizing tuzilmasining tarmoq xususiyatlari nimadan iborat?
2. Jahonda lizing bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.
3. Lizing faoliyatini unifikatsiyalash nimalarda ifodalanadi?
4. Xalqaro bitimlar bo‘yicha lizingning o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
5. UNIDRUA Konvensiyasida qaysi asosiy qoidalar ko‘zda tutilgan?
6. Lizing sohasida soliq qonunchiligining afzalliklarini sanab bering.
7. O‘zbekiston bozorining xorijiy investorlar uchun jozibadorligi nimalardan iborat?
8. Iqtisodiyotning xorijiy investorlarda qiziqish uyg‘otuvchi asosiy ustuvor yo‘nalishlari qaysilar?
9. Yetakchi lizing kompaniyalar xakida aytib bering.

10.Lizing xizmatlarni diversifikasiya strategiyasi nimadan iborat?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. [www.innov.ru/leasing/newsi/in-i.htm](http://www.innov.ru/leasing/newsi/in-i.htm)
2. Прилуцкий Л.Н. Финансовый лизинг. Правовые основы, экономика, практика – М.: Ось-89, 1999.
3. Лещенко М.И. Основы лизинга.- М.: 2001, 163-200 с.
4. Прилуцкий Л.Н. Финансовый лизинг. Правовые основы, экономика, практика. Учебное пособие – М.: Изд. Ось –89, 1999, 45-85 с.
5. Фозибеков Д.Ғ. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти – Т.: Фан ва технология, 2004.
6. [www.leasbusi.ru/](http://www.leasbusi.ru/) Анализ деятельности российских лизинговых компаний.

## **VI bob. LIZINGNING BANKLAR TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILISHI. TAVAKKALCHILIK VA SUG‘URTALASH**

### **6.1. Lizingning banklar tomonidan moliyalashtirilishi**

Banklarda lizing faoliyatiga katta qiziqish uyg‘onishini bir qator afzalliklar asoslab beradi:

- mintaqada ta’sir ko‘rsatish sohasi va bajaruvchi operatsiyalar doirasini kengaytirish;
- tavakkalchilik mukofoti, lizing marjasining bir qismi hisobiga kapital kiritishning eng foydali sohasi;
- moddiy ishlab chiqarish sohasini investitsiyalash hisobiga ishonchlikni oshirish;
- lizing operatsiyasini investitsiyalash uchun kredit berishda tavakkalchiliklarni minimallashtirish;
- lizing beruvchiga taqdim etiluvchi soliq imtiyozlari banklarga boshqa faoliyat turlaridan olinuvchi daromadlarni yashirish imkonini beradi.

Banklarning lizing biznesida ishtirok etishida ikkita asosiy usul qo‘llanadi:<sup>1</sup>

- bevosita usul, bunda bank o‘z tuzilmasida maxsus bo‘lim yoki mutaxassislar guruhini yaratish yo‘li bilan lizing beruvchi sifatida ishtirok etadi;
- bilvosita usul, bunda bank mustaqil lizing kompaniyasini ta’sis etadi va lizing beruvchining kreditori sifatida ishtirok etadi.

Banklar va lizing beruvchilarining o‘zaro kredit munosabatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Banklar kafolatlangan (mijozning to‘lov layoqatini aniqlagandan so‘ng har bir operatsiya uchun alohida beriladi va muddati bo‘yicha lizing shartnomasi muddati bilan mos tushadi) kreditlar va kafolatlanmagan (qarz oluvchiga beriluvchi oddiy bank kreditlarini ifodalovchi) kreditlarni taqdim etadilar. Lizing kompaniyalarining sezilarli kredit ehtiyojlarini qondirar ekan, banklar lizingning muayyan turlari rivojlanishi va miqyosiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi paytda amal qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvi tomonidan 1997 - yil 29 - martda 11-sonli bayonnomaga bilan tasdiqlangan 327-sonli “O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Qoidalar”) ham banklarning lizing operatsiyalarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

---

<sup>1</sup> Лещенко М.И. Основы лизинга – М.: Финансы и статистика, 2001, 1456.

Bank va ijrarachi o‘rtasida moliyaviy vositachining mavjudligi moliyalashtirishning lizing sxemasini bevosita kreditlashdan farqlanishiga sabab bo‘ladi, biroq umum qabul qilingan kreditlash amaliyoti bu yerda to‘laligicha saqlanadi. Bevosita bankdan qarz oluvchi – lizing firmasi – lizing oluvchi.

Mavjud tajribalarning ko‘rsatishicha, respublikamizda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotgan lizing kompaniyalarining asosiy qismi keyinchalik ularning kreditorlariga aylangan yirik banklar ishtirokida tuzilgan. Masalan, O‘zbekiston banklar assotsiatsiyasi tomonidan tuzilgan “Baraka” universal lizing kompaniyasi birdaniga ikki vazifani: lizing operatsiyalarini moliyalashtirishning ishonchli manbasini shakllantirish va bir vaqtning o‘zida ularni sug‘urtalashni amalga oshirdi.

Lizing kompaniyalarini yaratish va ularning faoliyatida Malayziyaning “Malayan benking Berxad” banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xorijiy banklar ham muvaffaqiyatli ishtirok etadi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati Milliy Banki ishtirokida ular bilan birgalikda “O‘zlizinginterneyshnl AJ” kompaniyasi tuzildi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati Milliy Banki o‘z hamkorlari (xorijiy banklar va eksport-sug‘urta agentliklari) bilan birgalikda qiymati 350 mln. AQSH dollariga teng bo‘lgan lizing operatsiyalarini moliyalashtirishni amalga oshirishga erishdi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyati Milliy Bankidan tashqari lizing operatsiyalarini O‘zbekistonning 14 ta tijorat banklari amalga oshiradilar.

Umuman 2005 - yilda O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan jami qiymati 20,9 mlrd. so‘m, ya’ni 2004 - yilga nisbatan 2 baravar ko‘p lizing loyihalari amalga oshirilgan.<sup>1</sup> Bunda O‘zbekistonning tijorat banklari lizing loyihalarini bevosita moliyalashtirishdan tashqari, ta’sischi sifatida lizing kompaniyalarini ham moliyalashtirmoqda. Ular asosan milliy valyutada moliyalashtiradilar, lizing obyektlari esa respublikaning ichki bozorida xarid qilinadi.

## **6.2. Lizing operatsiyalarida tavakkalchiliklar**

Bozor qonunlaridan samarali foydalanish, bozor tizimida takomillashish, uning afzalliklaridan foydalanish uchun hozirgi paytda rasional faoliyatning o‘zigma yetarli emas, an’anaviy shakllarni yaxshilash va tahlil qilishning yangi

---

<sup>1</sup> [www.irc.org/centralasia](http://www.irc.org/centralasia) Международная Финансовая корпорация Проект по развитию лизинга в Центральной Азии

uslubiyatini ishlab chiqish, marketing rejasiga tavakkalchilik ulushini kamaytirish imkonini beruvchi zaxiralarni kiritish zarur.

Tavakkalchilik deganda odatda kompaniya o‘z resurslarining bir qismini yo‘qotishi, daromadlarni to‘liq olmasligi yoki xo‘jalik faoliyati davomida qo‘sishma xarajatlarning paydo bo‘lishi nazarda tutiladi. Lizing sohasi jarayonlar dinamikasi va kapitallar aylanishi tezligining yuqoriligi, bozor kon'yunkturasi va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga sezuvchanligining yuqoriligi bilan ajralib turadi, bu esa mazkur biznes sohasida tavakkalchilik darajasining yuqoriligiga asosiy sabablardan biri bo‘ladi. Lizing kompaniyalar o‘z faoliyati davomida duch keluvchi tavakkalchiliklar odatda hamma uchun bir xil bo‘ladi. U yoki bu tavakkalchilikka uchramaslik ehtimoli ham deyarli bir xil. Biroq tavakkalchilik holatlaridan chiqib ketish yo‘llari turli kompaniyalar uchun turlicha bo‘ladi. Lizing kompaniyalar o‘z faoliyati davomida duch keluvchi tavakkalchiliklarni ikki guruhga – ichki va tashqi tavakkalchiliklarga bo‘lish mumkin.

**Tashqi tavakkalchiliklar** qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- siyosiy tavakkalchiliklar, ular siyosiy vaziyatning o‘zgarishi, davlatning iqtisodiy siyosati o‘zgarishi natijasida yuzaga keluvchi moliyaviy yo‘qotishlarni aks ettiradi;
- huquqiy tavakkalchiliklar, qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keluvchi yo‘qotishlarni aks ettiradi;
- makroiqtisodiy tavakkalchiliklar, iqtisodiyotda kutilayotgan ko‘tarilish va inqirozlar, bank sohasining rivojlanish darjasи, yalpi milliy mahsulot o‘sishining pasayishi va siyosat bilan bog‘liq xo‘jalik jarayonlarida yuzaga keladi;
- soliq tavakkalchiliklari, soliq sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlaridagi noaniqlik va ziddiyatlar.

Yuqorida sanab o‘tilgan tavakkalchiliklarni boshqarish usullari – lizing oluvchi joylashgan mamlakatdagi siyosiy ahvol va soliq qonunchiligining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili, kutilayotgan tavakkalchiliklarga mutanosib ravishda tavakkalchilik mukofotlarini oshirish, investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha xalqaro kelishuvlardan iborat.

**Ichki tavakkalchiliklar** quyidagi turlar bilan tavsiflanadi:

- loyiha tavakkalchiliklari - asosan muayyan loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq. Bu qatorga loyihaning moliyaviy nuqtai nazardan nochorligi, loyihaning ekologik xavfi, lizing oluvchining sotuv tizimi mukammal emasligini kiritish mumkin. Mazkur tavakkalchilik turini faqat

taklif etilayotgan lizing loyihasini chuqur tahlil qilish yordamidagina minimallashtirish mumkin;

- lizing predmeti bilan bog‘liq tavakkalchiliklar. Bular asosan mulkni qaytarmaslik xavfi, yo‘qotish xavfi, asbob-uskunalarni ikkilamchi bozorda sota olmaslik xavfi, ma’naviy eskirishning tezlashish xavfi va marketing tavakkalchiligidir. Mulkni sug‘urtalash, ta’minalashning samarali sxemalarini ishlab chiqish, shartnoma bekor qilinishi mumkin bo‘lmagan muddatni belgilash, tavakkalchilik mukofoti miqdorini oshirish, asbob-uskunalarming ilg‘or va progressiv turlaridan foydalanish, lizing shartnomasi muddati tugagandan so‘ng lizing obyektini bozor kon'yunkturasini hisobga olgan holda sotish bu tavakkalchiliklarni kamaytirish usullari hisoblanadi;

- moliyaviy tavakkalchiliklar valyuta kurslarining tebranishi, bank kreditlari bo‘yicha % stavkalarining lizing beruvchi stavkalaridan oshirilishi, shartnoma muddati amal qilayotgan muddat davomida lizing beruvchi o‘zining aktiv operatsiyalarini qayta moliyalashtirishga qodir bo‘lmagan paytda lizing obyekti narxining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Bu qatorga % tavakkalchiligi, lizing to‘lovlarini to‘lamaslik tavakkalchiligi, narx tavakkalchiligi, muvozanatlanmagan likvidlik tavakkalchilagini kiritish mumkin. Ularni moliyaviy fbyucherslar oldi-sotdisi yoki “%li svop” bitimini tuzish, lizing oluvchining moliyaviy ahvolini tahlil qilish, bitta lizing shartnomasi miqdorini chegaralash, uchinchi shaxslardan kafolat olish, to‘lovni amalga oshirmslikni sug‘urtalash, har bir lizing to‘lovining qat’iy summasini belgilab qo‘yish, pul oqimlarini vaqt va hajmi bo‘yicha belgilash, zaxira jamg‘armasini yaratish va passiv operatsiyalarni diversifikasiyalash yordamida kamaytirish mumkin.

Umuman lizing faoliyatida yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarni ikkita – dinamik va statistik guruhga bo‘lish mumkin. Tavakkalchiliklarning birinchi guruhi loyihani amalga oshirishning siyosiy va bozor sharoitlari, asosiy kapital qiymatidagi oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bu o‘zgarishlar qo‘shimcha xarajatlar va yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Ikkinci guruh lizing kompaniyasi layoqatsizligi tufayli daromadlarni yo‘qotish, mulkka zarar etkazish natijasida real aktivlarni yo‘qotish tavakkalchiligidir.

Qoidaga ko‘ra tavakkalchiliklarning barcha turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, lizing kompaniyalari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat tavakkalchiliklarni optimallashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi hamda muayyan tavakkalchiliklar tarkibini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan har bir lizing operatsiyasini amalga oshirishdan avval loyiha tavakkalchiliklari har tomonlama tahlil qilinishi zarur. Mazkur tahlilning

maqsadi loyihada ishtirok etishning maqsadga muvofiqligi uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni oldindan ko'ra bilishdan iborat. Har bir muayyan holatda lizing beruvchi o'z zimmasiga oluvchi tavakkalchilik darajasini aniqlashi lozim. Bunda shuni qayd etish joizki, tavakkalchiliklardan hech biri to'laligicha bartaraf etilishi mumkin emas, chunki lizing kompaniyalari faoliyatি % stavkalari va qayta moliyalashtirish stavkalarining, soliq qonunchiligi va valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Lizing beruvchi o'z zimmasiga qanchalik ko'p tavakkalchilikni olsa, operatsiyalarni amalga oshirishda uning stavkalari shunchalik yuqori bo'ladi. Bu muammo barcha operatsiyalarni birgalikda va har bir operatsiyani alohida foydalilik va tavakkalchiliklarining optimal uyg'unlashuvini aniqlash yo'li bilan hal qilinadi. Bunda tavakkalchiliklarni sug'urlash oldindan ko'zda tutilmagan o'zgarishlarning ta'sirini cheklash, amaldagi foyda miqdorining rejadagidan eng kam og'ishini ta'minlashga yo'naltiriladi, qo'yilmalar miqdorini mazkur vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalar tavakkalchiliklari bilan bog'lash lozim bo'ladi.

Loyiha **tavakkalchiligini tahlil qilish jarayoni** quyidagi vazifalarni hal qilish yo'li bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:<sup>1</sup>

- muayyan tavakkalchilik turiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;
- aniqlangan omillarni tahlil qilish;
- muayyan tavakkalchilik turini moliyaviy jihatdan ikkita yondashuv – loyihani tugatish va moliyaviy vositalarni kiritish samaradorligi yondashuviga asoslangan holda baholash;
- yo'l qo'yish mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasini belgilash;
- operatsiyalarni belgilangan tavakkalchiliklar darajasi bo'yicha tahlil qilish;
- ijobiy qaror qabul qilinganda tavakkalchilikni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Qoidaga ko'ra lizing kompaniyalari lizing bitimlari bo'yicha barcha tavakkalchiliklarni qoplashga majbur bo'ladilar. Agar ular muayyan lizing oluvchi bilan tavakkalchiliklarni obyektiv aniqlay olsalar, bu holda ular lizing shartnomasi bo'yicha mos keluvchi tavakkalchilik mukofotini ham aniqroq belgilashlari mumkin bo'ladi. Buning uchun lizing kompaniyalari tavakkalchiliklarni to'g'ri baholashi va ularni boshqara olishi zarur.

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. Лизинг – М.: Дашков и Ко, 2003, 4526.

Hozirgi kunda mamlakatimizda lizing kompaniyalari tomonidan qo'llanuvchi **an'anaviy himoyalanish yo'llari** quyidagilardan iborat:

**1. Avans yoki garovdan foydalanish.** Shuni qayd etish joizki, avans yoki garovdan foydalanish mijozlarning ishonchliligi va kredit layoqatini aniqlashning samarali tizimi hamda to'lov amalga oshirilmagan taqdirda asbob-uskunalarни tezlik bilan qaytarib olish mexanizmi mavjud bo'limgan hollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida ishonch ortib borgan sari avans yoki garovning mavjud bo'lishiga talab ham kamayib borishi mumkin. To'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash uchun jarimalar qo'llanadi, masalan, to'lov muddati kechikkan har bir kun uchun 0,5 – 0,15 % miqdorida penya.

**2. Lizing kompaniyasi mijozি o'z hisob raqamini muassis bankda yuritishini talab** qilish hisobiga tavakkalchilik darajasini kamaytirish mumkin. Aksari hollarda bunday yo'l banklar asosiy aksiyador bo'lgan lizing kompaniyalarida qo'llanadi. Bu holda to'lov amalga oshirilmaganda bank qarzdor mijozning hisob raqamini osongina "muzlatib" qo'yishi mumkin.

**3. Tavakkalchilik darajasini kuzatish va nazorat qilish yo'li bilan ham kamaytirish mumkin.** Lizing kompaniyalari nizom jamg'armalarining katta qismiga egalik qiluvchi banklar lizing oluvchilarning arizalari bankning kredit bo'limi tomonidan ko'rib chiqilishini talab qiladilar. Mos keluvchi tahlil o'tkazilgandan so'ng bank har bir muayyan holatda ma'qul bo'lgan qaror – kredit berish yoki lizing bitimini tuzish bo'yicha o'z tavsiyalarini beradi.

**4. Lizing kompaniyalari bitimni davlat kafolatlaridan foydalanish yo'li bilan muhofaza qilishga harakat qiladilar.** Masalan, agar mintqa ma'muriyati mintaqadagi muayyan zavod quvvatini kengaytirishga katta e'tibor qaratadigan bo'lsa u lizing oluvchi o'zining shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovlarni kafolatlashi mumkin. Biroq bunday kafolatlar doim ham berilavermaydi, chunki ma'muriyat ko'pincha o'zining bevosita vazifalarini bajarish uchun mablag'lar taqchillagini boshidan kechirali.

**5. Lizing faoliyatini sug'urtalash** lizing kompaniyalari tavakkalchiliginini kamaytirsada, sug'urta kompaniyalarining barqaror va unchalik ishonchli emasligi sababli muammolarga boy bo'ladi. Ijaraga berilgan mulkning eng yaxshi sug'urtasini faqat lizing kompaniyasining o'zигина ta'minlay oladi.

### **6.3. Lizing faoliyatini sug‘urtalash**

Lizing munosabatlarining murakkab iqtisodiy-huquqiy tabiatiga lizing obyektini transportirovka qilish, uni o‘rnatish, ishga tushirish, mulkiy va moliyaviy tavakkalchiliklarni sug‘urtalash yo‘li bilan lizing operatsiyalarining kompleks sug‘urta muhofazasini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga asosan mulk sug‘urtasi shartnomasi bo‘yicha bir tomon (sug‘urtachi) ma’lum bir haq (sug‘urta mukofoti) evaziga shartnomada ko‘zda tutilgan vaziyat (sug‘urta holati) yuz berganda ikkinchi tomonga (sug‘urtalanuvchiga) yoki shartnoma uning foydasiga tuzilgan uchinchi shaxsga (foyda oluvchiga) sug‘urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoki sug‘urtachining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq zararni shartnomada belgilangan miqdorda (sug‘urta miqdori) qoplash majburiyatini oladi.

Lizing bitimida mulk shartnomasi bo‘yicha quyidagi mulkiy manfaatlari **sug‘urta qilinishi mumkin:**

- lizing obyektini yo‘qotish, shikastlanish va yetishmovchilik tavakkalchiligi;
- boshqa shaxslarning sog‘lig‘i, hayoti yoki mulkiga zarar yetkazish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik tavakkalchiligi;
- shartnomani buzganlik uchun tavakkalchilik;
- kutilgan daromadni olmaslik tavakkalchiligi – tadbirkorlik tavakkalchiligi, jumladan, lizing to‘lovlari to‘lamaslik tavakkalchiligi;
- sug‘urtachining sug‘urtalovchi oldidagi majburiyatlarini bajarish tavakkalchiligi.

Amaldagi qonunchilikka asosan **sug‘urta shartnomasini** imzolashda muayyan shart belgilanadi. Sug‘urta shartnomasi faqat sug‘urtalanuvchining sug‘urta kompaniyasi belgilagan shaklda 2 nusxada tuzilgan hamda sug‘urta kompaniyasi va sug‘urtalanuvchi tomonidan imzolanuvchi yozma arizasi asosidagina tuziladi. Ariza yozish bilan bir paytda sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchiga lizing shartnomasi nusxasini, lizing to‘lovlari amalga oshirish jadvali va lizing shartnomasiga tegishli boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlar asosida sug‘urta miqdori va tarif stavkasidan kelib chiqqan holda sug‘urta to‘lovlari miqdorini belgilaydi, zarur hollarda sug‘urta shartnomasida maxsus shartlarni belgilash ko‘zda tutiladi. Sug‘urta shartnomasining bir nusxasi sug‘urtalovchida qoladi, ikkinchi nusxasi belgilangan sug‘urta to‘lovlari va ularni to‘lash muddati ko‘rsatilgan xat bilan sug‘urtalanuvchiga yuboriladi. Hisoblangan sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urtalovchidan javob olgandan so‘ng 10 kun ichida bir vaqtning

o‘zida sug‘urta to‘lovlarida ko‘rsatilgan pul miqdorini sug‘urtalovchining hisob raqamiga o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanadi. Sug‘urta shartnomasi sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi. Sug‘urta shartnomasini tuzgan sug‘urtalanuvchiga sug‘urtalovchining hisob raqamiga sug‘urta to‘lovlari kelib tushgandan so‘ng 5 kun ichida sug‘urta polisi beriladi. **Sug‘urta polisining ikkinchi nusxasi** sug‘urtalovchida qoladi.

**Sug‘urta shartnomasi quyidagi sabablarga ko‘ra muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:**

- mulkni muddatidan oldin sotib olish hollarida lizing shartnomasi muddatidan avval bekor qilingan holda shu vaqtan boshlab. Bunda sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchiga muddati sug‘urta muddati tugamagan davr uchun sug‘urta badallarini 10 % miqdorida xarajatlarni chiqarib tashlagan holda qaytarib beradi.

- bankrotlik holati tan olinishi natijasida sug‘urta puli talab qilingan paytdan lizing oluvchi bankrot deb e’lon qilinganishi sababli. Bunda lizing shartnomasi bo‘yicha sug‘urta himoyasi sug‘urtalanuvchi tomonidan ariza berilguncha va lizing oluvchining bankrotga uchrashi natijasida yetkazilgan barcha zararlarga nisbatan amal qilishi lozim.

- lizingga berilgan mulk jismonan yo‘q bo‘lib ketganda(halokatga uchraganda).

- sug‘urtalovchi yoki sug‘urtalanuvchining talabiga binoan. Bu holda tomonlar bir-birini sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati bekor qilishdan kamida 30 kun oldin xabardor qilishi lozim. Agar shartnoma sug‘urtalovchining talabiga asosan sug‘urtalanuvchining sug‘urta qoidalarini bajarmasligi sababli bekor qilinsa, sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchiga muddati sug‘urta muddati tugamagan davr uchun sug‘urta badallarini 10 % miqdorida xarajatlarni chiqarib tashlagan holda qaytarib beradi. Agar shartnoma sug‘urtalanuvchining talabiga asosan sug‘urtalovchining sug‘urta qoidalarini bajarmasligi sababli bekor qilinsa, u holda sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchiga barcha sug‘urta badallarini to‘laligicha qaytaradi.

**Sug‘urta holati quyidagi vaziyatlarda o‘ringa ega bo‘ladi:** navbatdagi lizing to‘lovlarini amalga oshirish olti oydan ortiq kechiksa; lizing oluvchi nochor(bankrot) deb e’lon qilinsa; lizing oluvchi sug‘urtalovchini to‘lov majburiyatlarini bajara olmasligi to‘g‘risida xabardor qilsa.

**Sug‘urta holati yuz berganda sug‘urtalanuvchi quyidagilarni bajarishi lozim:**

1. 5 kun ichida sug‘urtalovchiga to‘lov amal oshirilmagan shartnomani ilova qilgan holda ariza berish yo‘li bilan uni xabardor qilish. Bunda sug‘urtalovchining lizing to‘lovlarini amalga oshirmaganlik to‘g‘risidagi arizasi sug‘urtalanuvchining kitobida qayd etiladi.

2. Sug‘urtalanuvchining talabiga asosan sug‘urtalovchiga yetkazilgan zarar miqdori va sabablarini tahlil qilish uchun unga barcha ma’lumotlarni yozma ravishda yetkazib berish.

3. Sug‘urtalanuvchining lizing oluvchiga regressiv talab huquqini amalga oshirishni, lizing oluvchi bankrotga uchraganda esa qarzdorning mulkidan o‘z ulushini olishni ta’minlash.

4. Ariza berilgandan so‘ng 10 kun ichida sug‘urtalovchi, sug‘urtalanuvchi va lizing oluvchi lizing to‘lovlari amalga oshirilmaganligi haqida dalolatnoma tuzadilar. Bu dalolatnoma asosida sug‘urtalanuvchiga sug‘urta puli to‘langandan so‘ng sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchiga lizing oluvchiga to‘langan sug‘urta puli miqdorida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqini beradi. Sug‘urta puli to‘langan birinchi kundan boshlab sug‘urtalanuvchi lizing oluvchidan to‘lov kechikkan har bir kun uchun to‘langan sug‘urta pulining bir %i miqdorida jarima oladi. Sug‘urta puli to‘langandan so‘ng sug‘urtalanuvchi o‘zi uchun abandon (lizing mulkiga egalik huquqining sug‘urtalanuvchiga o‘tish) huquqi belgilanishini talab qilishi mumkin. Bunda egalik qilish huquqi mulkni sotib olish uchun sug‘urtalovchiga to‘langan ulushiga teng bo‘ladi.

Respublikamizda amal qilayotgan qonunchilikda qayta sug‘urtalanish mexanizmi ko‘zda tutilgan, ya’ni sug‘urta kompaniyasi o‘z majburiyatlarini yirik sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urtalash huquqiga ega bo‘ladi. Bunda sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha barcha o‘zaro munosabatlarni qayta sug‘urtalanishga qaror qilgan kompaniya o‘z zimmasiga oladi.

### **Qisqa xulosalar**

Banklar va lizing beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar turli xil bo‘lishi mumkin. Banklar kafolatlangan va kafolatlanmagan kreditlarni beradi. Banklarning lizing biznesida ishtirok etishida ikkita asosiy usul qo‘llanadi: bevosita usul, bunda bank o‘z tuzilmasida maxsus bo‘lim yoki mutaxassislar guruhi tuzish yo‘li bilan lizing beruvchi sifatida ishtirok etadi; bilvosita usul, bunda bank mustaqil lizing kompaniyasini ta’sis etadi yoki lizing beruvchining kreditori vazifasini bajaradi.

Bozor subyektlarining o‘zaro erkin munosabat tamoyillarini yuritish, sog‘lom bozor raqobatchilagini ta’minlash, yangi texnologiya va usullarni joriy qilish, loyihalar hajmi va muddatining o‘sishi, tashqi muhitning yuqori dinamikasi va boshqa omillar lizing kompaniyalari faoliyatidagi noaniqlik va tavakkalchiliklarni oshiradi. Tavakkalchilik deganda odatda kompaniya o‘z resurslarining bir qismini yo‘qotishi, daromadlarni to‘liq olmasligi yoki xo‘jalik faoliyati davomida qo‘sishimcha xarajatlarning paydo bo‘lishi nazarda tutiladi.

Bank kafolati, garov, lizingga beriluvchi mulkning qiymati va boshqalar kafolatni ta’minlashning asosiy turlari hisoblanadi. Har bir investor investitsiyalashda kiritilgan mablag‘larni qaytarib olishni kafolatlash, mijozning to‘lov layoqatini yo‘qotishi natijasida yuzaga keladigan zararlardan sug‘urtalanishdan manfaatdor bo‘ladi.

Qayta sug‘urtalash mexanizmidan xorijdan asbob-uskunalarini keltirishda foydalaniлади, bunda asbob-uskunalar qiymati bir necha million dollarni tashkil etishi sababli xorijiy hamkor bitimda yirik xorijiy sug‘urta kompaniyasining ishtirok etishini talab qilishi mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Banklarning lizingni moliyalashtirishi qay tarzda amalga oshiriladi?
2. Banklar uchun lizingning afzalliklarini aytib bering.
3. Tavakkalchilik atamasini tushuntirib bering.
4. Lizing tavakkalchiliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
5. Investorning moliyaviy ahvoli qanday baholanadi?
6. Investitsiyalashda tavakkalchiliklarni kamaytirishning qanday usullarini bilasiz?

7. Investitsiyalashda kafolatni ta’minlashning asosiy turlarini sanab bering.
8. Bank kafolati nimani anglatadi?
9. Qayta sug‘urtalash mexanizmi qay hollarda qo‘llanadi?
- 10.Tavakkalchiliklarning qaysi turlarini sug‘urtalash mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Газман В.Д. Лизинг. Теория и практика. - М.: 2000.
2. Лещенко М.И. Основы лизинга.- М.: 2001.
3. [www.irc.org/centralasia](http://www.irc.org/centralasia) Международная Финансовая корпорация  
Проект по развитию лизинга в Центральной Азии.
4. Горемыкин В.А. Лизинг – М.: Дашков и Ко, 2003.

## **VII bob. LIZING JARAYONINI BOSHQARISH**

### **7.1. Lizing munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy shakllar**

Lizing munosabatlarini davlat tomonidan tartibga soluvchi asosiy shakllari bo‘lib, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, lizing faoliyatiga ixtisoslashgan me’yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish. Respublikamizda lizing munosabatlarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘lidagi vazifalardan biri bo‘lib "Investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi, "Lizing to‘g‘risida"gi qonunlarni xalqaro lizing qonunchiligi va davlat iqtisodiyotiga oid boshqa qonunlar bilan tartibga keltirilishi hisoblanadi. Bunda Ottavada qabul qilingan (1988 - yil) va 1995 - yil 1 - maydan kuchga kirgan BMT Konvensiyasi qoidalari va ushbu Konvensiyaga a’zo bo‘lgan va bo‘lmagan davlatlar qonunchiligini inobatga olish asosiy muammolardan biri edi. Ayniqsa, sobiq Ittifoqqa a’zo bo‘lgan davlatlarning lizingni rivojlantirish bo‘yicha dastlabki yillarda qabul qilgan qonun va qoidalarini o‘rganish va ularni o‘z qonunchiligidan takomillashtirishda inobatga olish maqsadga muvofiq edi.

Lizing bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish maqsadida mamlakatda huquqiy islohotlar davom ettirildi. “O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonuniy hujjatlariga o‘zgarishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”ga qonun qabul qilinib, unga muvofiq O‘zR Fuqarolik va Soliq kodeksiga, O‘zR “Lizing to‘g‘risida”gi va “Bojxona tariflari to‘g‘risida”gi qonunlariga 38 ta o‘zgarish va qo‘srimchalar kiritildi. Ta’kidlash joizki, ushbu me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha asosiy tayyorgarlik ishlari qator vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, hamda lizing kompaniyalari va xalqaro moliyaviy institutlar vakillari qatnashgan, “Baraka” kompaniyasi tashabbusi bilan 2001 - yilda tashkil etiltan “Lizing xizmatlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha” ishchi guruh tomonidan amalga oshirildi.

Ishchi guruhning faoliyati tufayli 2003 - yil 30 - avgustida O‘zbekiston Parlamenti tomonidan xo‘jalik prosessual kodeksga o‘zgartishlarni qabul qilinishi natijasida, lizing oluvchi shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda lizing obyekti lizing beruvchi tomonidan talab qilib olinishining soddallashtirilgan mexanizmi yaratildi. Taklif etilgan o‘zgarishlar lizing beruvchi tomonidan nafaqat o‘z operatsiyalarining hajmini oshirishga, balki ta’minot uchun yetarli aktivlari bo‘lmagan kichik biznes vakillarining lizing bo‘yicha

uskunalar olishlariga qulaylik yaratdi. Bu esa mamlakatda lizing rivojlanishiga qo'shimcha rag'batlantirish bo'lib xizmat qiladi.

2003 - yildagi O'zR Vazirlar Mahkamasining 260-raqamli "Istiqbolda valyuta kurslarini unifikatsiyalash va valyuta bozorini liberallashtirish tadbirlari to'g'risida"gi qarori lizing operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta hisobiga lizing obyektlarini import qilish shart-sharoitlarini yengillashtirdi, hamda xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Ikkinchidan, soliq va amortizatsiya imtiyozlarni berilishi. Xususan, lizing to'lovlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish, lizingga berish maqsadida O'zR hududiga olib kirilayotgan texnologik uskunalarini QQS va bojlardan ozod etish, xo'jalik subyektlarini-lizing oluvchilarni lizingga berilgan mulkni mulk solig'idan ozod etish va boshqalar kabi jiddiy soliq imtiyozlari berilishini nazarda tutiladi. Soliqqa tortish masalalarini hal etish bilan birga, lizing bitimlarining qatnashchilariga lizing obyekti bo'yicha jadal amortizatsiyani mustaqil qo'llash imkoniyati berilishi kerak. Bu tadbir eksportga mo'ljallangan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish bilan birga mashina va uskunalar parkini yangilash muammosini hal etadi. O'zbekistonning amaldagi qonun hujjalariiga binoan jadal amortizatsiyani qo'llashga ruxsat beriladi, biroq, me'yordan yuqori bo'lgan amortizatsiya ajratmalarini soliqqa tortiladigan bazaga kiritiladi va undan soliq undiriladi. Shu munosabat bilan, investitsiyalarini rag'batlantiradigan va soliqqa tortiladigan bazani qisqartiradigan jadal amortizatsiyani hisoblashning zarur usullaridan erkin foydalanishni amaliyotga joriy etish zarur, bu esa jamg'ariladigan amortizatsiya summasini inflyatsiya ta'siridan saqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, mutaxassislarini tayyorlash. Lizing operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar tijorat bo'yicha, yangi va ishlatilgan asbob-uskunalariga bo'lgan talab va taklifni aniqlash, ishlab chiqarish texnologiyalari, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha, nazorat, qonunchilik bo'yicha, mol-mulkni sug'urtalash va boshqa sohalar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Ma'lumki, lizing operatsiyalarini amalga oshirishda lizing oluvchining mol-mulkdan qoniqarsiz foydalanishi, lizing beruvchi ishlatilgan asbob-uskunalarini samarasiz sotishi, lizing obyektini egasiga o'z vaqtida qaytarilmasligi va shu kabi salbiy xolatlar lizing beruvchining risklarini oshiradi. Shu sababli lizing sohasidagi mutaxassislar lizing mulkini sug'urtalash bo'yicha bilimli va tajribali bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Huquqiy masalalarini bilish va lizing shartnomalarini to'g'ri rasmiylashtirish ham muhim vazifalardan biridir;

To‘rtichidan, ilmiy-texnik va axborot qo‘llab-quvvatlanishi;

Beshinchidan, lizing fondlarini, lizing tizimini rivojlantirish federal dasturlarni, lizing kompaniyalarni uyushmasini shakllantirish. Shu kunlarda respublikamizda lizing kompaniyalarini uyushmasi va ularni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish yuzasidan faol harakat olib borilmoqda. Aksiyadorlik lizing kompaniyalarining namunaviy ustavlarini, moliyaviy lizingni joriy etishga oid namunaviy bitim-shartnomalarni, lizing haqini to‘lashga oid uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish va tasdiqdash ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu tuzilmalar faoliyatining asosiy vazifalari sifatida O‘zbekistonda lizing bozorining rivojlanishining huquqiy va iqtisodiy asoslarini yanada mustahkamlash deb belgilanmoqda.

Hozirgi paytda O‘zbekiston lizingni tartibga soluvchi qonunchilik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

**me’yorlar:** O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni; O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi; O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik prosessual kodeksi; Xalqaro moliyaviy lizing to‘g‘risidagi UNIDRUA konvensiyasi.

**Soliq solish me’yorlari:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lizing tizimini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2002 - yil 28 - avgustdagi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi.

**Bojxona me’yorlari:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lizing tizimini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi “Bojxona tariflari to‘g‘risida”gi qonuni; O‘zbekiston respublikasi Bojxona Kodeksi.

**Lizing operatsiyalarining buxgalterlik hisoboti:** O‘zR Milliy buxgalterlik hisoboti standarti (MBXS).<sup>1</sup>

## **7.2. Lizing jarayonini boshqarishning tashkiliy shakllari**

Lizing kompaniyasi faoliyati yo‘nalishi va ish sxemalaridan kelib chiqqan holda lizing faoliyatini boshqarishning uchta asosiy shaklini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- **ishlab chiqarish;**
- **marketing;**
- **maxsus boshqaruv.**

<sup>1</sup> Газибеков Д.Г. ва бошк. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти – Т.: Фан ва технология, 2004, 85 б.

**Boshqaruvning ishlab chiqarish shaklida** lizing operatsiyalarini tayyorlash va amalga oshirish bo‘yicha faoliyatি korxonaning ishlab chiqarish masalalari bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmalarida mujassamlanadi. Odatda bu shakl boshqaruv funksiyalari chuqur taqsimlanmagan hamda lizing faoliyatini boshqarish ishlab chiqaruvchi korxonaning ishlab chiqarish bo‘linmalarida mujassamlangan kichik korxonalarda kuzatiladi. Bu eng ilg‘or texnika turlarini sotish, ularni ta’mirlash va bevosita iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishga imkon beradi. Biroq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning lizing ulushi kengayishi bilan boshqaruvning mazkur shakli iste’molchilar ehtiyojlarini to‘liq ta’minlay olmasligi mumkin. Shu sababli biznes sohasida roli tobora o‘sib borayotgan marketingga asoslangan boshqaruv shakli zarurati tug‘iladi.

**Boshqaruvning ikkinchi shaklida** lizing faoliyatini amalga oshirish marketing va sotuv bo‘limlarida mujassamlangan bo‘ladi. Marketing vositasida lizingni boshqarish sotuvning bu shaklini takomillashtirish hamda uni bozorda mahsulot sotishning o‘zlashtirilgan usul va vositalari yordamida amalga oshirishga imkon yaratadi. Kelajakda lizing miqyosining kengaytirilishi yangi kapital oqimlari va lizingni tashkil etishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bunga mulkni lizingga berish bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni markazlashtiruvchi lizing operatsiyalarini o‘tkazishga ixtisoslashgan kompaniyalarni yaratish yo‘li bilan erishiladi. Bu kompaniyalar faoliyatining samaradorligini reklama, bozorni o‘rganish, ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish, qo‘srimcha pul resurslarini tashkil etish yagona – lizing faoliyatini ta’minlaydi.

Bundan kelib chiqadiki, **boshqaruvning uchinchi shakli** lizing faoliyati ishlab chiqaruvchi korxona doirasidan chiqqan hamda lizing kompaniyalari ifodalovchi ixtisoslashgan tarmoqda markazlashgan paytda o‘ringa ega bo‘ladi.

Lizing jarayonini boshqarishning yuqorida sanab o‘tilgan barcha turlari lizing turidan qat’iy nazar qo‘llanadi.

Lizingni boshqarishning tashkiliy shakllari rivojlanishi ishlab chiqarishning markazlashuvi va kooperatsiya qonunlari bilan bog‘liq tendensiyalarga asoslanishi mumkin. Masalan, bank va sug‘urta kompaniyalari misolida yirik moliya egalarining mulkni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar, shuningdek, ta’mirlash korxonalarining bevosita iste’molchilar bilan kooperatsiyasi bozorning shakllanish sharoitlarida lizingning rivojlanishida qiyinchiliklarni aylanib o‘tishga imkon beradi. Texnika vositalariga talabning yuqoriligi lizing bitimlari sonini oshirishi sababli, bu holda lizing kompaniyalarining ham yiriklashuvi, ularning ixtisoslashuvi, mustaqil huquqiy tuzilmalarning paydo bo‘lishi, ya’ni xolding turidagi lizing kompaniyalari

varianti yuzaga kelishi mumkin. Bunda xolding turidagi lizing kompaniyalarini tuzishning funksional tamoyillari lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi xarajatlarni qisqartirishga imkon yaratadi.

Shu tariqa, **lizingni boshqarish shakllarining kelgusi rivojlanishi xolding turidagi** lizing kompaniyalarini yaratish tendensiyasini asoslab beradi, ya’ni firmalarning yiriklashuvi va kooperatsiyasi, ularning ixtisoslashuvi lizing operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlarini sezilarli miqdorda qisqartirishga imkon beradi. Bu yerda umumiylamda tamoyilning ko‘zga tashlanishi shubhasiz – tashkiliy tuzilma bozor ehtiyojlarini hisobga olgan, lizing biznesida taraqqiyotni ta’minlagan holda qayta tuzilishi lozim.

### **7.3. Lizing kompaniyalarining tashkiliy tuzilmasi**

Lizing tarmog‘ining tashkiliy tuzilmasi asosan lizing beruvchilarning to‘rt variantidan iborat bo‘ladi:

- bank tuzilmasida tuzilgan lizing kompaniyalari;
- banklar tomonidan ta’sis etiluvchi universal lizing kompaniyalari;
- yirik ishlab chiqaruvchilar tomonidan tuziluvchi ixtisoslashgan lizing kompaniyalari;
- yirik firmalar tomonidan tuziluvchi, texnika yetkazib berish va ularga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashuvchi lizing kompaniyalari.

Odatda, bank tuzilmasiga kiruvchi lizing kompaniyalari va banklar tomonidan tuziluvchi universal lizing kompaniyalari AQSHdan tashqari barcha rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda lizing xizmatlari bozorida asosiy rolni o‘ynaydi. AQSHning mazkur tuzilmada o‘ziga xos holatda bo‘lishini amerika qonunchiligining o‘ziga xosligi bilan izohlash mumkin. Unga ko‘ra 1962 - yilda banklarga lizing operatsiyalarini amalga oshirish taqiqlab qo‘yilgan. Lizing xizmatlari bozorida bunday guruhlarning ko‘pligini avvalo, ularning yirik pul mablag‘lari bilan muomala qilish imkoniyati bilan izohlash mumkin. Bu ayniqsa yirik obyektlar ijarasida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomonidan esa, banklar tomonidan lizing faoliyatiga qiziqishning kattaligini lizing taqdim etuvchi bir qator afzalliklar bilan asoslash mumkin.

Mavjud tajribalarning ko‘rsatishicha, respublikamizda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatayotan lizing kompaniyalarining katta qismi yirik banklar ishtirokida tuzilib, keyinchalik banklar ularning kreditorlariga aylanishgan. Masalan, O‘zbekiston banklar Assotsiatsiyasi tomonidan “Baraka” universal lizing kompaniyasi bir yo‘la ikki vazifani bajardi: lizing operatsiyalarini

moliyalashtirish va bir vaqtining o‘zida ularni sug‘urtalashning ishonchli manbasi shakllantirildi

Lizing kompaniyalarini tuzish va ularning faoliyatida Malayziyaning “Malayyan benking Berxad” banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) kabi xorijiy banklarning ishtiroki ham katta bo‘ldi. Ularning ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Banki tomonidan “O‘zlizinginterneyshnl AJ” lizing kompaniyasi tuzildi. ETTB lizing operatsiyalarini rivojlantirishda katta tajriba to‘plagan. Aynan ETTB ishi natijasida quyidagilar aniqlandi:<sup>1</sup>

- eng kuchli mahalliy hamkor;
- lizing faoliyati tajribasiga ega bo‘lgan xorijlik manfaatdor hamkor;
- ma’qul keluvchi huquqiy asos (soliq tizimi);
- aksiya egalari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar bo‘yicha qoidalar, AS tizimi bo‘yicha hisobot tizimi, faoliyatni kuzatish, direktorlar tarkibini o‘rinlarni taqsimlash, dividendlarni taqsimlash siyosati va hokazo;
- sug‘urta tavakkalchilagini hisobga oluvchi qayta moliyalashtirish stavkalari bo‘yicha bo‘lg‘usi ehtiyojlar bo‘yicha majburiyatlarni taqsimlash.

Lizing munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishida banklarning imkoniyatlarini baholashda respublikamizda mavjud bo‘lgan iqtisodiy sharoitlarda bu jarayonlarga nafaqat xorijiy, balki mintaqaviy tijorat banklarini jalb qilish ham jozibador ekanligini qayd etish lozim. Tuzilayotgan lizing kompaniyalari, ayniqsa, birinchi vaqtarda bank kreditlari ko‘rinishidagi tashqi resurslar manbalariga bog‘liq bo‘ladi. Bu holatni xorijiy mamlakatlardan tajribasi ham to‘laligicha tasdiqlaydi. Yevropa hamjamiyati mamlakatlari lizing biznesining rivojlanishida aynan banklarga minnatdorchilik bildirsalar arziyi. Lizing kompaniyalarining sezilarli qismi yirik banklar tomonidan to‘liq yoki qisman nazorat qilinadi. Masalan, Germaniyada “Doyche bank”, “Drezdner bank”, “Arzder bank”, Yaponiyada esa “Yaponiya rivojlanish banki” hukumatning ruxsati bilan lizing kompaniyalariga imtiyozli stavkalarda katta miqdorda kreditlar taqdim etadi.

Lizing kompaniyalarini ta’sis etishda yirik sanoat majmularining ishtirok etishi ham lizing rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda ular lizing operatsiyalari sanoatida hal qiluvchi o‘rinlarni egallagan. Buning uchun bu korxonalar asosiy faoliyati ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar lizingi bilan bog‘liq bo‘lgan ixtisoslashgan lizing kompaniyalarini tuzadilar. Zamонави

<sup>1</sup> Лизинг Инфо. Сотрудничество МФК и ЕББР в Республике Узбекистан // Бизнес вестник Востока, 2003, № 18 (588), 176.

sharoitlarda bunday kompaniyalar faoliyati ko‘p funksional xarakterga ega bo‘lib, tor ixtisoslashuvdan keng ishlab chiqarish dasturiga o‘tib boradi. Mazkur guruh va uning lizing xizmatlari bozoridagi ta’sirining roli mamlakatlar va qo‘llanish tarmog‘iga qarab turlichcha bo‘ladi. Ularning roli AQSH bozorida, ayniqsa aviatexnika, yo‘l-qurilish asbob-uskunalar, elektron mahsulotlarning ayrim turlari ijerasi sohasida sezilarlidir.

O‘zbekistonda mazkur guruh toifasiga “Avializing”, “O‘zkeysagrolizing”, “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kabi lizing kompaniyalarini kiritish mumkin. “Avializing” lizing kompaniyasi “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasining moliyaviy va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashi asosida tashkil etilgan bo‘lib, o‘z faoliyatini ularning yordamida yuritadi. Qishloq xo‘jaligida O‘zbekiston banklar assotsiatsiyasi va amerikaning “Keys kredit xolding” kompaniyasi muassisligida tuzilgan “O‘zkeysagrolizing” hamda “O‘zqishloqxo‘jalikmashxolding” XK, “O‘zqishloqxo‘jalik-ta’minotta’mirlash” DK, “O‘zsanoatmashimpeks” XK va Germaniyaning “Zelko” kompaniyasi ishtirokida tuzilgan “O‘zqishloq-xo‘jalikmashlizing” kompaniyasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda lizing xizmatlarining asosiy iste’molchilar mahalliy korxonalar va tadbirkorlar hisoblanadi.

Lizing beruvchilarning yana bir guruhi mustaqil lizing kompaniyalari bo‘lib, ular AQSH lizing bozorida keng tarqalgan. Bu kompaniyalar faoliyat turlarining ixtisoslashuvi, asbob-uskunalar turi va mijozlar turiga qarab farqlanadi hamda tor bozor segmentiga qaratilgan bo‘ladi.

Kompaniyalarning mazkur turi servis va moliya kompaniyalariga bo‘linadi. Servis lizing kompaniyalari turli xil xizmatlar ko‘rsatadi, moliya lizing kompaniyalari esa bank funksiyalariga o‘xshash funksiyalarini bajaradi, ya’ni ularga yetishmayotgan moliyaviy vositalarni taqdim etadi. Mamlakatimizda kompaniyalarning bu turi rivoj topmagan.

Yuqorida sanab o‘tilgan lizing kompaniyalaridan tashqari, xorij mamlakatlari amaliyotida lizing kompaniyalari sifatida brokerlik firmalari, sug‘urta kompaniyalari, nafaqa jamg‘armalari va investitsiya banklari xizmat qiladi. Shu bilan bir paytda lizing asosiy faoliyat turi emas, balki tadbirkorlikning boshqa bir asosiy turi uchun qo‘sishimcha sifatida ko‘rib chiqiluvchi bir qator firmalar ham mavjud.

## **7.4. Lizing kompaniyalarini tashkil etish**

Lizing kompaniyasini tashkil etish bo‘yicha masalalar majmuasini hal qilish uchun birinchi navbatda uning maqomini belgilab olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi “Lizing to‘g‘risidagi” qonunida lizing kompaniyalari aksiyadorlik jamiyati yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda tuziluvchi hamda ta’sis hujjatlari va litsenziyalarga asosan lizing beruvchi funksiyalarini bajaruvchi tijorat tashkilotlari deb belgilangan. Huquqiy va (yoki) jismoniy shaxslar lizing kompaniyalarining ta’sischilari bo‘lishi mumkin.

Qoidaga ko‘ra, tashkil etilayotgan lizing kompaniyalarining asosiy maqsadi mulkni sotib olish va ijara berish yo‘li bilan investitsiya faoliyatidan daromad olish hisoblanadi. Bunda lizing kompaniyalarini yaratish quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:<sup>1</sup>

- lizing oluvchilarda investitsiya loyihamalarining mavjudligi va ularning lizing operatsiyalariga tayyorligi;
- zarur bo‘lgan eng kam mablag‘lar va qo‘sishimcha kredit resurslarini jalg qilish imkoniyatlarining mavjudligi;
- lizing kompaniyasi ta’sischisi mablag‘larini minimallashtirishni ta’minlovchi bir nechta lizing loyihamalarini investitsiyalash sxemalarini ishlab chiqish darajasi;
- lizing kompaniyasi uchun foydali bo‘lgan lizing marjasini belgilash;
- amortizatsiya siyosatining moslashuvchanligi;
- lizing kompaniyasiga kafillik berish bo‘yicha ishonchli sxemalarining mavjudligi;
- lizing to‘g‘risidagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan soliq to‘lovlari qisqartirish imkoniyatlari, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlari.

Bunda eng maqsadga muvofiq tashkiliy-huquqiy shakl quyidagi shartlarni hisobga olgan holda aniqlanadi:

1. Ta’sischilar majburiyati darajasi. Majburiyatning ikki turi – to‘liq, ya’ni butun mulki bilan va qisman, ya’ni mulkning ishga qo‘shilgan qismi bilan javobgarlik turi mavjud.
2. Kompaniyaning nizom jamg‘armasini yaratish shakli, ya’ni mulk subyektlari va shaxsiy boshlang‘ich kapitallarning mavjudligi, investitsiya va kreditlarga ega bo‘lish imkoniyatlari, faoliyat miqyosi va boshqalar.
3. Huquqlar miqdori va darajasi.
4. Lizing faoliyati turlari tarkibi.
5. Ta’sischilar soni.

<sup>1</sup> Газман В.Д. Лизинг: теория, практика и комментарии – М.: Правовая культура, 2000, 3236.

**Lizing kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli** tanlangan va uni amalda tuzish bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng tayyorgarlik va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati shaklida lizing kompaniyasi tuzishda quyidagi tayyorgarlik va tashkiliy ishlar bajariladi. Birinchidan, ta'sischilar yozma kelishuv asosida OAJning qo'shma faoliyat tartibi, nizom jamg'armasi hajmi, aksiyalar turlari va ularni joylashtirish yo'llarini belgilab oladilar. Ikkinchidan, ta'sis yig'ilishini tayyorlash, nizom loyihasini ishlab chiqish va nizom kapitaliga badal kiritish uchun hisob raqamini ochish bo'yicha ishlar bajariladi. Uchinchidan, ta'sis yig'ilishida barcha ta'sischilar ishtirokida jamiyat nizomi qabul tasdiqlanadi hamda boshqaruv organlari tayinlanadi. Va nihoyat to'rtinchidan, nizom jamg'armasining kamida 50 % qismi to'lanadi, OAJ ro'yxatga olinadi va uning aksiyalari joylashtiriladi.

Bunda lizing kompaniyalarining muvaffaqiyatli faoliyatini ko'p jihatdan ularning ichki tashkiliy tuzilmasi oqilona tuzilishi va mos keluvchi boshqaruv tizimining shakllantirilishi belgilab beradi.

Lizing kompaniyasining tashkiliy tuzilmasi aksiyadorlar turlari, iqtisodiy faoliyat, shartnomalar va mulk turlari, faoliyat hududiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli kompaniyalarni yaratish uni tashkil etish va kompaniya ta'sischilarining maqsad va vazifalariga javob berishi lozim.

### **7.5. Lizing faoliyatiga ruxsatnomalar berish**

Lizing kompaniyasining litsenziyasi belgilangan muddat davomida amaldagi qonunchilik talablari va litsenziya qoidalariga rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatishga ruxsat beruvchi rasmiy hujjat hisoblanadi.

Lizing kompaniyasi litsenziyani rasmiylashtirish uchun litsenziya beruvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:<sup>1</sup>

- belgilangan shaklda kompaniyaning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning huquqiy manzili, hisob raqami, xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va litsenziya muddati to'liq ko'rsatilgan ariza;
- ta'sis hujjatlari nusxasi;
- davlat ro'yxatidan o'tganlik guvohnomasi nusxasi;
- davlat soliq xizmatida hisobga olinganlik to'g'risidagi ma'lumotnomasi;
- nizom kapitalini to'laganlikni tasdiqlovchi hujjat;
- o'tgan hisobot davri uchun balans va ko'rsatilgan muddatda kompaniyaning moliyaviy faoliyati natijalari to'g'risida hisobot;

---

<sup>1</sup> Лещенко М.И. Основы лизинга – М.: Финансы и статистика, 2001, 2056.

- oxirgi auditorlik tekshiruvi yoki O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq idoralari tekshiruvi nusxasi;
  - arizani ko‘rib chiqish jarayoni uchun pul to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.
- Faqat tuzilayotgan lizing kompaniyalarigina so‘nggi ikki punktda ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etishdan ozod qilinadi.

## **7.6. Lizing kompaniyalari birlashmalarini tuzish uslubiy asoslari**

Lizing kompaniyalarini yaratish va rivojlantirish qoidaga ko‘ra ularning shartnoma asosida tarmoq assotsiatsiyalari va boshqa birlashmalarga ko‘ngilli birlashishini taklif qiladi. Bunda mintaqaviy assotsiatsiyalar quyidagi tarzda tuziladi:

1. birlashmaning shakli va maqsadi, a’zolar tarkibi aniqlanadi, ishchi guruhi tuziladi, ishni boshlash va tugatish muddatlari belgilanadi;
2. ishchi guruhi rejasи tuziladi va unda birlashma nizomi loyihasi, hujjatlarni tayyorlash muddati va aniq bajaruvchilar belgilanadi;
3. bo‘lajak birlashmaning birinchi ta’sischilar yig‘ilishiga taklifnomा yuboriladi, nizom loyihasi va shartnoma loyihasini ko‘rib chiqish bo‘yicha tavsiyanomalar beriladi;
4. umumiy yig‘ilishda har bir a’zodan hal qiluvchi ovozga ega bo‘lgan vakillar saylanadi.

Eng muhim hujjatlar nizom va shartnoma hisoblanadi. Shartnomada quyidagilar ko‘rsatilishi lozim: birlashmaning nomi va ta’sischilarining huquqiy manzillari, shartnoma predmeti, birlashma tuzilmasi va tashkilotining asosiy tamoyillari, birlashmaning vazifalari, rahbariyatning majburiyatları, birlashma ta’sischilar o‘rtasida asosiy vazifalarning taqsimlanishi, boshqaruv va tashkilotning asosiy tamoyillari, birlashma ta’sischilarining huquq va majburiyatları, ta’sischilar majburiyatlarini bajarish jadvali, zaxira jamg‘armasi to‘g‘risidagi qoidalar, ta’sischilar o‘rtasidagi hisob-kitoblar tartibi, muammolarni hal qilish tartibi va yakuniy xulosalar.

**Lizing kompaniyalari birlashuvining asosiy maqsadlari** quyidagilardir:

- ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- umumiy manfaatlarni ifodalash va himoya qilish;
- lizing tarmog‘i ichida tajriba almashish;
- mamlakatda lizingni rivojlantirishni rag‘batlantirish tadbirlarini ishlab chiqish;

- lizing operatsiyalarini amalga oshirishga sarflanuvchi xarajatlarni qisqartirish;
- reklama vazifalarini bajarish, o‘qitish, mijozlarni o‘rganish va sug‘urtalash va hokazo.

Quyidagilar **lizing kompaniyalarining motivi** bo‘lib xizmat qiladi:

- lizing bozorida vaziyatning yomonlashuvidan himoya qilish;
- lizing obyektlari tarkibi, lizing bitimlari turlari, servis xizmatlari tarkibi va vazifalari diversifikatsiyasi;
- o‘sish va yashovchanlik: lizing bozorining kengayishi, investitsiya tuzilmasining yaxshilanishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish.

Lizing kompaniyalari birlashuvining bir qator **afzallliklarini** ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- a. menedjerlarning professional mahoratlaridan keng foydalanish hisobiga boshqaruvni yaxshilash;
- b. investitsiyalar bazasini kengaytirish;
- c. “Nou-xau”larni sotib olish;
- d. raqobatchilikni yo‘nqotshi;
- e. ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- f. umumiy funksiyalarni markazlashtirish;
- g. ishtirokchilarning xo‘jalik faoliyatidagi mustaqilligini saqlash.

Shu bilan bir paytda lizing munosabatlarida kompaniyalarning birlashuvida firmaning tijorat sirlarini oshkor qilish va munosabatlarning murakkablashuvi kabi bir qator kamchiliklar ham mavjud.

### **Qisqa xulosalar**

Lizing operatsiyalarini amalga oshirishga korxona va tashkilotlarning marketing bo‘limlari tarkibidagi mustaqil bo‘linmalar, shuningdek, lizing kompaniyalari amalga oshirishga qodir bo‘lib, bu lizing jarayonini yuqori professionallik bilan boshqarish imkon yaratadi. Lizing faoliyatini boshqarish shakllari muayyan shartlariga asosan zamon va makonda bo‘lishi hamda muayyan lizing turiga nisbatan turli kombinasiyalarni tashkil etishi mumkin.

Lizing kompaniyasining eng maqsadga muvofiq tashkiliy-huquqiy shakli uni tuzishda hisobga olinuvchi omillar majmuasi yordamida aniqlanadi. Lizing kompaniyasi tarkibida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, lizing bitimlarini investitsiyalash loyihasi va tahlili, shartnoma-huquqiy ishlar va ekspertiza o‘tkazuvchi, texnik nazoratni amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi tuzilmalar

ko‘zda tutiladi. Lizing birlashmalari shartnoma asosida ko‘ngilli ravishda tuziladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Lizing jarayonini boshqarishning eng tarqalgan darajasini tavsiflab bering.
2. Muayyan lizing turiga nisbatan boshqaruv shakllari kombinasiyasi qanday?
3. Lizing kompaniyalarini tuzishda hisobga olinuvchi omillar majmuasini sanab bering.
4. Lizing kompaniyalari tuzilmasini aytib bering.
5. Lizing birlashmalarini aytib bering va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
6. Lizing kompaniyalarni birlashmalarining asosiy motivlari va maqsadlari to‘g‘risida aytib bering.
7. Lizing faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida tavsiflab bering.
8. Lizing faliyatini marketing boshqaruv shakli nimadan iborat?
9. Bank tomonidan tashkil etilgan lizing kompaniyalar to‘g‘risida aytib bering.
10. Xolding shakldagi lizing to‘g‘risida gapirib bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Горемыкин В.А. Лизинг.- М.: “Дашков и К”, 2003.
2. Лещенко М.И. Основы лизинга.- М.: 2001.
3. Фозибеков Д.Ф. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма— Т.: Фан ва технология, 2004.

## **VIII bob. O'ZBEKISTONDA LIZINGNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI**

### **8.1. Respublikamizda investitsiya faoliyatining holatini tahlil qilish**

Mazkur bosqichda iqtisodiyotda yuzaga kelgan muammolar iqtisodiy islohotlarning borishi va aholining turmush farovonligi o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlarda investitsiyalarning yo'qligi mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarida ham, iste'molchilarda ham bir qator yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Sanoat korxonalari odatda yangi texnika uchun pulni birdaniga to'lash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, ular buni asta-sekinlik bilan, ushbu texnikani ekspluatatsiya qilishdan olinuvchi daromadlar hisobiga amalga oshirishlari mumkin. Bunda sanoat texnikasi ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarga bu muammoni hal qilishga yordam bera olmaydilar, chunki ularning o'zları ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun katta aylanma mablag'lariga muhtojlik sezadilar. Shu tariqa bir tomondan, mahalliy iste'molchilar mamlakatimizda ishlab chiqarilgan texnikani ishlab chiqaruvchilar kreditga sotganda xarid qilishlari mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan korxonalar zarur mulkni xaridor darhol pul to'lagan taqdirdagina ishlab chiqarishga tayyor bo'ladi.

Natijada mahalliy sanoat korxonalari zarur texnikani ko'pincha G'arb mamlakatlarida lizing krediti asosida turli xil texnikalar sotish tajribasini keng qo'lllovchi chet ellik ishlab chiqaruvchilardan sotib oladilar.

Iqtisodiyotning hozirgi holati investitsiya siyosati va uni amalga oshirish mexanizmi, shuningdek, davlatning bu sohada ro'y berayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatish shakllariga yangicha yondashishni talab qiladi. Bu yondashuvlardan biri investitsiyalashning yangicha shakli – lizing bo'lib, u iqtisodiyot rivojlanishining mazkur bosqichida uzoq muddatli investitsiyalarni jalg qilishning yagona istiqbolli shakli hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda lizing biznesining rivojlanishiga turtki bo'luvchi bir qator sabablar mavjud:

Birinchi navbatda bu davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish bo'lib, davlat tomonidan lizing rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni, aynan lizingning huquqiy ta'minlanishida aks ettiriladi. Bundan tashqari, respublikamizda "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasining tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu kompaniya TIF Milliy Banki va Amerikaning "ALC, Inc." moliyaviy guruhi bilan bиргаликда sug'urta kompaniyalarining keng tarmog'ini yaratgan. Lizing loyihibalarini tuzish va

ekspertiza qilish, ularni tezlashtirish maqsadida TIF Milliy Banki tomonidan respublikamizning loyiha-konstrukturlik muassasalari zamirida maxsus injiniring kompaniyasini tuzdi.


Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qoidaga ko‘ra imtiyozlar davlat hukumat va boshqaruv organlari tomonidan beriladi. Bu imtiyozlar asosan lizing bitimi ishtirokchilarini foyda solig‘i, QQS, boshqa soliq va yig‘imlardan, lizing obyektlari importi va eksportida bojxona bojlari va soliqlardan to‘liq va qisman ozod qilish, shuningdek, lizing bitimi ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Umuman respublikamizda amal qiluvchi qonunchilikka asosan lizing biznesi ishtirokchilariga imtiyozlar berilishi ko‘zda tutilgan.

## **8.2. Respublikamizda lizing xizmatlari bozorini rivojlanish tendensiyalari**

Mamlakatimiz lizing bozoridagi operatsiyalarining rivojlanishi 1993 - yildan boshlangan bo‘lib, bu paytda sobiq Ittifoq parchalanib ketgandan keyin yuz bergen iqtisodiy inqiroz sharoitlarida respublikadagi moliyaviy imkoniyatlar zaiflashib, iqtisodiy sharoitlarning o‘zi esa ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta’minlay olmas edi. Shu og‘ir davrda respublikamiz uchun yangi bo‘lgan xo‘jalik yuritish shakllari, xususan lizing xizmatlari paydo bo‘ldi. Bu tasodifiy hol emas, chunki lizing - g‘oyatda zarur kapital qo‘yilmalarni jalg qilishning doimiy samarali usuli hisoblanadi. Lizingning qaror topishida tijorat banklar tarmog‘ining rivojlantirilishi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shu davrdan boshlab, O‘zbekiston Respublikasida lizing faoliyatiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Lizing kompaniyalarining soni ko‘payib, ularning faoliyat sohasi ham kengayib bormoqda. Tadbirkorlik faoliyatini investitsiyalashning o‘ziga xos shakli bo‘lgan ushbu mexanizmning ahamiyatidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston hukumati lizing faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari va qarorlar qabul qildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda lizing xizmatlari bozorida 28 ta lizing beruvchi faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston lizing xizmatlari bozorida olib borilgan marketing tadqiqotlari lizing xizmatlari hajmining yildan-yilga o‘sib borayotganligi 7-chizmada ko‘rsatilgan. 7-chizmaga ko‘ra, respublikamizda lizingning rivojlanish dinamikasi barqaror: 2000 - yilda lizing operatsiyalari hajmining 1999 - yilga nisbatan 58,7 %ga o‘sishi kuzatiladi. Keyingi yillarda lizing kompaniyalarining faoliyati yanada faollashmoqda. Bunga ularni tartibga soluvchi qonun hujjatlaridaga ziddiyatlarni bartaraf etadigan va soliq imtiyozlari

beradigan o‘zgartirishlar kiritilishi ham yordam berdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 - yil 28 - avgustdagি 3122-sonli “Lizing tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 - yil 26 - apreldagi 199-sonli “Lizing xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq quyidagi imtiyozlar berilgan:<sup>1</sup>



#### **7-chizma. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan lizing kompaniyalari operatsiyalarining o‘sish sur’ati.<sup>2</sup>**

- lizing oluvchilar lizing shartnomasi muddati davomida mol-mulk solig‘idan ozod etilgan;
- lizing to‘lovlari qo‘silgan qiymat solig‘i (QQS) dan ozod etilgan va bu soliq ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga qo‘shiladi;

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун Хужжатлари тўплами, 2002, № 15-16, 5-6 б., 2004, № 17, 4-7 б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси лизинг компанияларининг ҳисобот маълумотлари ҳамда Марказий Осиёда лизингни ривожлантириш бўйича Лойиҳа материаллари 2004й. асосида тузилган.

- O‘zbekistonga olib kirilayotgan texnologiya asbob-uskunalarini, import qiluvchiga xizmat ko‘rsatayotgan bankning tegishli tasdig‘i bo‘lsa, QQS to‘lovidan ozod etiladi;
- tezkor amortizatsiyani qo‘llash imkoniyatiga ega;
- avtotransport vositalarini ro‘yxatga olish, qayta ro‘yxatga olish va hisobini yuritish jarayoni takomillashtirilgan.


Umuman olganda, 2005 - yilda lizing kompaniyalari tomonidan jami 47,6 mlrd. so‘mlik bitim amalga oshirilgan, ya’ni 2004 - yilga nisbatan 3 baravar o‘sti<sup>1</sup>. Bunda lizing xizmatlarining asosiy ulushi “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” (46 %) lizing kompaniyasiga to‘g‘ri keladi. Lizing bitimlarni taqsimlanishi 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

2015 - yil yakuniga ko‘ra lizing bitimlarni portfeli.<sup>2</sup>

Lizing beruvchilar	Lizing kompaniyalar	Banklar	Boshka lizing beruvchilar
	76,2 %	23,6 %	0,2 %

Lizingning asosiy kapital investitsiyalaridagi ulushiga keladigan bo‘lsak, 2002 - yilga (2,86 %) nisbatan 2003 - yilda lizingning ulushi 4,80 %ga o‘sgan (9-chizma), 2005 - yilda esa 5 % tashkil etadi.



<sup>1</sup> составлено по материалам газеты «Банковские ведомости», 22.03.2016г.

<sup>2</sup> составлено по материалам газеты «Банковские ведомости», 22.03.2016г.

<sup>1</sup> Марказий Осиёда лизингни ривожлантириш Лойищаси (ХМК), 2014 йил.

ichki lizingni o'sish sur'atiga nisbatan ichki kapital investitsiyalarining o'sish sur'ati yuqoriligi, shuningdek, qonunchilikdagi o'zgarishlarga chet ellik kompaniyalar milliy kompaniyalarga qaraganda tezroq e'tibor qaratganligi bilan bog'liq. Umuman olganda, 2015 - yilni yakuniga respublikadagi barcha lizing beruvchilarning lizing portfeli 88,3 mlrd.. so'mlik 4 mingga yakin bitimdan iborat bo'ldi<sup>1</sup>.

Lizing operatsiyalari bo'yicha tuzilgan shartnomalarni tahlil qilganimizda lizing kompaniyalari taklif qilayotgan obyektlarga bo'lган talab darajasi asosida respublikadagi lizing xizmatlari bozorining asosiy segmentlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bu asosan 10-jadvalda keltirilgan tarmoqlardir.

10-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi 2014 - yil yanvar oyiga lizing  
operatsiyalarining sohalar bo'yicha tarkibi.<sup>2</sup>**

Tarmoq nomi	Lizing operatsiyalari ulushi		
	Jami hajmdagi	Lizing kompaniyalarida (“O'zqishloqxo‘jalikmashlizing”dan tashqari)	Tijorat banklarda
ishlab chiqarish uskunalarini	9,6%	45%	18,0%
avtotransport	3,9%	7%	16,7%
savdo uskunalarini	0,1%		0,3%
qishloq xo'jaligi	75,2%	4%	34,7%
ko'chmas mulk	0,2%		1,2%
tibbiyot	0,9%		5,2%
axborot texnologiyalari	4,5%	22%	8,4%
boshqalar.	5,6%	22%	15,5%
Jami	100%	100%	100%

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, respublikada qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati, avtomobil sanoati, tibbiyot va farmasevtika lizing uchun eng e'tibor talab segmentlardir. Aynan, shu sohalarda lizing faoliyatining faollashuvi kutiladi.

Umuman olganda, lizing tarmog'ini rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishga bir necha yo'naliishlar bo'yicha ta'sir ko'rsatadi:

- lizing kichik biznesning kelgusidagi rivojlanishiga ta'sir etadi, chunki qandaydir sabablarga ko'ra boshqa moliyalashtirish manbalariga ega bo'lman

<sup>1</sup> Лизинг Инфо. Обзор лизингового рынка Узбекистана // Бизнес-вестник Востока, 2014, № 21 (643) 6 с.

<sup>2</sup> Марказий Осиёда лизингни ривожлантириш бўйича ХМК лойиҳа материаллари (2014й.)

kichik korxonalarga o‘z ishlab chiqarishlarini tashkil etish va modernizatsiya qilish imkoniyatini yaratib beradi;

-lizing uzoq, muddatli moliyalashtirishning qo‘srimcha turi bo‘lib, u kapital qo‘yilmalar hajmini oshiradi;

- lizing moliyaviy xizmat ko‘rsatish bozorida qo‘srimcha raqobatni vujudga keltiradi;

- lizingning paydo bo‘lishi bilan moliyalashtirish narxi pasayib, moliyaviy xizmat bozori kengayadi. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda lizing ko‘p vaqtarda asosiy vositalar xarid qilish uchun kredit o‘rniga muqobil vosita bo‘lib xizmat qilgan holda, korxonalarga bank oldidagi qarzdorligini ko‘paytirmaslik imkoniyatini yaratadi;

- lizing uskunalarini sotilishiga yordam beradi. Lizingni paydo bo‘lishi uskunalarini ishlab chiqaruvchi mahalliy kompaniyalarga o‘z uskunalarini sotish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari, makro darajadagi lizing orqali qilinayotgan keng tarmoqli chet el investitsiyalari mamlakat to‘lov balansining passiviga ta’sir qilmaydi va qarzdorning jahon bozoridagi reytingini yomonlashtirmaydi, chunki jahon valyuta fondining tartibiga ko‘ra lizingdan kelib chiqadigan majburiyatlar davlatning tashqi qarzdorlik hajmiga qo‘silmaydi. Shuning uchun ko‘pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat tomonidan lizing qo‘llab-quvvatlanadi.

## **8.2. Bank tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalari**

Lizing xizmatlari bo‘yicha mamlakat qonunchiligining takomillashtirib borilishi tijorat banklari tomonidan o‘tkaziladigan lizing operatsiyalari hajmini o‘sishiga turtki bo‘ldi. 2002 - yilning ikkinchi yarmida tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan lizing xizmatlari hajmi sezilarli ravishda ko‘tarildi. 2001 - yilda lizing loyihibarini eng ko‘p sonini Paxtabank amalga oshirdi. Buning tabiiyligi shundan iboratki, lizing xizmatlariga bo‘lgan talab asosan qishloq xo‘jalik texnikasiga va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish uskunalariga bo‘lgan yuqori talab bilan, ayniqsa fermer xo‘jaliklarni keng tus olishi bilan va ularning asosiy vositalarini yangalanishi zarurligi bilan belgilanadi. Shunga qaramay Paxtabank tomonidan amalga oshirilgan yangi lizing operatsiyalarini miqdori 2002 - yilga nisbatan deyarli ikki yarim baravar qisqardi.

Banklar tomonidan o‘tkazilgan lizing operatsiyalar hajmining o‘sishi, asosan boshqa banklar tomonidan ko‘rsatilgan lizing xizmatlari evaziga ko‘tarildi. Lizing xizmatlari bozoriga yangi ikkita bankning kirib borishi

mamlakat lizing sektorida tijorat banklari lizing operatsiyalarini 2001 - yilga nisbatan 30 % ga o'sishiga olib keldi. 2002 - yilda banklar tomonidan jami 1314 mln. so'mlik 154 yangi lizing loyihalari amalga oshirildi. Bu esa 1,7 mln. AQSH dollariga tengdir.

Shubhasiz tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalarini o'sishiga 2002 - yil 28 - avgustda "Lizing faoliyatlarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ta'sir ko'rsatdi. Ushbu farmon qabul qilinganidan keyin G'allabank va Tadbirkorbank 2002 - yilning ohiriga qadar 323 ming AQSH dollariga teng bo'lgan hajmda lizing operatsiyalarini amalga oshirdi. Prezident Farmoni lizing xizmatlarini amalga oshirishni bank krediti bo'yicha belgilangan soliqqa tortish sharoitlari bilan tenglashtirib berdi. Bunday holat o'z navbatida tijorat banklari uchun lizing operatsiyalar bo'yicha olinadigan daromadlarni ko'paytirish imkoniyatini ochib berdi (11-jadval).

11-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 1996-2013 yillardagi lizing operatsiyalari<sup>1</sup>

Bank nomi	Amalga oshirilgan yil	Lizing operatsiyalari		Lizing obyektlari
		soni	summa, ming AQSH dol.	
O'zR TIF MB	1996	4	378 568	samolyotlar
Paxtabank	1998	68	2 677	qishloq xo'jalik texnikasi, avtotransport
O'zuyjoy- jamg'armabank	1998	30	1 129	avtotransport, texnologik asbob- uskunalar
Savdogarbank	1999	5	769	qishloq xo'jalik texnikasi
"Ipak yo'li" banki	2000	45	778	avtotransport, kompyuterlar, ko'chmas mulk
Trastbank	2000	1	138	texnologogik asbob-uskunalar
SABSiR shu'ba bo'limi	2000	3	888	texnologogik asbob-uskunalar
Aloqabank	1998	5	160	Poligrafiya asbob-uskunalar, fotolaboratoriya
"Turkiston" banki	2000	6	71	avtotransport
Tadbirkorbank	2002	103	220	qishloq xo'jalik texnikasi
/allabank	2002	7	103	qishloq xo'jalik texnikasi, avtotransport

<sup>1</sup> [www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Марказий Осиёда лизингни ривожлантириш Лойихаси материаллари, 2015

Banklar tomonidan amalga oshirib kelinayotgan har bir lizing shartnomalarining o‘rtacha qiymati 15-20 ming AQSH dollariga teng bo‘lgan miqdordan yuqori emas. Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish banki shu’basi esa 395 ming AQSH dollarlik bitta loyihani amalga oshirdi.<sup>2</sup> Lizing loyihalarining katta qismi qishloq xo‘jaligida amalga oshirilib kelinmoqda.

#### **8.4. Lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalari**

Bugungi kunda O‘zbekistonning lizing bozorini “O‘zavializing”, “O‘zlizinginterneyshnl AJ”, “O‘zkeysagrolizing”, “Baraka” ULK, Osiyo-Yevropa trast kompaniyasi va boshqalar namoyon etadilar. Mazkur lizing kompaniyalarining asosiy vazifasi lizing doirasida tovarlarning eksport salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish uchun lizing xizmatlarining keng assortimentini taklifdan iborat. Bu kompaniyalar biznesning xilma-xil yo‘nalishlari bo‘yicha turli lizing xizmatlarini ko‘rsatadilar. Ularning faoliyatida eng ko‘p uchraydigan lizing turi moliyaviy lizingdir. Kompaniyalar faoliyatida eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarga alohida imkoniyatlar yaratib berilmogda. Ushbu kompaniyalar lizing obyektini tanlash mas’uliyatini o‘z zimmalariga olmaydilar (Osiyo-Yevropa trast kompaniyasi bundan mustasno). Bu masalada mijozlarga “Texnoinvest” qo‘shma korxonasi, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, injiniring va konsalting firmalari kabi bozor tuzilmalari yordam ko‘rsatishi mumkin. Lizing muddati bir yildan yetti yilgacha bo‘lishi mumkin. Eng past % stavkasi Osiyo-Yevropa trast kompaniyasiga (OETK) to‘g‘ri keladi. Buning sababi shuki, OETK Kanadaning “Raanani xolding” xususiy kompaniyasining shu’ba korxonasi, uning Nizom fondini mazkur kompaniya tashkil qilgan, ya’ni OETK boshqa moliya-kredit tuzilmalaridan kredit resurslari jalb qilmaydi. Bundan tashqari, OETK lizing oluvchilarga texnikani o‘zi topib beradi va narxidagi farq hisobiga lizing % stavkasini juda past belgilaydi. Boshqa lizing kompaniyalariga kelsak, ularda dastlabki o‘z kapitali yetarlicha katta bo‘limganligi tufayli, lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun qarz mablag‘laridan foydalanishlari to‘g‘ri keladi. Shu sababli, ularning lizing % stavkalari yuqori. Har bir lizing kompaniyasining lizing berish

---

<sup>2</sup> Гозибеков Д.Г. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти - Т.: Фан ва технология, 2004, 223б.

shartlari ham turlicha.

Masalan, “O‘zbeklizing Interneyshnl AJ” xalqaro kompaniyasi kichik biznes namoyondalarining tadbirkorlik faoliyatini raviojlantirishni rag‘batlantirish, bozorni yuqori sifatli xalq iste’mol tovarlari va ishlab chiqarish-texnik yo‘nalishdagi mahsulotlar bilan to‘ldirish, tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘liq qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 - yil 5 - yanvardagi 6-sonli qarori bilan tuzildi. Kompaniya yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyati bo‘lib, uning ta’sischilari aksiyadorlik kapitali 15 % bo‘lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, aksiyadorlik kapitali 35 % bo‘lgan MEYBANK (Malayziya) va O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki hisoblanadi. Nizom jamg‘armasi 4 mln. AQSH dollariga teng. Bundan tashqari, har bir ta’sischi kompaniyaga 7 yil muddatga 5 mln AQSH dollari miqdorida kredit berib, bu jami 20 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan lizing kompaniyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga lizing doirasida ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanishni uzoq muddatli moliyalashtirish;
- keng lizing xizmatlari doirasini taqdim etish;
- respublikada lizing operatsiyalarini amalga oshirish uslubiyati va lizing operatsiyalari bozorini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Bu vazifalarni yechish maqsadida “O‘zbeklizing Interneyshnl AJ” kompaniyasi tomonidan davlat va tijorat muassasalari, tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar viloyat va respublika palatalari, respublika va viloyat biznes-inkubatorlari, ishbilarmonlik aloqalari Markazi, shuningdek, viloyatlar va yirik shaharlar hokimiyatlari bilan aloqalar o‘rnatilgan. Bugungi kunda kompaniya tomonidan 40 dan ortiq lizing shartnomalari moliyalashtirilgan. Lizing muddati 2 yildan 5 yilgacha bo‘lishi mumkin. Lizing muddati tugagach, bu moliyaviy lizing bo‘lganligi uchun asbob-uskunalar lizing oluvchining xususiy mulkiga aylanadi.

“O‘zbeklizing Interneyshnl AJ” kompaniyasidan farqli ravishda “O‘zkeysagrolizing” qo‘shma korxonasi asosan qishloq xo‘jalik texnikasi lizingiga ixtisoslashgan. “O‘zkeysagrolizing” o‘zbek-amerika qo‘shma korxonasi 1997 - yilning 27 - fevralida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

---

<sup>1</sup> [www.uzbekleasing.com](http://www.uzbekleasing.com).

Mahkamasining 111-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Uning nizom kapitali 5 mln AQSH dollariga teng. Qo'shma korxonaning ta'sischilarini nizom kapitalidagi ulushi 51 % yoki 2550000 AQSH dollari bo'lgan "Keys kredit xolding" (KXX) va nizom kapitalidagi ulushi 49 % yoki 2450000 AQSH dollari bo'lgan O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi hisoblanadi. "O'zkeysagrolizing" qo'shma korxonasi 1997 - yilda 10 - sholi o'ravchi "Keys" kombaniyalarini importqilgan va Xorazm viloyatidagi uchta MTP DAJga lizingga bergen. 1998 - yilda korxona 25 ta kombayn yetkazib bergen bo'lsa, ulardan 13 tasi boshqoli g'alla ekinlari o'rim mavsumida ekspluatatsiya qilingan. Import qilingan kombaynlar qiymati 5349664 AQSH dollari bo'lib, nizom kapitali to'laligicha zarur texnika importi uchun foydalanilgan.

Lizing kompaniyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan zamonaviy texnikalarni lizing shartlarida 20 %ini oldindan to'lash va qolgan 80 %ini 5 yil ichida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan beradi. Lizing oluvchidan kelib tushuvchi lizing to'lovleri va oldindan to'langan pul miqdori konvertasiya qilingandan so'ng zarur texnikalar importiga sarflanadi.

**"Baraka" universal lizing kompaniyasining** tajribalari ham katta qiziqish uyg'otadi. "Baraka" ULK O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 - yil 4 - noyabrdagi 427-sonli "O'zbekiston bank tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks dastur"ga asosan ta'sis etilgan. Kompaniyaning nizom jamg'armasi to'laligicha O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi hisobiga shakllantirilib, 200 mln. so'mni tashkil etadi. 1998 - yilda Yevropa lizing kompaniyalari assotsiatsiyalari federatsiyasi (Leaseurope) ijroiya qo'mitasi va raislar qo'mitasi "Baraka" ULKga muxbir-a'zo maqomini berdi.

O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi Kengashi rahbariyati topshirig'iga binoan kompaniya o'zining asosiy faoliyat yo'naliшlarini quyidagicha belgilagan:

- ishlab chiqarish vositalarini respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga yetkazib berish bo'yicha lizing operatsiyalarini amalga oshirish vositasida uzoq va qisqa muddatli moliyalashtirishni amalga oshirish;

- ilg'or texnologik jarayonlar va asbob-uskunalarni izlab topish va harakatlantirish, shuningdek, O'zbekiston sharoitlarida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlili;

- lizing operatsiyalari amalga oshirish va ixtisoslashgan lizing bo'linmalarini tashkil etishda banklarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- ko‘p kanalli moliyalashtirishni ko‘zda tutuvchi lizing loyihalarini banklar bilan birgalikda amalga oshirish;
- lizing loyihalarini investitsiyalash uchun kredit va qarz mablag‘larini jalb qilish.

O‘z faoliyatini boshlagandan beri kompaniya mutaxassislari tomonidan umumiy qiymati 15271 mln. so‘m bo‘lgan 69 ta lizing loyihasi moliyalashtirilgan. Lizing jarayonlarini amalga oshirish jarayonlarida, shuningdek, marketing tadqiqotlari tufayli kompaniyalari tomonidan bir qonuniyat aniqlandi. Unga ko‘ra mamlakatimizdagi lizing oluvchilar lizing sharoitlarida mahalliy xom-ashyo bilan ishlovchi mini-texnologiya va asbob-uskunalarni (go‘sht, sut, meva, sabzavot, terini qayta ishalsh va hokazo), shuningdek, “UZDAEWOOavto” qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan avtomobillarni lizingga olishga moyillik bildiradilar.

Loyihalarni ko‘rib chiqishda mutaxassislar mahalliy xom-ashyoni qayta ishlash, ularni tayyor raqobatbardosh mahsulotga aylantirish, faoliyati import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan rentabelli yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi, iste’mol bozorini birlamchi zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish bilan bog‘liq loyihalarni afzal ko‘radilar.

Erishilgan natija va tajribalar kompaniyalar uchun o‘zlarining faol va mahsuldor faoliyatini davom ettirishga turki vazifasini bajaradi. Kompaniyalarning respublikaning barcha mintaqalarida o‘z vakolatxonalarini tashkil qilish bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Bundan tashqari, lizing bo‘yicha mutaxassislari lizing kompaniyalari assotsiatsiyasi va O‘zbekistonda lizingni rivojlantrish fondini tashkil qilishda ishtiroy etishni rejalashtirmoqdalar. Bularning barchasi, lizing faoliyatini samarali amalga oshirib, jo‘shqin rivojlangan holda O‘zbekiston uchun yangi lizing turlarini joriy qilib O‘zbekistonning moliyaviy bozorida o‘z o‘rnini topganligini ko‘rsatadi.

### **8.5. Lizing xizmatlari bozorni muammolari**

Hozirgi paytda, kompaniyalar lizing faoliyatini amalga oshirish davomida ko‘pgina muammolarga ham duch kelmoqdalar. Ularning eng asosiyllari:

- bozor munosabatlari sharoitida respublikamizda lizing munosabatlarini rivojlantirish va keng yo‘lga qo‘yish uchun xo‘jalik subyektlarining to‘lov qobiliyatini kuchaytirish, turli taxlikalarni oldini olish, qayta moliyalash stavkalarini pasaytirish kabi muammolarni qo‘yadi;
- lizing kompaniyalarida yetarli darajada dastlabki kapitalning yo‘qligi;

- lizing sohasini axborot bilan ta'minlash tizimining yo'qligi;

• lizing bozori infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi. Xorijiy tajribaning ko'rsatishicha, lizing kompaniyalarining raqobat sharoitida samarali faoliyati ko'p jihatdan rivojlangan infratuzilma majmuiga bog'liq. Samarali hayotiy lizing loyhalarini amalga oshirishga ko'maklashadigan konsalting kompaniyalari va firmalarini, boshqa vositachilik tashkilotlarini tuzish zarur. Lizing kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli shartlar bilan moliyaviy resurslar berib turadigan maxsus fondlar bo'lishi lozim;

• lizing faoliyatini kengaytirish maqsadida lizing kompaniyalari uchun tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash imkoniyatlarini o'zlariga havola etish, amortizatsiya muddatlarini aniqlashda, amortizatsiya ajratmalarini ishlatishda erkinliklar yaratish asosiy masalalardir;

• ishonchli lizing oluvchini to'g'ri tanlash, ular taklif etadigan loyhalarining hayotiyligi va samaradorligini aniqlash lizingdan foydalanish amaliyotidagi asosiy muammolardan biridir. Shu bilan birga, lizing oluvchining kredit qobiliyatini aniqlash va lizing bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'p jihatdan lizing operatsiyalarining samaradorligini oldindan belgilab beradi. Bu masalalarni to'g'ri hal qilish uchun xalqaro tajribaga asoslanib O'zbekistonidagi iqtisodiy vaziyatni e'tiborga olib ish tutish lozim;

• moliyalashtirish usulini to'g'ri tanlash, xavf-xatarlarni boshqarish, bartaraf etish tizimining rivojlanmaganligi, qonun hujjalariiga va o'tish iqtisodiyotining o'zgaruvchan sharoitlariga asoslanib, lizing bitimlarining samaradorligini to'g'ri baholash ham muhim muammodir;

• lizing faoliyatida marketing darajasining pastligi. Bu lizing kompaniyalari faoliyatida eng dolzarb ichki muammolardan biridir.

• lizing kompaniyalari O'zbekiston hududining turli burchaklarida tashkil etilishi zarurdir. Lizing kompaniyalariga to'lanadigan vositachilik yig'imlari, mukofotlarni belgilash uchun yo'riqnomalar ishlab chiqish bozorning mazkur segmentidagi hal etilmagan muammolardan hisoblanadi.

- Lizing faoliyatida yuqori malakali mutaxassislarining etishmasligi.

Mazkur muammolarning hal qilinishi O'zbekiston bozorlarida lizingga keng yo'l ochadi.

## **8.6. Lizing xizmatlari bozorini rivojlanish istiqbollari**

O‘zbekiston iqtisodiyoti real sektorini rivojlantirishga hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatda lizing xizmatlarini yanada rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

O‘zbekistan Respublikasi qonunchilikda kiritilgan o‘zgartirishlar bank krediti va asosiy vositalarga safarbar etiladigan investitsiyalarni boshqa turlari bilan bir qatorda lizingni investitsion mohiyatini anglatadi. Bu o‘zgartirishlar O‘zbekistonda lizingni rivojlantirishni mustahkam zaminini yaratib berdi. Bular asosida esa, ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun, lizing qulay hamda nisbatan jalb etuvchan moliyaviy vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligiga ishonch hosil qilindi. Amalga oshirilgan o‘zgartirishlar, nafaqat mavjud bo‘lgan lizing kompaniyalarini, balki mamlakatimiz lizing sektoriga tashqi va ichki investitsiyalar oqimi o‘sishi evaziga yangidan tashkil etiladigan kompaniyalar faoliyatiga ham o‘zining ijobiyligi ta’sirini ko‘rsatdi. Chet el kapitali oqimining o‘sishi lizing kompaniyalarini xizmatlari doirasini kengaytirish va operatsiyalar hajmini oshirish yo‘li bilan ular kapitallashuvi masalalariga ko‘maklashadi. O‘zbekistan tijorat banklari ham lizing xizmatlari hajmini va lizing sektorini moliyalashtirishni kengaytiradi.

Markaziy Osiyoda lizingni rivojlantirish loyihasi ekspertlari tomonidan 2003 - yil boshlarida O‘zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiqoti amalga oshirildi. Tadqiqot olib borilishi jarayonida O‘zbekistonning barcha hududlaridaga turli mulkchilik shaklidagi 192 korxona so‘rovdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, 2003 - yilda mamlakatimizda kichik biznesni qondirilmaydigan lizing xizmatlari talabi 15 mln. AQSH dollariga yaqindir.<sup>1</sup>

Mamlakat ishlab chiqarish mehnat resurslarini asosiy qismi qishloq xo‘jalik sektoriga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan eng asosiy zaruriyat qishloq xo‘jalik sektoriga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan eng asosiy zaruriyat qishloq xo‘jalik texnikasi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalariga to‘g‘ri kelishi kuzatiladi. Yengil va oziq-ovqat sanoati uskunalarini lizingiga bo‘lgan talab ham yuqori darajada. Savdo uskunalarini lizingga o‘zlashtirilmagan bo‘lib, uning kelajagi juda ham samarali bo‘lishi shubxasizdir. E’tiborni jalb qiladigan masalalardan yana biri shaxsiy avtotransport, uzoq, muddatli iste’mol buyumlari lizingini rivojlantirish masalalaridir.

---

<sup>1</sup> Анализ рынка лизинга в Центральной Азии, май 2003, 1Р8, 17 бет.

## **Qiska xulosalar**

Iqtisodiyotning holati investitsiya siyosati va uni amalga oshirish mexanizmi, shuningdek, davlatning bu sohada ro'y berayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatish shakllariga yangicha yondashuvlar izlab topish zaruratini talab qiladi. Lizing bozori infratizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Hukumatining bozor dasturida ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonning lizing bozorini "O'zavializing", "O'zlizinginterneyshnl AJ", "O'zkeysagrolizing", "Baraka" ULK, Osiyo-Yevropa trast kompaniyasi va boshqalar namoyon qiladilar. Bu kompaniyalarning barchasi o'z faoliyatini boshlagandan beri biznesning turli yo'nalishlari bo'yicha turli xil lizing xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Erishilgan natija va tajribalar kompaniyalar uchun o'zlarining faol va mahsuldor faoliyatini davom ettirishga turtki vazifasini bajaradi. Kompaniyalar vakolatxonalarining respublikamiz barcha mintaqalarida tashkil etishlari davom ettirilmoqda.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Tadbirkorlikning yangi turi sifatida lizingning rivojlanish miqqosi qanday?
2. O'zbekistonda investitsiya bozorining holatini tavsiflab bering.
3. Bozor iqtisodiyotida ro'y berayotgan jarayonlarga ta'sir ko'rsatishning qaysi usullaridan foydalanish zarur?
4. Lizing bozori infratuzilmasini shakllantirishning asosiy yo'lari haqida gapirib bering.
5. Respublikamizda lizingni huquqiy jihatdan ta'minlash asosida yotuvchi hujjatlarni aytib bering.
6. Respublikamiz hududida faoliyat ko'rsatayotgan lizing kompaniyalarini sanab bering.
7. Respublikamizda lizing kompaniyalari lizingning qanday usullaridan foydalanadi?
8. Lizing xizmatining asosiy segmentlarini ajratib ko'rsating.
9. Lizing xizmatlari bozorining muammolari to'g'risida gapirib bering.
10. Lizing xizmatlari bozorining rivojlanish istiqbollarini ko'rsatib bering.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Фозибеков Д.Ф. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Ўкув қўлланма— Т.: Фан ва технология, 2004.

2. [www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Проект по развитию лизинга в Центральной Азии 2005.
3. Мустафаев З. “Узбеклизингинтернейшнл АО”: Рынок лизинга расширяется. //Новости Узбекистана 2002, № 43 (118), 1-26.
4. Орлова Т. Все о лизинге за “круглым столом” // Народное слово, 2004, №44
5. Лизинг Инфо.Лизинговые компании Узбекистана //Бизнес-вестник Востока, 2002, №42 (560), №43 (561)
6. [www.uzbekleasing.com](http://www.uzbekleasing.com).

## **IX bob. LIZINGNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI**

### **9.1. Lizing samaradorligini iqtisodiy baholash zarurati**

Samaradorlik muammosi iqtisodiy nazariyaning asosiy muammosi bo‘lib, u jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun cheklangan resurslarni qo‘llash yoki ulardan eng yaxshi foydalanish yo‘llarini o‘rganadi. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanayotgan cheklangan resurs birliklari bilan ishlab chiqarish jarayoni natijasida olinuvchi mahsulot miqdori o‘rtasidagi aloqani tavsiflaydi. Har bir jamiyat, istalgan iqtisodiy agentlar resurslardan samarali foydalanishga intiladi. Ular cheklangan resurslar yordamida tovar va xizmatlarni maksimal darajada ishlab chiqarishga harakat qiladilar.

Lizing asbob-uskunalaridan foydalanish bo‘yicha investitsiya loyihamalarini iqtisodiy baholash mablag‘larni kiritishning muqobil variantlarini tanlashni asoslash jarayonida muhim o‘ringa ega. Loyiha samaradorligini bu loyihamalarni tahlil qiluvchi va lizing beruvchiga asbob-uskunalarini sotib olish moliyaviy resurslar berish masalasini hal qiluvchi banklar, investitsiya jamg‘armalari va boshqa moliyaviy institutlar tahlilchilarigina to‘g‘ri baholay oladi deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lur edi.

Lizing beruvchini lizingga olinuvchi asbob-uskunalardan foydalanish samaradorligini isbotlab bermaguncha investitsiya loyihasining boshqa barcha qulay shart-sharoitlari loyihami amalga oshirisha olmaydi. Shu sababli korxona iqtisodiy samaradorlik eng maksimal darajada bo‘luvchi loyihami ishlab chiqishi lozim. Bunga nafaqat lizing olish, balki lizing asbob-uskunalaridan foydalanish tufayli olinuvchi foyda ham bog‘liq bo‘ladi.

### **9.2. Lizing samaradorligini baholash usullarini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi sabablar**

Lizing samaradorligini baholashni iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri va eng ishonchli amalga oshirish bitim ishtirokchilari oldida turgan eng murakkab vazifa bo‘lib, bunga quyidagilar **sabab** bo‘ladi:<sup>1</sup>

- korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi investitsiya strategiyasini tanlash;

<sup>1</sup>Газман В.Д. “Лизинг. Теория и практика-М.:2000, 3086.

- joriy narxlarda hisob-kitob qilish;
- inflyatsiya tufayli lizing investitsiya loyihasi doirasida ishlab chiqariluvchi mahsulot narxi, ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishini bashorat qilish muammosi, loyiha muddati uzun (5-7 yil) bo'lganda juda murakkab vazifa hisoblanadi;
- u yoki bu tarmoqqa kirib borishda iqtisodiy cheklashlarni hisobga olish;
- boshlang'ich kapital darajasi;
- o'zini qoplash muddatining uzoqligi;
- foydaga erishishdagi noaniqliklar va hokazo.

Investitsiya loyihamini moliyaviy-iqtisodiy baholashni amalga oshirish shartlari va usullaridan foydalanish muammosini ko'rib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Lizing loyihamini moliyaviy-iqtisodiy baholash uchun mablag'larni ishlab chiqarishga kiritish loyihamini tahlil qilish va ishlab chiqishning standart usullaridan foydalaniladi.
2. Investitsiya loyihami bo'yicha hisob-kitoblari juda murakkab bo'lib, mavjud kompyuter dasturlari bashorat qilishdagi qiyinchiliklar sababli ishonchlilikni ta'minlay olmaydi.
3. Investitsiya loyihamini baholash natijalarining ishonchlilikiga erishishda hisob-kitoblarni doimiy narxlarda olib borish yordam berishi mumkin.
4. Investitsiya loyihasini iqtisodiy baholashning lizing oluvchi uchun eng ma'qul usulini tanlash lizing shartlarida asbob-uskunalar sotib oluvchi korxonalarining investitsiyalar miqyosiga bog'liq. Bir martalik va miqdori eng katta lizing bitimi uchun murakkab va qimmat tadqiqot va hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurati yo'q. Moliyaviy-iqtisodiy baholashning investitsiya loyihasini lizing oluvchining ehtiyojlar darajasini baholash imkonini beruvchi soddalashtirilgan uslubiyatini qo'llash kifoya.

### **9.3. Lizingning iqtisodiy samaradorligini baholashni asosiy usullari**

Muayyan lizing operatsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun iqtisodiy adabiyotda hisob-kitoblarning bir necha xil variantlari tavsiya qilinadi. V.Maslennikovning fikricha, zarur hisob-kitoblarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirish zarur:

1. Kredit shartlarida lizing xaridining moliyaviy samaradorligini taqqoslash uchun **lizingni moliyalashtirish stavkalari hisob-kitobi**, quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$C = \frac{(LP - A)}{[0,5 \times (CP - Co)] \times 100}, \quad (20)$$

bu yerda: S – lizingni moliyalashtirish stavkalari (soliq to‘lanmasdan avval %larda); A – lizing obyektining yillik amortizatsiyasi; LP – lizing to‘lovi;

Sp – lizing obyektining boshlang‘ich qiymati; So – lizing muddati tugaganda lizing oluvchining lizing obyekti sotib olinuvchi qoldiq qiymati.

2. **Lizingdan olinuvchi o‘rtacha foyda normasi hisob-kitoblari** quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$NPL = \frac{[D - (LP - P)]}{[0,5 \times (CP + Co)]}, \quad (21)$$

bu yerda: Npl – lizingda foyda normasi; D – yillik yalpi daromad;

P – lizing beruvchiga to‘lanuvchi %lar miqdori.

A. Smirnov lizing samaradorligini baholashning amerikacha uslubiyatidan foydalanishni taklif qiladi. Hisob-kitoblar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- bitimni moliyalashtirish stavkalari variantlarini hisoblash;
- mulkni kredit shartlarida va lizingga sotishda mulk qiymatini solishtirish;
- ushbu mulk egasining uni ekspluatatsiya qilishdan kelib tushuvchi tushumni bu mulkdan lizing shartlarida foydalanishdan olinuvchi foyda miqdori bilan solishtirish.

Masalan, moliyaviy lizing stavkalarini hisoblash eng qulay variantni aniqlash maqsadida kreditorlar taklif qilayotgan sharoitlarni lizing taklifi sharoitlari bilan solishtirish uchun amalga oshiriladi. Hisob-kitoblar quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I_r = \frac{A + P_1}{1/2(C_i + Cooc)}, \quad (22)$$

bu yerda:   
 $P_1$  – har yillik lizing to’lovleri  
 $A$  – lizing beruvchining moliyaviy xarakterga ega bo’lmagan xizmatlar uchun to’lovlarni chiqarib tashlagan holda har yillik mulk amortizatsiyasi  
 $C_i$  – mulkning boshlang‘ich qiymati  
 $Cooc$  – ooldiq qiymati

Ba'zi hollarda jahon amaliyotida diskontlashning korrektirovkalangan stavka usulidan foydalaniladi. U lizingda naqd pul oqimini diskontlashning korrektirovkalangan stavkasiga diskontlashga asoslanadi. Olingan summa sof joriy qiymat deb ataladi. Sof joriy qiymatni aniqlashda diskontlashning quyidagi formulasi qo'llanadi:

$$TC = BC \times Kt , \quad (23) \quad \text{bu yerda } TS - \text{joriy qiymat}$$

BS – kelajakdagqiymat

Kt – diskontlash koeffitsiyenti

$$O'z navbatida \quad Kt = \frac{1}{(1+E)^{t-1}} , \quad \text{bu yerda: } E - \text{vaqt bo'yicha keltirish}$$

normativi (diskontlash %i); t – hisob-kitob yili raqami.

Inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Kt = 1 / (1 + E + f)^{t-1} \quad \text{bu yerda: } f - \text{inflyatsiya dariasi.}$$

Sof joriy qiymatni aniqlashda har bir holat uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- soliq imtiyozlari;


- egalik huquqi, obyekt xususiy mulk bo'lmasa, u holda amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish mumkin emas;

- obyekt sotib olinadigan bo'lsa, firma texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini to'laydi, lizingda esa bu har bir kelishuv uchun alohida hal qilinadi;

- qonunda boshqa holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, lizing oluvchi qoldiq qiymatiga egalik huquqini yo'qotadi.

#### **9.4. Lizing operatsiyalarini umumiylarini narxini aniqlash usuli**

Lizingga beriluvchi mulk qiymatini uni kredit asosida sotib olishdagi qiymati bilan solishtirish quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:



bu yerda:  $S_1$  – lizing bo'yicha qiymati

$S_{r2}$  – investitsiyalarga soliq krediti

$R_1$  – lizing bo'yicha har yillik to'lovlar

D – lizing oluvchining chegirmalari

$t$  – lizing shartnomasi amal qilish muddati

$T_3$  – daromad solig'i

Sost – obyektining qoldiq qiymati

bu yerda:  $S_k$  – kredit asosida xarid

qiymati

$R_1$  – % lar bo'yicha to'lovlar

So – tovar qiymati

$T_1$  – daromad solig'i

$T_2$  – jadal amortizatsiya bo'yicha soliq krediti

## **9.5. Lizing bitimini foyda normasini aniqlash usuli**

Lizing bo‘yicha foydalanimuvchi mulkdan oluvchi foyda miqdorini uni sotib olib ekspluatatsiya qilishdan kelib tushuvchi tushumlar bilan solishtirishda quyidagilarga amal qilish zarur:<sup>1</sup>

- bo‘lajak lizing obyektini xarid qilish varianti uchun kapital kiritish hajmini baholash amalga oshiriladi;
- lizing to‘lovlari mulkni qarzga sotib olish uchun jalb qilingan %larni to‘lashning baholash qiymatiga kamaytiriladi;
- mulkni sotib olish va lizingga olish asosida foydalanishdan olinuvchi jami daromadlar solishtiriladi.

Bunda lizing oluvchi lizing to‘lovlari bo‘yicha % to‘lovlari mulkni sotib olish uchun qarz olish bo‘yicha % to‘lovlariga o‘xshashligi sababli o‘z foydasini yalpi daromadni o‘z ichiga % to‘lovlarini kiritmagan lizing to‘lovlariga kamaytiradi, lizing beruvchi esa o‘z foydasini amortizatsiya summasiga kamaytiradi. Yuqoridaqlarni hisobga olgan holda hisob-kitoblar quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:

*Mulkni sotib olishda*

$$N_1 = Iy + E + A_1 + C_1 \quad (26); \text{ bu yerda}$$

$N_1$  – mulkka egalik qilishda foyda normasi;  
 $Iy$  – yillik yalpi daromad;  
 $E$  - ekspluatatsiya xarajatlari;  
 $A_1$  – yillik o‘rtacha amortizatsiya  
 $Si$  – mulkning boshlang‘ich qiymati

*Lizingda*

$$N_{\text{Л}} = \frac{Iy - (\Pi_1 - S)}{1/2(Ci + Cocm)}; \quad (27) \text{ bu}$$

yerda  
 $N_{\text{Л}}$  – lizingda foyda normasi;  
 $Iy$  – yillik yalpi daromad;  
 $\Pi_1$  – yillik lizing to‘lovlari;  
 $S$  – lizing beruvchining %lar summasi;  
 $Ci$  – qoldiq qiymati;  
 $Si$  – mulkning boshlang‘ich qiymati

Olingan natijalarning solishtirma tahlili asosida u yoki bu variant foydasiga mos keluvchi bahoni berish mumkin.

## **9.6. Asbob-uskunalarni lizingga va kreditga olishni solishtirma tahlil qilish uslubiyati**

Loyihani moliyaviy ta’minalash usullarini izlab topishda tadbirkor investitsiyalashning turli variantlari solishtirma tahlilini amalga oshiradi. Quyida

---

<sup>1</sup> Горемыкин В.А. “Лизинг” М.: “Дашков и К”, 2003, 299 с.

asbob-uskunalarini lizing va kredit shartlarida sotib olishning solishtirma tahlil uslubiyatlaridan biri keltirilgan (12-jadval).

12-jadval

Kreditlash variantlarini baholash

(ming so‘mda)

	Ko‘rsatkichlar	Kredit	Lizing
1.	Sotib olinayotgan asbob-uskunalar qiymati	10145,4	10145,4
2	Asbob-uskunalarini sotib olish uchun kredit miqdori	21711,156	10652,67
3.	Kredit uchun to‘lov(kredit bo‘yicha yiliga 38% stavka; lizing bo‘yicha yiliga 25 % bank krediti)	11565,756	7609,05
4.	Lizing kompaniyasining yuklama xarajatlari uchun to‘lovlar, yiliga 24% hisobidan	-	7304,688
5.	Ssuda bo‘yicha 35% stavkali soliq	10652,67	-
6.	Kredit bo‘yicha jami xarajatlar summasi	54074,982	-
7.	Lizing bo‘yicha jami xarajatlar summasi	-	35711,808
8	Iqtisodiy samara	18363,174	-
9	Samaradorlikni % ko‘rinishida baholash	151,4	100

**Hisob-kitob va belgilashlar:**

1. 3 yilga kredit uchun foiz to‘lovlar 10145,4 \* 38% \* 3 = 11565,756, lizingda esa – 10145,4 \* 25 \* 3 = 7609,05 ga teng bo‘ladi.

2. 35% soliq stavkasi bo‘yicha to‘langan soliq miqdori (10145,4 \* 35% \* 3 ) 10652,67 ga, lizing beruvchiga yuklama xarajatlar 7304,688 (10145,4 \* 24% \* 3)ga teng bo‘ladi.

3. kredit bo‘yicha jami xarajatlar 54074,982 (str.1 + str.2 + str.3 + str.4) ga teng bo‘ladi.

4. lizing bo‘yicha jami xarajatlar – 35711,808 (str.1 + str.2 + str.3 + str.4).

5. mijoz tasarrufida qoluvchi foyda miqdori(str.8 = str.6 – str.7).

12-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, korxonaning (lizing oluvchining) lizing mexanizmidan foydalanish hisobiga tejab qolgan pul mablag‘lari 54074,982 – 35711,808 = 18363,174 ming so‘mga teng bo‘ladi.

**Qisqa xulosalar**

Samaradorlik muammosi iqtisodiy nazariyaning asosiy muammosi bo‘lib, u jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun cheklangan resurslarni qo‘llash yoki ulardan eng yaxshi foydalanish yo‘llarini o‘rganadi. Lizing asbob-uskunalaridan foydalanish bo‘yicha investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholash mablag‘larni kiritishning muqobil variantlarini tanlashni asoslash jarayonida muhim o‘ringa ega.

Investitsiyalash usullari, investitsiya dinamikasi va turli xil mablag' manbalari nisbatini tanlashni korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi pozisiyalaridan amalga oshirish zarur. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi statistik va dinamik hisob-kitob usullari yordamida baholanadi.

Lizing loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholash uchun mablag'larni ishlab chiqarishga kiritish loyihalarini ishlab chiqish va tahlil qilishning standart usullaridan foydalaniladi. Mavjud uslubiy ishlanmalar faqat lizing beruvchining manfaatlariga yo'naltirilgan.

Ba'zi hollarda jahon amaliyotida diskontlashning korrektirovkalangan stavka usulidan foydalaniladi. U lizingda naqd pul oqimini diskontlashning korrektirovkalangan stavkasiga diskontlashga asoslanadi. Olingan summa sof joriy qiymat deb ataladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Samaradorlik tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Lizing samaradorligini baholash usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarini aytib bering.
3. Lizing samaradorligining qaysi asosiy ko'rsatkichlarini bilasiz? Ularni sanab bering.
4. Diskontlash usuli nima va u qanday hisoblanadi?
5. Sof joriy qiymatni hisoblashda qaysi omillarni hisobga olish zarur? Ularni tavsiflab bering.
6. Foydadan olinuvchi o'rtacha normani hisoblang.
7. Lizing bitimini foyda normasini aniqlash usuli to'g'risida gapirib bering.
8. Lizingning iqtisodiy samaradorligini baholashni asosiy usullarini yoritib bering.
9. V.Maslennikovning fikricha, hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar?
10. Asbob-uskunalarni lizingga va kreditga olishni solishtirma tahlil qilib bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Киркоров А. Методы определения эффективности финансового лизинга по сравнению с кредитом // Лизинг ревю – 2000 - № 5/6
2. Газман В.Д. Лизинг. Теория и практика-М.:2000.
3. Горемыкин В.А. Лизинг.- М.: “Дашков и К”, 2003.
4. Лещенко М.И. Основы лизинга.- М.: 2001.

## **X bob. QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDA LIZINGNING ROLI VA AHAMIYATI**

### **10.1. Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida lizing munosabatlarini qo‘llash zarurati**

Narxlarning erkinlashuvi, sanoatning qayta ishslash va resurslar bilan ta’minalash tarmoqlari monopoliyasi oqibatida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasiga islohot yillarida katta putur yetkazildi.

Bozor munosabatlarining liberal modeli amalda agrosanoat majmuasini og‘ir, inqiroz sharoitlariga olib keldi. Bu bir tomondan, qishloq xo‘jalik texnikalarining barcha iste’molchilari to‘lov layoqatining pastligi (potensial ehtiyojlar o‘sgan holda), ishlab chiqarishning pasayishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan moliyaviy barqarorlikning yo‘qligi, yo‘qotishlar va iqtisodiy inqirozlar, tarmoqlararo aloqalarning uzilishi, hamkorlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning buzilishi edi. Qishloq xo‘jaligining mashina va asbob-uskunalarining asosiy turlari bilan ta’minalanganligi normativ darajaning 40-60 %, ba’zi turlar bo‘yicha esa 15-20 % ini tashkil etdi. Mavjud texnikalarning asosiy qismi xizmat qilish muddatini o‘tab bo‘lgan, mashina-traktor parklarini ishga yaroqli holatda saqlash uchun katta xarajatlar sarflanishi lozim edi. Natijada respublikamizda traktorlar va hosilni yig‘ish texnikalari parki qisqarib bordi.

Shu munosabat bilan respublika hukumati tomonidan qishloqni zamonaviy texnika bilan ta’minalash bo‘yicha bir qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi, ya’ni lizing faoliyatini tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Qishloq xo‘jaligida lizingni qo‘llashning obyektiv zaruratini qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, subyektlar o‘rtasida moslashuvchan xo‘jalik munosabatlari tizimini yaratish, qishloq xo‘jaligida iste’molchilarga kafolatli xizmat ko‘rsatishni kompleks ta’minalashning ishonchli tizimini shakllantirish bilan asoslash mumkin.

Qishloq xo‘jaligida lizing rivojlanishiga turtki bo‘luvchi asosiy sabablar vazifasini quyidagilar bajaradi:

- qishloq xo‘jalik texnikalarining ko‘plab turlariga talabning mavjudligi;
- respublika hududida qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodlarining mavjudligi, bu bevosita texnika ishlab chiqaruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatishga imkon yaratadi;
- turli xil mulkchilik shakllarining shakllantirilishi, import-eksport hamkorligining rivojlanishi;

• tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Qishloq xo'jaligida lizingning ustunliklari uning davlat tomonidan tartibga solish shakllarini, jumladan, soliq, amortizatsiya va kredit imtiyozlarini ko'zda tutishidan iborat.

Shu tariqa, qishloq xo'jaligi sohasida lizing tizimining rivojlanishi quyidagi muammolarni hal qilishga xizmat qiladi:

1) mahalliy qishloq xo'jalik texnikasi ishlab chiqaruvchilar monopoliyasini texnika olishning boshqa manbalari – importdan foydalanish hisobiga yo'q qilish va mos ravishda qishloq xo'jalik texnikalari narxi disparitetini bartaraf etish;

2) dehqon va fermer xo'jaliklarini zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

3) tovar ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirishning maxsus usuli bilan ta'minlash;

4) qishloq xo'jalik texnikalariga ularni yetkazib berish va ulardan foydalanish xarakteri va xususiyatlaridan qat'iy nazar, kafolatli texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

5) texnikaning bekor turib qolishi va qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda yo'qotishlarni kamaytirish;

6) ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va lizing beruvchilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish.

## **10.2. Qishloq xo'jaligi iste'molchilarini texnik ta'minotini lizing sharoitlarida ta'minlash**

Agrosanoat kompleksida lizing operatsiyalarini amalga oshirishni A.V.Goremikinning ko'rsatishicha, quyidagicha aks ettirish mumkin (10-rasm).

Agrolizing tizimida ishlab chiqaruvchilar, lizing beruvchilar, foydalanuvchilar, moliya-kredit muassasalari va investorlar, ulgurji va chakana savdo tashkilotlari, turli xil xizmat ko'rsatuvchi vositachilar va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ishtiroy etadi. Bu sxemaning asosiy xususiyati – lizing beruvchining ishlab chiqaruvchi va ijarachi o'rtasida xo'jalik munosabatlarini o'rnatish bo'lib, bu iste'molchilarni texnika bilan ta'minlashning ishonchliligi va texnikadan foydalanish darajasini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari ijarachilarning mablag'larni tejash, qishloq xo'jalik texnikalari sifati va undan foydalanish samaradorligini oshirishga erishiladi. Bunda lizing shartnomasi amal qiluvchi muddat davomida yetkazib berilgan texnikalarga xizmat ko'rsatishni vositachi-lizing beruvchi o'z zimmasiga oladi.

### **10. 3. Agrolizing operatsiyalarni tashkil etish tartibi**

Agrolizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi quiydagi ish turlaridan iborat:

#### **1. Mashina va asbob-uskunalar ro‘yxatini aniqlash:**

- yangi va ishlatilgan mashinalarni eksport orqali olish istiqbollarini baholash;
- mahalliy qishloq xo‘jalik texnikasi ishlab chiqaruvchilarning lizing munosabatlarida o‘z mahsulotlari bilan ishtirok etishga tayyorligi va imkoniyatlari;
- sanoat, qurilish va transport tashkilotlarida vaqtincha bo‘sh turgan mashinalarni jalb qilish imkoniyatlarini o‘rganish;
- eskirgan mashinalarni qayta tiklash muammosini hal qilish.

#### **2. Xizmatlar tarkibi:**

- texnikani ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarni aniqlash;
- ularning ishlarni bajarish bo‘yicha imkoniyatlarini baholash;
- mashinalarni transportirovka qilish bo‘yicha muzokaralar;
- texnikani mijozlarning o‘zi tomonidan olib ketish imkoniyati;
- mijozlarga maslahat berish va o‘qitish, mashinalarni lizingdan oldin tayyorlash va ularni sug‘urtalash masalalarini hal qilish;
- muddatini o‘tgan bo‘lgan mahsulotlarni utilizasiya qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash.

#### **3. Mashina va xizmat turlari bo‘yicha ehtiyojlar:**

- doimiy;
- mavsumiy;
- vaqtinchalik

#### **4. Qishloq xo‘jalik texnikalarini sotib olish:**

- mashina ishlab chiqaruvchi bilan oldi-sotdi shartonmasi tuzish;
- mashinalarni vaqtincha foydalanishga olish uchun lizing shartnomasini rasmiylashtirish;
- mashinalarni tayyorlash;
- zarur hollarda qishloq xo‘jalik mashinalarini saqlashni tashkil etish.

#### **5. Lizing oluvchi mijozlar ro‘yxatini o‘rganish:**

- agrar sektordagi tashkilot va organlar bilan aloqa o‘rnatish;
- mijozlarni tanlash jarayoni;
- mijozlar ro‘yxatini tuzish.

#### **6. Loyihalarni tanlash:**

- doimiy mijozlar o‘rtasida reklama-o‘quv tadbirlarini o‘tkazish;
- tanlov jarayonini amalga oshirish

### **7. Lizing munosabatlarini rasmiylashtirish:**

- lizing xizmati bo‘yicha shartnomalar tuzish;
- texnikani mijozlarga yetkazib berish.

### **8. Lizing to‘lovlari shaklidagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari assortimenti va miqdorini aniqlash:**

- lizing shartnomasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetkazib berish muddati, sifati, assortimenti va miqdori bo‘yicha shartlarni shakllantirish;
- mahsulotni tashish, qayta ishlash va sotish bo‘yicha muzokaralar.

#### **10.4. Respublikamizda agrolizing operatsiyalarini amalga oshirish tajribasi**

Hozirgi kunda, agrosanoat kompleksida aksionerlik lizing kompaniyasi “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” lizing faoliyatida ma’lum tajribalarga ega. Bu kompaniya qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikasi bilan ta’minlashni rag‘batlantirish, qishloqqa yetkazib beriluvchi traktor va hosil yig‘ish texnikasi uchun hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish maqsadida ta’sis etilgan.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” ALK ta’sischilarini quyidagilardir: “O‘zqishloqxo‘jalikmash-xolding”-100,0 mln. so‘m; “O‘zqishloqxo‘jalikta’-minotta’mirlash” DKK- 50,0 mln. so‘m; “O‘zsanoatmashimpeks” - 50,0 mln. so‘m; Germaniyaning “Zelko” assotsiatsiyasi- 13,173 mln. so‘m.

Kompaniyaning aksiyadorlari quiydagilardir: “Paxta bank” IAK - 10 %; O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi - 10 %; O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi – 8 %; “O‘znonmahsulot” DAK - 6 %; “O‘zpaxtasanoatsotish” assotsiatsiyasi – 6 %; “G‘alla bank” IAK- 3 %; “O‘zmevasabzavotuzumsanoat-xolding” - 2 %; boshqa aksiyadorlar - 2 %. Har bir aksiyador kompaniyani boshqarish organlarida ishtirok etish, dividend ko‘rinishida foydaning bir qismini olish, shuningdek, kompaniyaning xo‘jalik-moliyaviy faoliyati natijalari to‘g‘risidagi to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni olish huquqiga ega. Erkin savdoga chiqarilgan, joylashtirilmagan aksiyalar nizom jamg‘armasining 33 % ini tashkil etadi. Kompaniya respublikamizdagи mashina-traktor parklari va qishloq xo‘jalik korxonalariga qishloq xo‘jalik texnikalarini 7 yil muddatga lizing asosida quyidagi shartlarda yetkazib berishga ixtisoslashadi:

- traktor va hosilni yig‘ish mashinalari qiymatining 15 %i hududiy mashina-traktor parklari, muqobil mashina-traktor praklari, qishloq xo‘jalik

shirkatlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobiga avans shaklida to‘lanadi;

- traktor va hosilni yig‘ish mashinalari qiymatining 85 %i “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi tomonidan unga qarz asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi qishloqni qishloq xo‘jalik texnikasi bilan ta’minlashni rag‘batlantirish davlat jamg‘armasi tomonidan beriluvchi mablag‘lar hisobiga to‘lanadi;
- texnika lizing oluvchilarga lizingga olinayotgan texnikalarni butun lizing muddatiga sug‘urta polisi mavjud bo‘lgan holdagina beriladi;
- lizing kompaniyasi daromadlarining imtiyozli stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining 50 %idan ortmasligi lozim.


Quyidilar “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasining agentlari hisoblanadi:

- moliyaviy agent – Paxta-bank, kompaniyaning barcha hisob-kitoblarini bajarish, to‘lovlarining o‘z vaqtida amalga oshirilishi va lizing shartnomasi va ta’milot shartnomalari bo‘yicha o‘zaro moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha vazifalarni amalgaga oshirish;
- sug‘urta agenti – “O‘zagrosug‘urta”, lizingga beriluvchi texnikalarni sug‘urtalash vazifalarini bajarish.

Respublika mintaqalarida lizing kompaniyalari o‘tkazayotgan marketing tadqiqotlari potensial lizing oluvchilarning texnikaga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. Arizalarga asosan lizingga beriluvchi texnikalarga eshtiyor hajmi haqiqiy ehtiyojdan 9 baravar ko‘pdir. Bularning barchasi lizing xizmatlari hajmini va mos ravishda kompaniya daromadlarini oshirishga turtki bo‘ladi.


#### **10.5. “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyani lizing oluvchilarini bilan munosabatlarni asosiy shartlari**

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyanterlik lizing kompaniyasi o‘z faoliyatini tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 - yil 2 - noyabrdagi 424-sonli “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori va qishloq xo‘jalik texnikasini lizingga sotib olish mexanizmi belgilab berilgan ushbu qarorga 1-sonli ““O‘zqishloqxo‘jalikmashxolding” XK korxonalarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik texnikasini lizingga sotib olish tartibi” ilovasiga asoslanadi. Mazkur qaroriga asosan “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing”ning ta’mintchilar va iste’molchilar bilan xo‘jalik munosabatlarini o‘rnatish va keyinchalik lizing shartnomasi tuzish tartibi quyidagicha (13, 14 - chizmalar).



**13-chizma. “O’zqishloqxo’jalikmashlizing” ALKda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi**

### Lizing to'lovlarini to'lash



- birinchi bosqich – lizing shartnomasi tuzilguncha;
- ikkinci bosqich – lizing shartnomasini imzolash;
- uchinchchi bosqich – shartnoma bo'yicha obyektni yetkazib berish.

**14-chizma. Qishloq xo`jalik texnikasini lizingga olishni tashkil etish.**

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi har yili 1 - oktyabrdan kechikmasdan “O‘zagromashservis” mashina-traktor parklari assotsiatsiyasining hududiy birlashmalari, muqobil mashina-traktor parklari, qishloq xo‘jalik shirkatlari va fermer xo‘jaliklarining arizalari asosida lizing shartlarida yetkazib beriluvchi qishloq xo‘jalik texnikasiga ehtiyojlar bashoratini tuzadi.

Qishloq xo‘jaligining texnikaga bo‘lgan ehtiyojlari prognozi asosida “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi va Paxtabank O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qishloqni qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta’minlashni rag‘batlantirish davlat Jamg‘armasiga kelgusi yilda texnikani sotib olishga kerak bo‘lgan mablag‘larni prognozini taqdim etadi. Shu asosda Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan birgalikda kelgusi yil uchun Jamg‘arma mablag‘larini to‘ldirish uchun zarur resurslar va ularning manbalarini belgilaydilar. Mavjud moliyalashtirish manbalarini hisobga olgan holda Jamg‘arma “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasiga kelgusi davrda lizing operatsiyalarini amalga oshirishga ajratiluvchi resurslar hajmiga kafolat xatlari beradi.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi Jamg‘armaning kafolat xatlari bilan tasdiqlangan manbalar asosida “O‘zqishloqxo‘jalikmashxolding” XK tizimida qishloq xo‘jalik texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalarda qishloq xo‘jalik mashinalariga buyurtmalarni davrlarga bo‘lgan holda joylashtiradi.

Mazkur buyurtmalarga asosan “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan traktor va hosil yig‘uvchi mashinalarni yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzadi. Shu bilan bir paytda “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi kelgusi yil uchun quyidagi shartnomalarni tuzadi:

- Jamg‘arma bilan moliyaviy resurslarni ajratish bo‘yicha. Bunda lizing bo‘yicha daromad (marja) hajmi, shuningdek, kompaniya xizmatlari uchun to‘lanuvchi to‘lovlarining lizing oluvchi tomonidan to‘lanuvchi lizing to‘lovakidan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan hajmi kelishib olinadi;
  - Paxta-bank bilan – uning moliya agenti vazifalarini bajarish bo‘yicha;
  - “O‘zagrosug‘urta” kompaniyasi bilan – sug‘urta agenti vazifalarini bajarish bo‘yicha;
  - mashina-traktor parklarining hududiy birlashmalari, muqobil mashina-traktor parklari, qishloq xo‘jalik shirkatlari va fermer xo‘jaliklari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zining mintaqaviy bo‘limlari orqali traktor va hosilni yig‘ish texnikalarini yetkazib berish lizing shartnomalari.
- “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” ALK faoliyatida qo‘llanuvchi asosiy shartnoma

turi moliyaviy lizing shartnomasi hisoblanadi. Har bir shartnomaga lizing to‘lovlari jadvali (asosiy summa plus lizing %lari) ilova qilinadi. Shartnomaning bitta asl nusxasi Paxta bankka jo‘natiladi.

Shundan so‘ng “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi Paxtabankda ochilgan va Jamg‘arma mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan operativ hisob raqamidan qishloq xo‘jalik mashinalari ishlab chiqaruvchi zavodga navbatdagi chorak uchun berilgan buyurtmalarning 30 %ini avans shaklida (ko‘rsatilgan chorak boshlanishidan kamida 30 kun oldin) to‘laydi. Tayyor qishloq xo‘jalik texnikasi ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan mashina-traktor parklari, qishloq xo‘jalik shirkatlari va fermer xo‘jaliklariga yetkazib beriladi. Lizing oluvchi qishloq xo‘jalik texnikasini olganligini tasdiqlagandan so‘ng “O‘zqishloqxo‘ja-likmashlizing” kompaniyasi uch bank kuni ichida operativ hisob raqamidan lizingga berilgan qishloq xo‘jalik texnikasi qiymatining qolgan 70 %ini zavodga to‘laydi (yakuniy hisob-kitob amalga oshiriladi).

Lizing shartnomasi kuchga kirgan paytdan lizing oluvchilar “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasiga lizingga olingan texikaning 15 % qiymatini avans shaklida to‘laydi va lizingga olingan texnikani o‘z hisobidan “O‘zagrosug‘urta” kompaniyasida sug‘urtalaydi. Texnika qiymatining qolgan 85 %i va lizing %lari 7 yil ichida to‘lab boriladi. Bunda lizing to‘lovlari lizing shartnomasida belgilangan hajmda va muddatlarda amalga oshiriladi. O‘z tomonidan kompaniya moliyaviy lizing shartnomasida belgilangan muddatlarga asosan “Paxtabank” moliya agenti bilan birgalikda lizing to‘lovlarini to‘playdi. Bu mablag‘lar to‘laligicha Operativ hisob raqamiga o‘tkaziladi va qishloqni qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta’minlashni rag‘batlantirish davlat Jamg‘armasining roziligi bilan yangi lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Lizing oluvchi lizing to‘lovlarini jadvalda ko‘rsatilganidek o‘z vaqtida to‘lamagan hollarda Paxtabank lizing oluvchining bank hisob-raqamlariga shak-shubhasiz bajarilishi shart bo‘lgan to‘lov talabnomasini taqdim etadi.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi lizing bo‘yicha olingan %lardan shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda tijorat agenti vazifalarini bajarish uchun to‘lovlarni olib qoladi, lizing oluvchilaran kelib tushgan mablag‘ning qolgan qismi esa uch kunlik muddat ichida Jamg‘armaning bankdagi hisob raqamiga o‘tkaziladi. Lizing oluvchilarning lizing to‘lovlarini qaytarishi asosan Moliya Vazirligining davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarini

sotib olishga transhlar orqali yo‘naltiriluvchi mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Bundan tashqari “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi har oyning 5 kunigacha Paxtabankka avvalgi oyda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lizing to‘lovleri jadvalining nusxasini topshiradi va har chorak yakunida 20 kundan kechikmay o‘tgan chorak ichida Operasjon hisob raqamidagi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi Paxta-bank tomonidan tasdiqlangan hisobotni Jamg‘armaga taqdim etadi.

Shu tariqa, munosabatlarning asosiy qoidalari quyidagilarga asoslanadi:

- kompaniya keyinchalik lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun kafolat xatlari asosida resurslar ajratuvchi Jamg‘armani O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan birgalikda zarur qishloq xo‘jalik texnikalarini sotib olish uchun mablag‘larga ehtiyoj to‘g‘risida xabardor qiladi;
- mahsulotlarini “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi moliyalashtiruvchi har bir ta’minotchi bilan kelishish va oldi-sotdi shartnomalari tuzish;
- texnika modifikasiyalari to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish;
- lizing oluvchiga lizing shartnomasi asosida qishloq xo‘jalik texnikasini taqdim etish;
- lizing oluvchi va “O‘zagrosug‘urta” kompaniyasi o‘rtasida lizing obyektini sug‘urtalash bo‘yicha shartnoma tuzish;
- lizing shartnomasi bo‘yicha barcha majburiyatlarni bajarish monitoringi;
- lizing oluvchilarning lizing to‘lovlarini kompaniyaning Paxtabankdagi hisob raqamiga to‘lashi.

## **10.6. Boshqa sohalarda lizing**

“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi lizing operatsiyalarini amalga oshirishning ilk tashabbuskorlaridan bo‘ldi. Aviakompaniya xalqaro avializing yordamida o‘z texnika parkini yangilash va barcha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘sirishga erishdi. Bugungi kunda u “Boing 767”, “A-310” va “RJ-85” kabi 80 dan ortiq eng yangi zamonaviy laynerlarga ega. Mazkur samolyotlardan lizing asosida foydalanilib, ularni qoldiq qiymati bo‘yicha sotib olish 48 mln. AQSH dollarini tejash imkonini beradi. MDH va O‘zbekiston aviabozorining marketing tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta muddatli istiqbolda samolyotlarga bo‘lgan ehtiyoj o‘sib boradi. Buni ekspluatatsiya qilinayotgan texnikalarning ma’naviy jihatdan eskirganligi va o‘z vaqtida yangilanmaganligi, mayjud samolyotlardan

foydanish muddati oxiriga yaqinlab qolganligi bilan izohlash mumkin. Samolyotlar lizingiga bo‘lgan talabning o‘sib borishi lizing kompaniyasini yaratishni asoslab berdi.

1997 - yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan “O‘zavializing” aksiyanerlik lizing kompaniyasiga asos solindi. Kompaniyaning asosiy faoliyat turlariga aviabozor marketingi va moliyaviy lizing sxemasida keyinchalik sotib olishni ko‘zda tutuvchi “CHnAICHB” samolyotlarini sotish, shuningdek, operativ lizingni amalga oshirishni kiritish mumkin. Bundan tashqari, lizing o‘z buyurtmachilarga quyidagi xizmatlar tizimi majmuasini taklif qiladi: aviatexnikaga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash; ishonchlilikni ta’minlash; havo kemalarini sug‘urtalash; uchuvchi va texnik xodimlarni tayyorlash; lizing oluvchiga berilgan samolyotlardan lizing shartnomasi amal qilayotgan muddatda to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilish.

Natijada umumiy qiymati 15 mln. AQSH dollari bo‘lgan 1ta xalqaro lizing shartnomasi moliyalashtirildi. Umuman ko‘rib chiqilgan loyihamalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aviakompaniyalar lizing obyektini tanlashda mahalliy samolyotlarni xorijda ishlab chiqariluvchi samolyotlar bilan turli xil ko‘rsatkichlar bo‘yicha solishtiradilar. IKAOning so‘nggi normalariga mos ravishda parvozlar xavfsizligi va yo‘nalishlarning xususiyatlaridan kelib chiquvchi o‘ziga xos talablar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli “O‘zavializing” kompaniyasi tomonidan kamchiliklarni yo‘qotish; taklif qilinayotgan aviatexnikani muayyan bozor va uning segmenti talablariga javob beruvchi xalqaro standartlarga javob beruvchi darajaga etkazish; raqobatchilik ustunliklarini aniqlash bo‘yicha ishlarni muntazam amalga oshirmoqda. “CHnAICHB” DAJ va chet ellik raqobatchilar mahsulotlarining texnik va tijorat tavsifnomalarining solishtirma monitoringi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 - yil 23 - oktyabrdagi “Kapital qurilishda ijara va lizing tizimini joriy etish to‘g‘risida” 462-qaroriga binoan ustav fondi 1 mlrd. so‘m bo‘lgan, ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida **“Qurilish — lizing”** kompaniyasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki, O‘zuyjoyjamg‘armabank, O‘zsanoatqurilishbank, “Asaka” banki, “Paxtabank”, “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK, “O‘zneftgazqurilish” AK, “O‘zbekenergo” DAK uning ta’sischilari hisoblanadi. U zamonaviy qurilish texnikasi va kichik mexanizasiya vositalari, maxsus transportni xarid qilishni o‘z moliyaviy manbalari hisobidan, shuningdek mamlakatimiz va xorijiy banklar kreditlarini jaib etish yo‘li bilan amalga oshiradi hamda ularni lizing va ijaraga barcha mulkchilik shakllaridagi

pudrat qurilish tashkilotlariga, birinchi navbatda kichik va xususiy biznes subyektlariga shartnoma asosida beradi.

“Qurilishlizing”ga pudrat qurilish tashkilotlari davlat aktivlarining birja va birjadan tashqari bozorlarda sotishdan, iqtisodiy nochor pudrat qurilish tashkilotlari mol-mulkini ularning budget oldidagi qarzini qarz summasi doirasida undirish hisobiga sotishdan olingan mablag‘lar 5 yil muddatga qaytarish asosida, uning maxsus hisob varag‘iga o‘tkazish bilan beriladi. Ushbu mablag‘lar ularni lizingga berish uchun qurilish texnikasi va kichik mexanizasiya vositalari, transport vositalarini xarid qilish uchungina ishlatilishi mumkin.

Moliya vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo‘mitasi, Davlat mulki qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasiga tugatilayotgan iqtisodiy nochor qurilish texnikasi, transport vositalari va kichik mexanizasiya vositalarini-ularning budget oldidagi qarzlarini undirish hisobiga “Qurilishlizing” kompaniyasiga berish tartibini ishlab chiqish hamda tasdiqlash topshirildi. Bu asosiy vositalar daromad va mol-mulk soliqlari bo‘yicha soliq solish obyekti hisoblanmaydi. Bundan tashqari, lizingga berish uchun olib kelinadigan qurilish texnikasi, ehtiyyot qismlar, qurilish transport vositalari va kichik mexanizatsiya vositalariga doir bojxona to‘lovlari va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi. 2007 - yil 31 - dekabrga qadar kompaniya qurilish texnikasi va kichik mexanizatsiya vositalarini lizingga berishdan olingan daromadlar bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lamaydi.

Yuqorida ko‘rib chiqqan lizing institutlari faoliyatları natijasida O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

### **Qisqa xulosalar**

Qishloq xo‘jaligida lizingni qo‘llashning obyektiv zaruratini qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, subyektlar o‘rtasida moslashuvchan xo‘jalik munosabatlari tizimini yaratish, qishloq xo‘jaligida iste’molchilarga kafolatli xizmat ko‘rsatishni kompleks ta’minlashning ishonchli tizimini shakllantirish bilan asoslash mumkin.

Qishloq xo‘jaligi sohasida lizing tizimining rivojlanishi quyidagi muammolarni hal qilishga xizmat qiladi: mahalliy qishloq xo‘jalik texnikasi ishlab chiqaruvchilar monopoliyasini texnika olishning importdan foydalanish hisobiga yo‘q qilish va mos ravishda qishloq xo‘jalik texnikalari narxi disparitetini bartaraf etish; tovar ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirishning maxsus usuli bilan ta’minlash; dehqon va fermer xo‘jaliklarini zamonaviy

texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlash; ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash va texnikalar aylanuvchanligini ta'minlash;

Hozirgi kunda agrosanoat kompleksida “O'zqishloqxo'jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi lizing faoliyatida ma'lum tajribalarga ega. Bu kompaniya qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan zamonaviy qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlashni rag'batlantirish, qishloqqa yetkazib beriluvchi traktor va hosil yig'ish texnikasi uchun hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish maqsadida ta'sis etilgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Qishloq xo'jaligida lizing rivojlanishining zarurligi nimadan iborat?
2. Qishloq xo'jaligi sohasida lizing rivojlanishiga qanday sabablar mavjud?
3. Agrolizing munosabatlarini umumiyligini sxemasini kelitirib, agrolizing subyektlarini sanab bering.
4. Agrolizing bitimini amalga oshirishda ish turlarini tavsiflab bering.
5. Qishloq xo'jaligda lizing rivojlanishi qanday muammolarni yechishga qaratilgan?
6. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida lizing faoliyatini qaysi lizing kompaniyalar amalga oshiradi.
7. “O'zqishloqxo'jalikmashlizing” aksiyador lizing kompaniyasini lizing operatsiyalarni o'tkazish tartibi to'g'risida so'zlab bering.
8. “O'zqishloqxo'jalikmashlizing” kompaniyani lizing oluvchilar bilan munosabatlarni asosiy shartlarini yoritib bering.
9. “O'zavializing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi haqida so'zlab bering.
10. “Qurilish — lizing” kompaniyasi faoliyatini tashkil etilishi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Левкович А.О. Промагролизинг. Анализ организационных форм управления лизинговым процессом. Учебное пособие - М.: 2000, 49-67 с.
2. Назарова Ф.М. Агросаноат мажмууда лизинг фаолиятини йўлга қўйиш // Ж.“Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси” 2001, №3, 30-32 б.
3. Лизинг Инфо. Лизинговые компании Узбекистана // Бизнесвестник Востока 2002, №42 (560), №43 (561), 7-8 с.
5. Фозибеков Д. Ф. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма— Т.: Фан ва технология, 2004.

## **XI bob. INVESTITSIYA LOYHALARiNI SHAKLLANTIRISH**

### **11.1. Investitsiya loyihalarini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investitsiya loyihasi, ya’ni korxona faoliyatining barcha asosiy jihatlari: ishlab chiqarish, moliya va ijtimoiy sohani aks ettiruvchi hujjatni tayyorlash odad tusiga kirdi. Investitsiya loyihasi quyidagilarga imkon yaratadi:

- boshqaruv qarorlarida xatoga yo‘l qo‘yish tavakkalchiligin kamaytirish va samarali qaror qabul qilishga ko‘maklashishi;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishni birlashtirish hamda mazkur tarmoqda tadbirkorlikni rivojlantirish.

Har qanday investitsiya loyihasi biznes-rejaga asoslanadi. Biznes-reja bu belgilangan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi, vaqt bo‘yicha bir-biriga bog‘liq va kelishilgan hamda amalga oshirish rejalangan tadbirkorlik harakatlari tizimidir.<sup>1</sup>

Biznes-reja tadbirkorning o‘ziga bitimning asoslanganligi, ishonchliligi va amalga oshirilishidan dalolat sifatida kerak bo‘ladi. Uning mavjudligi rejelashtirilayotgan operatsiya va tashkilotchilarning ishonchliligidan darak beradi hamda rejelashtirilgan ishlarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratadi. Biznes-reja xarajatlar, ularni qoplash manbalari, to‘lov balansi, korxonaning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash aks ettirilgan hujjat hisoblanadi. Odatda biznes-rejani ishlab chiqish yakuniy maqsadlarni belgilash, ya’ni tadbirkor o‘ylangan dasturni amalga oshirishdan qanday naf ko‘rishi va qanday moliyaviy natijalarga erishilishini aniqlashdan boshlanadi. Biznes-rejani tuzishda ma’lum bir tuzilmaga amal qilinib, unda quyidagi asosiy bo‘limlar mavjud bo‘lishi zarur (15-chizma):

Tadbirkor u bilan hamkorlik qilishlarini istasa biznes-rejani albatta puxta ishlab chiqishi zarur. Agar tadbirkor lizing beruvchining huzuriga ajoyib innovatsion g‘oyalar bilan, biroq tayyor biznes-rejasiz tashrif buyuradigan bo‘lsa unga albatta mos keluvchi rejali dasturni tayyorlash va boshqa safar kelishni taklif qiladilar. Tadbirkor potensial investorni qiziqtirib qo‘ysagina o‘z ishining muvaffaqiyatga erishishidan umid qilsa bo‘ladi. Masalan, mamlakatimizdagi lizing kompaniyalari mutaxassislarining investitsiya loyihalarini tahlil qilishi shuni ko‘rsatadiki, biznes-rejalarning katta qismi tadbirkorlar tomonidan yetarlicha puxta tayyorlanmaydi. Aksari hollarda

<sup>1</sup> Вахрин П.И. Инвестиции: Учебник – М.: 2002, 136 с.

buyurtmachi faqat bitta g‘oya bilan cheklanib qolib, ishning detallarini puxta o‘rganib chiqmaydi, texnik-iqtisodiy baholashni ko‘ngildagidek tayyorlamaydi hamda biznes-rejaning barcha asosiy jihatlarini batafsil tavsiflamaydi.

Biznes-rejani ishlab chiqish davomida korxona ishlab chiqarish va bozor tuzilmasining huquqiy asoslarini hisobga olishi zarur. Xususan:

Biznes-reja

kompaniya va uning biznesi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar – kompaniya tarixi, uning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv komandasi va xodimlari, asosiy faoliyat turlari, infratuzilmasi va ishlab chiqarish, sotish siyosati va narxning hosil bo`lishi, moliyaviy holati

kompaniya va uning biznesi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar – kompaniya tarixi, uning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv komandasi va xodimlari, asosiy faoliyat turlari, infratuzilmasi va ishlab chiqarish, sotish siyosati va narxning hosil bo`lishi, moliyaviy holati

kompaniya bozorini aks ettirish (tarmoq tahlili) – bozor sig`imi va maqsadli segmentlarni, bozor muhiti va tendentsiyalarini aniqlash, raqobatchilar tahlili, imkoniyat va tavakkalchiliklar

loyihaning ifodalanishi –loyiha g`oyasi, maqsadi va mantiqiy asoslari, loyihani amalga oshirish rejasi, loyihani moliyalashtirish sharoitlari va manbalari, marketing rejasi, ishlab chiqarish rejasi, sotuv rejasi, moliyaviy reja, loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash, loyiha bo`yicha tavakkalchiliklarni baholash va kompaniyani o`tkazish senariyasi

ilovalar – loyihani amalga oshirish bilan bog`liq shartnomalar nusxasi (xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni xarid qilish maqsadlari to‘g‘risidagi shartnomalar), ishlab chiqarish jarayonlarining ifodalanishi, litsenziya, sertifikat va mualliflik guvohnomalari nusxasi va boshqa ma‘lumotlar

**15-chizma. Biznes-rejani asosiy bo‘limlari.**

- mahsulotlarni oziq-ovqat va sanoat tovarlari bozorida sotuvchi korxona biznes-rejasi asosan iste’molchilar ommasiga yo‘naltiriladi. Bu yerda mahsulot sifati va sotuv hajmi asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Bunday

korxona ishining barqarorligini sotuv hajmini oshirish, mahsulot assortimentini o‘zgartirish belgilab beradi;

- ishlab chiqarish vositalari bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi korxona biznes-rejasi ishlab chiqarishni qayta tiklashi va barqarorlashtirishi lozim bo‘lgan investitsion yo‘nalishni yoritib berishi zarur;
- maishiy-kommunal xizmatlar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi korxona biznes-rejasi o‘z ichiga transport, madaniy-oqartuv, sog‘liqni saqlash, axborot, vositachilik va asosan muayyan iste’molchiga yo‘naltirilgan boshqa xizmatlarni kiritadi;
- mahsulotlarni axborot bozorida sotuvchi korxona biznes-rejasi yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, tabiiy resurslarning mavjudligi, intellektual salohiyatni hisobga olishi lozim;
- investitsiyalar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi korxona biznes-rejasi investorlarni kredit bilan ta’minlash bo‘yicha bank hujjati hisoblanib, uning asosida kredit uchun optimal % stavkasini aniqlash yotadi;
- innovatsiyalar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi korxona biznes-rejasi ixtiolar, kashfiyotlar va boshqa intellektual mehnat yutuqlarini joriy qilishning yakuniy natijalari yutuqlariga yo‘naltiriladi.

Shu tariqa, biznes-reja barcha bozor tuzilmalari uchun ular faoliyatining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

## **11.2. Marketing rejasi**

Biznes-reja korxona faoliyatining joriy va istiqboldagi uchta asosiy bo‘limini belgilab beradi:

- bozorning marketing tadqiqoti;
- ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining maqsad va vazifalarini asoslab berish;
- yakuniy natijalarni iqtisodiy asoslagan holda rejaning asosiy bo‘limlarini ishlab chiqish.

Marketing strategiyasi mahsulot ishlab chiqaruvchining yo‘nalishidan kelib chiqib iste’mol bozorida davlat bozor siyosatining tartibga soluvchi rolini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda mahsulotni sotish bozorini tanlash marketing faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Qoidaga ko‘ra optimal bozorni tanlash bu bozorni tadqiq etish natijasida olingan ma’lumotlarga asoslanadi. Korxona mahsuloti bozor (uning segmenti) ehtiyojlariga mos kelishi va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi zarur.

Bozorga kirib borishdan avval mahsulotga nisbatan iste'molchiga ta'sir ko'rsatish bo'yicha barcha marketing vositalari majmuasi qo'llanadi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, siyosiy va boshqa omillar hisobga olinadi. Ma'lumki, bozor ishlab chiqarish va iste'molchi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib, ichki aloqalarni hamda talab va taklif o'rtasidagi balans asosida qaramaqshiliklarni aniqlab beradi. Talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlangan nisbatlarga faqat marketing yordamidagina erishish mumkin, chunki strategiya va taktika bozorni kompleks o'rganish va mahsulotga bo'lgan talabni maqsadli yo'nalgan holda ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga asoslanadi.

Marketing faoliyati bozorni o'rganish, maqsadlarni shakllantirish va ularni amalga oshirish bo'yicha masalalarni hal qilish, ishlab chiqarish muddati, hajmi va kutilayotgan natijalarni aniqlash, iste'molchilik talabini shakllantirish va kon'yunktura tadqiqotlarini o'z ichiga kiritadi. Bundan tashqari, marketing bozorni tartibga solish tizimi sifatida mahsulotlarning bozor talablariga moslashishi, raqobatchilar salohiyati va ularning faoliyatini o'rganish, talabni shakllantirish, sotuvni rag'batlantirish, marketing xizmati faoliyatini nazorat qilish va boshqalarni ta'minlaydi

Marketing raqobatchilik kurashining taktika va strategiyasini belgilab beradi, pul mablag'lari va resurslar, bozor kon'yunkturasi haqidagi ma'lumotlarning to'xtovsiz oqimini hamda sotuv bozoriga maqsadli yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatgan holda mahsulotni sotish jarayonini boshqarishni ta'minlaydi. Marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda narx va tovar siyosati ishlab chiqiladi, reklama usullari va yo'nalishlari, sotuvni rag'batlantirish, obyektga sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish yo'nalishlari aniqlanadi, bozor hajmi va uning yangi mahsulotlar kirib kelishi va keyingi ta'minlashlarning kengaytirilishga reaksiyasi bashorat qilinadi.

Marketing strategiyasi marketing tadqiqotlari davomida olinuvchi ma'lumotlarga asoslanadi hamda quyidagilarni o'z ichiga kiritadi:

- ichki va tashqi muhit tadqiqotlari;
- maqsadlarni shakllantirish;
- chora-tadbirlar reja va strategiyalarini ishlab chiqish;
- rejalarни amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilish.

Marketing strategik rejasida belgilangan maqsadlarga erishish vaqt va vositalari, resurslar aks ettiriladi.

Marketing rejalarshirishi marketing faoliyatining taktik va strategik vazifalarini hal qilish ko'rinishida yaratiladi.

Marketing taktikasi tijorat va ilmiy-texnik ma'lumotlarga asoslanadi va malakali personalni talab qiladi. Bunda taktik chora-tadbirlar strategik chora-tadbirlarning tarkibiy qismi hisoblanib, quyidagilar ko'zda tutiladi: rejadagi ko'rsatkichlardan chetga chiqishga olib keluvchi ichki muhitdagi o'zgarishlarga tez javob berish, korxona mahsulotlari bilan bozorga kirib borish tamoyillari, tovar harakatlanishini tashkil etish va faollashtirish, iste'molchilar zaxiralarini tadqiq qilish, vakolatxonalar tarmog'ini tashkil etish, servis xizmat ko'rsatish sifatini oshrish va hokazolar. Marketing ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning bozor konsepsiyasini ishlab chiqishdan to mahsulotni yakuniy sotishgacha bo'lgan turli muammolar doirasini qamrab oladi.

Korxonaning marketing xizmati yetakchi hisoblanadi, chunki aynan u boshqa barcha tuzilma bo'linmalariga shart-sharoitlarni belgilab beradi. Marketing tadqiqotlari tahlili davomida qabul qilingan qarorlarni bajarish korxonaning barcha bo'limlari uchun majburiy hisoblanadi.

### **11.3. Ishlab chiqarish va tashkiliy rejalar**

Biznes-rejadagi ishlab chiqarish rejasi bo'limi eng muhimlardan bo'lib, marketing rejasi asosida tuziladi. Mazkur bo'limda quyidagilar amalga oshiriladi:<sup>1</sup>

1. Mavjud yoki rejalashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yangi tashkil etilayotgan ishlab chiqarish asoslab beriladi.
2. Mahsulotning yillar bo'yicha o'sish dinamikasiga asosan mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlash uchun qiymat va natural ko'rsatkichlardan foydalilaniladi. Ishlab chiqarishning moslashuvchanligini ta'minlash uchun zaxira quvvatlarini ko'zda tutish ham maqsadga muvofiq.
3. Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur asbob-uskunalar va uni muayyan ta'minotchilardan xarid qilish imkoniyatlari aniqlanadi.
4. Xom-ashyo, materiallar va butlovchi qismlarni yetkazib beruvchi ta'minlovchilar hamda muqobil ta'minlovchilar ko'rsatiladi. Ta'minlovchilarni tanlashda ularning ishonchliligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqiladi.
5. Resurslar va ta'minot bo'yicha kutilayotgan cheklashlar ko'rsatiladi. Bu yerda resurslar cheklanganda korxonalarni resurslar bilan ta'minlash uchun qo'shimcha vositalarni ko'zda tutish zarur.

---

<sup>1</sup> Комаров В.В. Инвестиции и лизинг в СНГ. Учебное пособие – М.: Финансы и статистика, 2001, 456.

6. Korxonalarning malakali ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha ma'lumotlar va mintaqada mehnat bozorining holati keltiriladi. Bu yerda korxonani boshqarishning tashkiliy tuzilmasi ohib berilib, unda har bir mutaxassisning yakuniy mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etishi va turli xil tuzilmalarning o'zaro aloqalari ko'rsatiladi.

7. Mahsulot sifatini nazorat qilish tartibi ko'rsatiladi va mos keluvchi hujjatlar (standartlar, yo'riqnomalar va uslubiyatlar) ko'rsatiladi. Xuddi shu bo'limda ishlab chiqarishning ichki zaxiralari muammosi hal etiladi.

Tashkiliy reja tashkiliy usullar hisobiga ishlab chiqarishning moslashuvchanligini ta'minlash muammosini hal qilishni ko'zda tutadi. U o'z ichiga korxona ishlab chiqarish faoliyatining zarur xom-ashyo bilan ta'minlash, mehnat va vaqt xarajatlarini tejash, bozor kon'yunkturasi talablarini hisobga olgan holda boshqa mahsulot ishlab chiqarishga osolik bilan o'tishi mumkin bo'lgan moslashuvchan ishlab chiqarishni tashkil etishdan to sotilgan mahsulot uchun pul tushumlariga ega bo'lishgacha bo'lgan barcha elementlarini kiritadi.

Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini oshirish korxonaning asosiy va aylanma jamg'armalaridan foydalanishni yaxshilashning asosi hisoblanadi.

#### **11.4. Moliyaviy reja**

Biznes-rejaning bu bosqichida quyidagilar keltiriladi: korxona xarajatlari va ularni qoplash manbalari; to'lov balansi; korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash; sotuv hajmlari bashorat qilinadi; pul xarajatlari va tushumlar balansi ishlab chiqiladi; daromad va xarajatlar jadvali tuziladi; korxona aktiv va passivlarining umumlashgan balansi tuziladi; korxonani asosiy resurslar bilan ta'minlash darajasi; narx tahlil qilinadi va baholanadi.

Moliyaviy reja yakunida korxona moliyaviy strategiyasi keltirilib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- biznes-rejani amalga oshirish uchun mablag'lar miqdori;
- mablag'larni olish muddati va manbalari;
- kreditlarni qaytarish va investorlarga %larni to'lash muddati;
- korxona tasarrufida qoluvchi mablag'lar miqdori;
- olingan daromaddan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydalanish imkoniyatlari.

Bunda mablag'larni qaytarish muddati qo'yilmalarning o'zini qoplashini hisoblashga asoslanadi.

Xulosa qismida qisqacha xulosalar: nima va qaysi usulda ishlab chiqariladi, mahsulotlarning o‘xshash mahsulotlardan farqi, sotuv bozorida unga bo‘lgan talab keltiriladi. Qisqacha xulosalarni asosiy moliyaviy natijalar bashorati bilan yakunlash lozim.

### **Qisqa xulosalar**

Biznes-reja bu belgilangan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi, vaqt bo‘yicha bir-biriga bog‘liq va kelishilgan hamda amalga oshirish rejalanigan tadbirkorlik harakatlari tizimidir.

Biznes-rejani ishlab chiqish ko‘p jihatli va ko‘p maqsadli jarayon bo‘lib, iqtisodiyot, sosiologiya va siyosatshunoslikda chuqur bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Biznes-reja korxona faoliyatining joriy va istiqboldagi uchta asosiy bo‘limini: bozorning marketing tadqiqoti; ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining maqsad va vazifalarini asoslab berish; yakuniy natijalarni iqtisodiy asoslagan holda rejaning asosiy bo‘limlarini ishlab chiqishni belgilab beradi.

Marketing strategik konsepsiysi mahsulot, sotuv joyi, mahsulotni bozorga olib kirish usuli, narx kabi marketing vositalarining bir nechta omillarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Biznes-rejaning ishlab chiqarish bo‘limi eng muhim bo‘limlardan bo‘lib, marketing rejasi asosida tuziladi. Tashkiliy reja ishlab chiqarishning moslashuvchanligini ta’minlash muammolarini tashkiliy usullar yordamida hal qilishni ko‘zda tutadi.

Biznes-reja bu butun lizing muddatiga tuziluvchi korxonaning istiqbolli rivojlanish hujjatidir. Unda xarajatlar, ularni qoplash manbalari, to‘lov balansi aks ettirilib, korxonaning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi baholanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Biznes-rejaning asosiy bo‘limlarini aytib bering.
2. Investitsiya loyihasini (biznes-rejani) ishlab chiqishning xususiyatlari qanday?
3. Biznes-rejada korxona faoliyatining joriy va istiqboldagi qaysi jihatlari aks ettiriladi?
4. Marketing rejasini tafsiflab bering.
5. Bozor kon'yunkturasi qanday aniqlanadi?
6. Ishlab chiqarish reja qanday shakllantiriladi?
7. Ishlab chiqarish rejasining tarkibiy qismlarini aytib bering.

8. Korxonaning moliyaviy strategiyasi qanday?
9. Tashkiliy rejani nimani anglatadi?
10. Moliyaviy rejani tavsiflab bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Газибеков Д. Финансирование инвестиционных проектов и лизинг // Ж.Рынок, деньги и кредит, 2000, №5
2. Николаенко А.Н. Использование маркетинга в развитии лизинга // Ж. Маркетинг, 2001, №3
3. Вахрин П.И. Инвестиции: Учебник – М.: 2002
4. Комаров В.В. Инвестиции и лизинг в СНГ. Учебное пособие – М.: Финансы и статистика, 2001

## **XII bob. LIZINGDA SOLIQQA TORTISH. BOJXONA TOMONIDAGI TARTIBGA SOLISH**

### **12. 1. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish**

O‘zbekistonda soliqqa tortish tartibini yo‘lga soluvchi asosiy normativ-huquqiy akt – bu 1998 - yil 1 - yanvardan amalga kiritilgan Soliq kodeksi hisoblanadi. Shuning bilan birga, ayrim soliqlarni hisoblash va to‘lash tartibiga ta’alluqli masalalar, hamda alohida soliq stavkalari hukumat qonun osti aktlari yoki vazirlik va boshqarmalar tomonidan (ular mas’uliyati chegarasida) yo‘lga solinadi.

Soliqqa tortish maqsadida operatsiyalarini lizingli (kategoriyasiga) tegishlilik talablari “Lizing haqidagi” qonundagilarga mosdir. **Lizing subyektlariga umumiy soliqqa tortish shartlari qo‘llaniladi va quyida keltirilgan QQS, foyda va mol-mulk soliqlari bo‘yicha bir qator imtiyozlar beriladi.**

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar kuchga ega:<sup>1</sup>

- **Umumdavlat soliqlari:** Qo‘shilgan Qiymat Solig‘i (QQS); Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i; Jismoniy shaxslar daromad solig‘i; Aksiz solig‘i; Yer osti boyliklaridan foydalanganligi uchun soliq; Ekologiya solig‘i; Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

- **Mahalliy soliq va yig‘imlar:** Mol-mulk solig‘i; Yer solig‘i; Infratizimni rivojlantirish solig‘i; Jismoniy shaxslardan benzin, dizel yonilg‘isi va suyuq gazdan transport vositalari uchun foydalanish solig‘i; Savdo qilish huquqi uchun yig‘im, alohida turdagи tovarlar bilan savdo qilish huquqini beruvchi lisenzion yig‘imlarni ham o‘z ichiga oladi; Yuridik hamda tadbirkorlik bilan shug‘ulanuvchi jismoniy shaxslarni registrasiyasi uchun yig‘im.

### **12.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Daromad (foyda) solig‘i**

Soliqqa tortish obyekti bu realizasiya oboroti va tovarlar (ish, xizmatlar) importidir. Soliq stavkasi – 20 %. Budgetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i soliqqa tortiluvchi oborotlar bo‘yicha hisoblangan soliq summasi va hisobotga kiritiluvchi soliq summalarini farqlari bo‘lib aniqlanadi. Hisobotga kiritiluchi QQS summasi esa hisobot davrida haqiqatdan kelib tushgan tovarlar (ish, xizmatlar), shu jumladan import qilingan va tortiluvchi oborot sifatida

<sup>1</sup> [www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Проект по развитию лизинга в Центральной Азии 2005, 54-58 с.

ishlatiladigan tovarlar, olingan hisob-fakturalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasidir. Shaxsiy ehtiyojlar uchun sotib olinayotgan asosiy vositalar bo‘yicha QQS summasi hisobotga kiritimaydi, ya’ni, soliq to‘lovchi o‘z ichiga QQS summasini kirituvchi narx bo‘yicha asosiy vositalarni kirim va amortizatsiya kiladi.

*Ishlab chiqariluvchi va sotiluvchi tovarlar (ish, xizmatlar)* QQS tortiluvchi oborot hajmi sotuv bo‘yicha, qo‘llanuvchi narx va tariflardan kelib chiqib sotiluvchi tovarlar (ish, xizmatlar) qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi.

### **O‘zbekistonda lizing to‘lovleri QQSdan ozod qilingan.**

*Import qilinuvchi tovarlar (ish, xizmatlar).* QQS tortiluvchi import tovarlar (ish, xizmatlar) hajmiga bojxona qonunchiligiga muvofiq tovarlar (ish, xizmatlar) bo‘yicha belgilangan bojxona narxi qo‘shiladi hamda O‘zbekistoniga tovarlarni (ish, xizmatlarni) import qilishda to‘lanuvchi aksiz solig‘i, bojxona bojlari qo‘shiladi.

**O‘zbekistoniga kiritilayotgan texnologik uskuna QQS ozod qilinadi, agar importyorga xizmat ko‘rsatuvchi bankning tasdiqlovi bo‘lsa,**

*Yuridik shaxslar foyda (daromad) solig‘i.* Soliqqa tortish obyekti – yalpi daromad va soliq chegirmalari yig‘indisi bo‘lib belgilanadi. Foyda (daromad) solig‘i stavkasi 20 %. Soliqqa soliq daromadni hisoblab berish yo‘lli bilan amalga oshiriladi, ya’ni foydalar va ular bo‘yicha mos chegirmalar soliqlarni hisoblash uchun tegishli bo‘lgan hisobot davrida ko‘rsatiladi.

### **12.3. Lizing operatsiyalarining lizing oluvchining olayotgan foydasini soliqqa tortishga ko‘rsatuvchi ta’siri**

Lizing oluvchining umumiy (to‘liq) daromadidan soliqqa tortish bazasini belgilashda butun lizing to‘lovi chegirilmaydi, faqat uning bir qismi. Aniq aytsak, lizing to‘lovi tarkibida lizing oluvchi to‘lanadigan lizing beruvchi daromadi. Shuningdek, lizing oluvchi yalpi daromadidan lizing predmeti amortizatsiyasi summasi, hamda lizing beruvchining umumiy tartibdagi barcha boshqa xizmatlarni narxi chegiriladi.

*Lizing predmeti amortizatsiyasi chegirmalari.* Lizing oluvchi balansida lizing obyekti aks ettirishini hisobga olsak, lizing predmeti amortizatsiya ajratmalarini lizing oluvchi hisoblaydi. **Soliq Kodeksiga mos ravishda, foydani soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya ajratmalari lizing oluvchida amalga oshiriladi.**

## 12.4. Lizing predmeti bo'yicha amortizatsiya chegirmalari

Soliq to'lovchi boshqaruv hisobi maqsadida amortizatsiyaning bir necha usullarini qo'llashi mumkin. Soliq Kodeksida ko'rsatilgan normalariga asoslanib amortizatsiya ajratmalarini chegirishni amalga oshirish mumkin. Amortizatsiya ajratmalari summasi asosiy vositalar boshlang'ich (tiqlanuvchi) narxi va shaxsiy, ijaraga olinuvchi asosiy vositalar uchun umumiyligida amalga oshiriladi (16-jadval).

16-jadval

Asosiy vositalar guruuhlarini amortizatsiya normalari<sup>1</sup>

Asosiy vositalar guruuhlari	Amortizatsiya normalari
1. Yengil avtomobillar, taksi, yo'llarda ishlatiluvchi avtotraktor texnikasi, maxsus moslamalar, inventar'ga periferiyalar. Kompyuterlar, periferik jihozlar va ma'lumot qayta ishlovchi mashinalar.	20%
2. Yuk tashuvchi avtomobillar, avtobuslar, mahsus avtomobillar va avtopriseplar. Sanoatning barcha sohalari uchun mashina va uskunalar, quyma ishlab chiqarish, temirchilik-presslash uskunalar, qurilish uskunalar, qishloq xo'jaligi mashinalari va uskunalar. Ofis mebellari.	15%
3. Temir yo'l, dengiz, daryo va havo transport vositalari. Kuch mashinalari va uskunalar: issiqlik-texnika uskunalar, trubina, elektrosvigatellar va dizel generatorlari. Elektr-uzatish va aloqa qurilmalari truboprovodlar.	8%
4. Bino, inshoot va qurilmalar.	5%
5. Boshqa guruuhlarga qo'shilmagan aktivlar	10%

Shunday qilib, soliqqa tortish bazasini aniqlashda amortizatsiya ajratmalari belgilangan normalar chegarasidagina chegirilib tashlanadi. Tezkor amortizatsiya yo'li bilan hisoblangan summa va yuqorida aytib o'tilgan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summalarini orasidagi farq chegirilmaydi.

*Lizing beruvchining soliqqa tortiluvchi foydasini aniqlash.* Lizing beruvchining lizing operatsiyasini amalga oshirishdan oluvchi daromadi, buxgalteriya hisobi tamoyillar asosida aniqlanadi. **Lizing beruvchining daromadi – lizing to'lovlarini summasi va lizing predmetini qoldiq qiymati orasidagi farqidir.** Lizing beruvchining daromadi grafik bo'yicha olinishi lozim bo'lgan davrda hisoblash usulida hisoblanadi.

<sup>1</sup> УзР Солик кодекси Т.: Адолат, 2000, 256.

O‘zbekistonda Markaziy bank refinanslash stavkasi chegarasida qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha soliq to‘lovchi to‘laydigan foizlar yalpi daromaddan chegiriladi. **Biroq, kredit hisobidan lizingni moliyalashtirilishi ustunlikka ega – lizing beruvchi predmetini sotib olishga olingan kredit muddati va foiziga qaramay, foiz summalarini va boshqa belgilangan kredit to‘lovlarini chegirishi mumkin.** Lizing oluvchining yalpi daromadidan lizing to‘lovingning butun summasi emas, faqat lizing beruvchining daromadi (foizi). Shuningdek, lizing predmeti summasi chegiriladi.<sup>1</sup>

*Kurs farqidan daromad (chiqim).* O‘zbekiston soliq qonunchiligiga mos ravishda, chet el valyutasida ko‘rsatilgan balans moddalari bo‘yicha ijobiy kurs farqi (milliy valyuta kursi pasayishidan kurs farqi) daromad sanaladi, salbiy kurs farqi mos ravishda – chiqim. Ijobiy kurs farqi soliqqa tortish bazasini kattalashtiradi, salbiy kurs farqi esa foyda solig‘ini hisoblashda soliqqa tortish bazasidan chegiriladi.

*To‘lov manbasidan norezident daromad solig‘ini undirish.* Soliq kodeksiga muvofiq, norezident daromadi (foydası) O‘zbekistonda muhim o‘rnatalishi bilan bog‘liq bo‘lmasa, O‘zbekistondagi to‘lov manbayidan soliqqa tortiladi va yalpi daromadi bo‘yicha chegirmalar qilmaydi. Manbani soliqqa tortish O‘zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida to‘lov bo‘lganligiga qaramasdan qo‘llaniladi. **Xalqaro lizing shartnomalari bo‘yicha norezident – lizing beruvchilar daromadi, lizing oluvchi tomonidan lizing to‘lovi ichida (to‘lanadigan) 20 %li stavka bo‘yicha soliqqa tortiladi.**

Lizing beruvchi – norezident daromadini soliqqa tortilishga yana ta’sir etuvchi omil – bu lizing beruvchi va lizing oluvchi davlat yurisdiksiyalarga kiruvchilar orasida ikki tomonlama soliqqa tortilishni aylanib o‘tish haqidagi ikkitomonlama kelishuv mavjudligi. Odatda, bunda kelishuvlar ijara (lizing) to‘lovlari nisbatli norezident daromadlariga soliq chegaralanadi, stavka norezidentga to‘lovlarning 10 %dan oshmasligi kerak.

*Jismoniy shaxslar daromadi solig‘i.* Soliqqa tortish obyekti chegirmalarni hisobga olgan holda yillik yalpi daromad hisoblanadi. Jismoniy shaxslar yillik yalpi daromad pul va boshqa vositalar qo‘shiladi. Soliq to‘lovchi tomonidan olinishi kerak (olangan) daromadlar: ish haqini to‘lash ko‘rinishidagi daromad; jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari; jismoniy shaxslar tadbirkorlik

---

<sup>1</sup>[www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Проект по развитию лизинга в Центральной Азии 2004, 54-586.

faoliyatidan daromadlar. Soliq stavkasi daromad hajmiga bog‘liq ravishda 13 %dan 32 %gacha differensiyalashadi.

## **12.5. Aksiz solig‘i. Ekologiya solig‘i. Mulk solig‘i. Infratuzilma rivojlanishi solig‘i**

Aksiz solig‘iga O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan va import qilinadigan aksiz tovarlar tortiladi.

### **Aksiz solig‘i olinmaydi:**

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan alohida tovarlar ro‘yxatidan tashqari, barcha eksport tovarlari.
- Xususiy ehtiyojlari uchun budget assignasiyalari hisobidan budget tashkilotlari (yoki ular buyurtmalari bo‘yicha) tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan tovarlar.

*O‘zbekistonda ishlab chiqariluvchi aksiz osti tovarlarga aksiz solig‘i.*

Aksiz osti tovarlari uchun soliqqa tortish obyekti O‘zbekistonda ishlab chiqariluvchilarning QQSSiz bahosi (o‘ziga aksiz solig‘ini qo‘sadi) yoki tovar jismoniy hajmi. Aksiz osti tovarlari ro‘yxati va aksiz solig‘i stavkasi O‘zbekiston hukumati tomonidan o‘rnatilgan va qayta ko‘rib chiqiladi. Lizing predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan aksiz osti tovarlariga “UZDAEWO” QK ishlab chiqaruvchi avtomobilarni kiritish mumkin. Ularga soliq stavkasi 22,5 % o‘rnatilgan, hamda video va audioapparatura soliq stavkasi – 5 % teng.

*Import qilinayotgan aksiz osti tovarlariga aksiz solig‘i.* Soliqqa tortish obyekti – hukumat tomonidan tasdiqlangan aksiz osti tovarlari ro‘yxati va stavkasi. Import qilinayotgan aksiz osti tovarlar uchun aksiz solig‘i bojxona rasmiylashtirishdan oldin yoki mobaynida to‘lanadi. Lizing predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan import qilinayotgan aksiz osti tovarlariga transport vositalari, sovutish va muzlatish uskulalari, video va audioapparatura, mebellar kiradi.

**Ekologiya solig‘i.** Soliqqa tortish obyekti – ishlab chiqarish xarajatlari va davr xarajatlari hisoblanadi, bundan budgetga majburiy to‘lovlar, soliqlar, yig‘imlar va davlat maqsadli fondlariga ajratmalar mutasno. Ekologiya solig‘i 1 % stavka bilan to‘lanadi.

Lizing kompaniyalarda lizing operatsiyalari bo‘yicha soliqqa tortish obyekti quyidagi davr xarajatlaridir: ma’muriy-boshqaruv chiqimlari; realizasiya chiqimlari; boshqa operasion chiqimlar (budgetga majburiy to‘lovlar, soliqlar, yig‘imlar, yo‘l fondiga ajratmalar, 0,5 % hajmda nafaqa fondiga ajratmalar bundan mustasno).

**Ishlab chiqarish korxonalari lizing oluvchilarda soliqqa tortish obyekti – ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘shulgan lizing predmetini amortizatsiyasidir.**

**Mol-mulk solig‘i. Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i.**

Yuridik shaxslar uchun soliqqa tortish obyekti – nomoddiy aktivlar va asosiy vositalarning o‘rta yillik qoldiq qiymatidir, hamda o‘z vaqtida tugatilmagan qurilish obyektining bahosi. Soliq stavkasi – 3,5 %. Normativ muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar (ishlatilmayotgan uskunalar) uchun mol-mulk solig‘i ikkilangan stavka bo‘yicha to‘lanadi.

**Lizing predmeti kimning balansida bo‘lsa, o‘sha mol-mulk solig‘ini to‘laydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 - avgust 2002 - yildagi № 3122 Qaroriga muvofiq 2001 - yil 1 - sentyabrdan lizing oluvchilar lizing predmeti bo‘yicha mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod qilinganlar.**

**Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i.** Jismoniy shaxslar soliqqa tortish obyekti – ularga tegishli bo‘lgan turar uylar, kvartiralar, dacha va bog‘ uylari, garaj va boshqa qurilmalar, joylar va inshootlardir. 1998 - yil 1 - yanvardan so‘ng qayta baholangan soliqqa tortish obyektlari bo‘yicha soliq stavkasi 0.5 %, qayta baholanmaganlar uchun esa – 7 %.

**Infratuzulmani rivojlantirish solig‘i.** Soliqqa solish obyekti – barcha soliqlarni to‘lashdan keyin qolgan foydadir. Soliq stavkasi – korxonada qolgan sof foydadan 8 %.

Mikrofirma va kichik korxonalar o‘z ixtiyorlari bilan, soliqqa tortishning soddalashgan tizimini qo‘lashlari yoki bu kategoriya soliq to‘lovchilar uchun nazarda to‘tilgan barcha soliqlar yig‘indisini to‘lashlari mumkin. Soliq to‘lashning soddalashgan tizimi umum davlat soliqlarini yig‘indisini to‘lash o‘rniga yagona soliqni to‘lashni nazarda tutadi, unga shuningdek quyidagilardan tashqari mahalliy soliq va yig‘imlar kiradi:

- savdo qilish huquqi uchun yig‘im, unga alohida tovarlar bilan savdo qilish uchun litsenziya yig‘imlari ham kiradi;
- yuridik shaxslarni registrasiya qilish uchun yig‘im.

Yagona soliq stavkasi va uni to‘lash tartibini Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. 2003 - yil 1 - yanvardan yagona soliqning quyidagi stavkalari amalda (17-jadval).

Soliq stavkalarini to‘lash tartibi<sup>1</sup>

To‘lovchilar	Tovar (ish,xizmat) sotuvi hajmidan %
Sotib oluvchi, ta’minlovchi-sotuvchi korxona, brokerlik firmalari	30 (yalpi daromaddan %da)
Shaxsiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar	50
Gastrol-konsert faoliyati uchun litzenziyasi bor jismoniy va yuridik shaxslarni, ham norezidentlarni jalb qilgan holda ommaviy tomasha tadbirlarni tashkillashtirishdan daromad oluvchi korxonalar	35
Qishloq xo‘jaligi korxonalari, bularidan yagona yer solig‘ini to‘lovchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mustasno	6
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar	12 (lizing beruvchi daromadidan %da)

Soliqqa tortish bazasiga shuningdek quyidagilar kiradi: sotilgan mulk va boshqa aktivlar bahosi; moliyaviy faoliyatidan daromadlar. Bunda balansning valyuta qatorlarini qayta baholashdan daromad – ijobiy va salbiy kurs farqlari orasidagi savdo hisoblanadi. Ijobiy savdo soliqqa tortish bazasiga qo‘shiladi, salbiy savdo esa soliqqa tortish bazasini pasaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanuvchi boshqa daromadlar.

### 12.6. Bojxona tomonidan tartibga solish

O‘zbekistonda bojxona nazorati Bojxona Kodeksi, “Bojxona tarifi haqida” qonun, Prezident qarorlari, O‘zbekiston Vazirlar Maxkamasi qarorlari va qonunchilikning boshqa aktlari bilan amalga oshiriladi.

*Bojxona to‘lovlar.* Tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o‘tishida yuridik shaxslar quyidagi asosiy bojxona to‘lovlarini to‘laydilar: bojxona boji; qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS); aksiz solig‘i; bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig‘imi. Hisoblash va to‘lash tartiblari, QQS stavkasi va aksiz solig‘i stavkasi soliq qonunchiligi bilan tartib solinadi.

*Import bojxona boji.* O‘zbekiston eng yaxshi sharoitlar rejimini qo‘llovchi davlatlardan import qilinayotgan tovarlar uchun bojxona bojlari hukumat tomonidan belgilanadi va doimo ko‘rib chiqiladi. Odatta, stavkalar import qilinayotgan tovarlarni bojxona bahosidan 0 dan 30 %gacha o‘zgaradi.

<sup>1</sup> [www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Проект по развитию лизинга в Центральной Азии 2004, 54-586.

Transport vositalariga esa, ularning dvigatellar hajmiga qarab stavkalar belgilanadi.

### **Bojxona bojlarini aniq stavkasini qo'llanishi tovar klassifikasiyasi (turi), import kelib chiquvchi tovar kabi omillarga bog'liq.**

Kelib chiqishi o'rnatilmagan, hamda eng yaxshi sharoitlar rejimi qo'llanuvchi davlatlarga kirmaydigan davlartlardan kelgan tovarlar uchun import bojxona bojlari stavkalari ikkilanadi.

"Bojxona tarifi haqidagi" qonunga muvofiq preferensial olib kirish (olib chiqish) bo'yicha bojxona tariflaridan preferensiylar berish bojni to'lashdan ozod qilish, boj stavkasini kamaytirish yoki tarif kvotalarini belgilash ko'rishlarida quyidagi tovarlarga nisbatan beriladi:

- O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo xududini shakllantiruvchi yoki bojxona ittifoqini hamda bunday ittifoqni yoki hududni tuzishni nazarda tutuvchi kelishuvi mavjud davlatlardan kelgan tovarlar.
- O'zbekiston Respublikasi milliy preferensiylari tizimiga monand rivojlanuvchi davlatlardan kelib chiquvchi tovarlar. O'zbekistonga kiritiluvchi texnologik uskunalar bojxona bojidan ozod qilinadi, agar importer banki mos hujjatlar taqdim etsa.

*Eksport bojxona boji.* 1997 - yil 1 - noyabrdan O'zbekistonda barcha eksport bojxona bojlari bekor qilingan.

*Bojxona rasmiylashtiriluvchi uchun bojxona yig'imi.* Tovar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiriluvi uchun yig'imi (tranzit bojxona rejimi, davlat foydasiga voz kechish, vaqtinchalik saqlashlardan tashqari) ularning bojxona qiymati 0,2 %dir. Mustasno esa quyidagi olib kiriluvchi tovarlardir, ularga 0,05 %li pasaytirilgan stavkalar belgilangan: bo'g'doy, shakar va qurilayotgan ishlab chiqarish obyektlari uchun butilovchi uskunalar.

*Lizing predmetining bojxona chegarasidan o'tkazish (olib chiqish va olib qirish).* Lizing shartnomasini amalga oshirishda turli xil vaziyatlar bo'lishi mumkin, u shartnomaning qaysi tomoni O'zbekistondaligiga bog'liq. O'zbekistondagi lizing beruvchi chet-eldagi lizing oluvchiga lizing predmetini berishdagi vaziyatda, bojxona to'lovlari ko'rinishdagi moliyaviy xarajatlarni umuman ichiga olmaydi, chunki, O'zbekistonda eksport tovarlariga soliqlar va bojlar yo'q. Bu holatda lizinga beruvchi faqatgina bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imini to'laydi holos.

## **Qisqa xulosalar**

Lizing subyektlariga umumiy soliqqa tortish shartlari qo'llaniladi va quyida keltirilgan QQS, foyda va mol-mulk soliqlari bo'yicha bir qator imtiyozlar beriladi.

O'zbekistonda lizing to'lovlari QQSdan ozod qilingan. O'zbekistoniga kiritilayotgan texnologik uskuna QQS ozod qilinadi, agar importyorga xizmat ko'rsatuvchi bankning tasdiqlovi bo'lsa.

Lizing oluvchining umumiy (to'liq) daromadidan soliqqa tortish bazasini belgilashda butun lizing to'lovi chegirilmaydi, faqat uning tarkibida lizing beruvchi daromadi. Shuningdek, lizing oluvchi yalpi daromadidan lizing predmeti amortizatsiyasi summasi, hamda lizing beruvchining umumiy tartibdagi barcha boshqa xizmatlarni narxi chegiriladi. Soliq Kodeksiga mos ravishda, foydani soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya ajratmalari lizing oluvchida amalga oshiriladi.

Lizing beruvchining daromadi – lizing to'lovlari summasi va lizing predmetini qoldiq qiymati orasidagi farqidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 - avgust 2002 - yildagi № 3122 Qaroriga muvofiq 2001 - yil 1 - sentyabrdan lizing oluvchilar lizing predmeti bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinganlar.

O'zbekistondagi lizing beruvchi chet-eldagi lizing oluvchiga lizing predmetini berishdagi vaziyatda, bojxona to'lovlari ko'rinishdagi moliyaviy xarajatlarni umuman ichiga olmaydi, chunki, O'zbekistonda eksport tovarlariga soliqlar va bojlar yo'q. Bu holatda lizinga beruvchi faqatgina bojxona rasmiylashtirushi uchun yig'imini to'laydi holos.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida lizing bitimlarni ishtiroqchilariga qanday soliq imtiyozlar berilgan?
2. O'zbekiston Respublikasida lizing operatsiyalarini soliqqa tortish to'g'risida normativ hujjatlarni sanab bering.
3. Lizing beruvchining daromadi nimadan iborat?
4. Lizing predmetidan amortizatsiya chegirishi to'g'risida to'laroq aytib bering.
5. Lizing operatsiyani lizing oluvchining olayotgan foydasini soliqqa tortishga ko'rsatuvchi ta'siri to'g'risida tushuntirib bering.
6. Soliqqa tortish bazasini aniqlashda qanday amortizatsiya ajratmalar normalari belgilangan?

7. Tovarlarga bo‘lgan bojxona bojlari haqida aniqroq so‘zlab bering.
8. Lizing obyektlaridan bojxona bojlari olinadimi?
9. Soliq stavkalarni to‘lash tartibi to‘g‘risida so‘zlab bering.
10. Lizing predmeti bo‘yicha mol-mulk solig‘i to‘lanadimi?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. ЎзР Солиқ кодекси. - Т.: Адолат, 2000.
2. [www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Проект по развитию лизинга в Центральной Азии 2005
3. Фозибеков Д.Ф. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма— Т.: Фан ва технология, 2004.
4. Лещенко М.И. Основы лизинга.- М.: 2001.
5. “Лизинг хизматларни ривожлантириш бўйича тадбирлар тўғрисида” ЎзР Вазирлар Махкамасини Қарори №199 2004 й. апрель.

## IZOHLI LUG‘AT

*Avans (bo‘nak)* – oldindan to‘liq yoki qisman to‘lanuvchi pul miqdori.

*Aksiz* – lizing obyektiga bilvosita (egri) soliq. Aksizlar individual va universal turlarga taqsimlanadi. Individual aksizlar ayrim tovarlardan tovar birligiga qat’iy belgilangan stavkalar bo‘yicha olinadi. Universal aksiz (oborot solig‘i) tovarning ichki ishlab chiqarish qiymatidan, shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatlar pul aylanmasidan olinadi.

*Assotsiatsiya (lizing assotsiatsiyasi)* - iqtisodiyot va ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan tarmoqlararo va mintaqaviy masalalarni hal qilish uchun tashkil etiluvchi ko‘ngilli jamoatchilik tashkiloti. Assotsiatsiya – to‘liq xo‘jalik mustaqilligi, o‘zini-o‘zi moliyalashtirish va qoplash asosida faoliyat ko‘rsatuvchi yuridik shaxs. U qatnashchilarning umumiy ulush mulki huquqi bo‘yicha mulkka ega bo‘ladi.

*Biznes-reja* – belgilangan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi, vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirilgan va kelishilgan, amalga oshirish mumkin bo‘lgan tadbirkorlik xatti-harakatlari rejasи.

*Bojxona boji* – davlat chegerasidan bojxona nazorati ostida o‘tkaziluvchi tovarlar, mulk va boshqa qimmatliklardan olinuvchi pul to‘lovleri.

*Bojxona tariflari* – mamlakat hududiga olib kiriluvchi yoki olib ketiluvchi tovarlarga belgilanuvchi bojlar.

*Garov* – shartnomaning bajarilishini ta’minalash chorasi. Garov huquqi tufayli kreditor qarz oluvchining qonun tomonidan belgilangan majburiyatini bajarmagan holda garovga qo‘yilgan mulkidan undirib olishi mumkin. Agar qonunda boshqa narsa ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bu xo‘jalik sudi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

*Yevropa qayta tiklanish va rivojlanish banki* – 1990 - yilda Sharqiy Yevropa mamlakatlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun tashkil qilingan. Bankning o‘z kapitali 12 mlrd. dollarga teng. Yarmidan ko‘pini Yevropa Kengashi mamlakatlari kiritadi.

*Ijara* – shartnomaga asoslangan holda yer, boshqa tabiiy resurslar, korxonalar va boshqa mulk majmularidan, shuningdek, ijaraga oluvchiga xo‘jalik faoliyatini mustaqil amalga oshirishda zarur bo‘lgan boshqa mulkdan haq evaziga muddatli foydalanish va egalik qilish.

*Investitsion faoliyat* – fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning investitsiyalarni amalga oshirish uchun amalga oshiruvchi xatti-harakatlar majmui.

*Investitsiya* – tadbirkorlik va boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga kiritiluvchi mulkiy va intellektual qimmatliklar, ularning natijasida foyda (daromad) olinadi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi.

*Infratuzilma* – aholining ijtimoiy-madaniy hayoti va moddiy ishlab chiqarish sohasining faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlovchi obyektlar, korxonalar va tarmoqlar majmui.

*Ipoteka* – uzoq muddatli ssuda olish maqsadida mult garovi.

*Kiritilgan kapitaldan olinuvchi daromad* – balans bo'yicha foydaning (zararning) umumiyligi passiv miqdoriga nisbati sifatida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich lizing oluvchining asosiy va aylanma vositalaridan foydalanish samarasini tavsifaydi hamda tarmoq yoki mintaqadagi boshqa korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

*Kontrakt (shartnoma)* – tomonlarning huquq va majburiyatları, shuningdek, majburiyatları bajarish muddati ko'rsatilgan kelishuv, shartnoma.

*Kredit* – pul qiymatining to'lov muddati o'tib ketgan tovarlarni sotish yoki vaqtinchalik berish amalga oshiriluvchi o'ziga xos shakli. Kreditning ikki xil turi mavjud: tijorat krediti – bunda tomonlar sotilgan tovar uchun to'lov muddatini kechiktirish yo'li bilan tovarni sotish yoki sotib olishda bir-birini kreditlaydi; bank krediti – bunda banklar pul ssudasini taqdim etadi.

*Lizing* – murakkab, dinamik tizim, kredit, investitsion va ijara bitimlari elementlarini qamrab oladi, keyinchalik mult huquqini o'zgartirish natijasida ishlab chiqarish vositalarining ularni sotib olish yoki ijaraga berish yo'li bilan vaqtinchalik foydalanishga berish bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni amalga oshiriladi.

*Lizing xizmati* – o'ziga xos tovar. Buyum shaklidagi tovarlardan farqli o'laroq zarur hollarda jamlash va sotish mumkin. Lizing xizmati moliyaviy va mulkiy xizmatni ifodalaydi.

*Lizing xizmatlari diversifikasiyasasi* – lizing obyektlari yoki ko'rsatiladigan xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish.

*Lizing shartnomasi* – ikkita (jismoni yoki yuridik) shaxsning biron-bir huquq va majburiyatlarini o'rnatish, belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha kelishuvi. shartnoma predmeti, narxlar, muddatlar hamda tomonlardan birining oldindan berilgan arizasiga muvofiq kelishuvga kelish mumkin bo'lgan shartlar shartnomaning asosiy bandlari hisoblanadi.

*Makroiqtisodiy risklar* – iqtisodiyotdagi o'sish yoki inqirozni kutish, bank sohasining rivojlanish darajasi, yalpi milliy mahsulot o'sishining pasayishi va

siyosat bilan bog‘liq xo‘jalik munosabatlari dagi qiyinchiliklar jarayonida yuzaga keladi.

*Narxni erkinlashtirish* – bozor iqtisodiyotiga o‘tishning talablaridan biri. Narxlarning keskin va sezilarli o‘sishi, bir vaqtning o‘zida ularning nisbati o‘zgarishi va markazdan nazorat qilinmay qo‘yilishini anglatadi.

*Oldi-sotdi shartnomasi* – bozor iqtisodiyotida qo‘llanuvchi asosiy shartnoma turlaridan biri. Oldi-sotdi shartnomasiga ko‘ra sotuvchi xaridorga mulk qilib sotishni, xaridor esa mulk qilib sotib olish va buning uchun belgilangan miqdorda haq to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

*Oferta* – tomonlarning biridan taklif etiluvchi ma’lum bir sharoitlarda shartnoma tuzish taklifi. Shartnoma ikkinchi tomon rozilik bildirgan holda haqiqiy deb hisoblanadi.

*Risk* – kompaniyaning o‘z resurslari bir qismini yo‘qotish, daromadni to‘liq olmaslik yoki xo‘jalik faoliyatida qo‘shimcha xarajatlarning paydo bo‘lish xavfi.

*Samaradorlik* – iqtisodiy nazariyaning asosiy muammosi, jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga erishish uchun cheklangan resurslardan eng yaxshi foydalanish yoki ularni qo‘llash yo‘llarini tadqiq etadi.

*Siyosiy risklar* – davlatning iqtisodiy siyosati, siyosaiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida vujuga keluvchi moliyaviy yo‘qotishlar.

*Soliq imtiyozlari* – soliq to‘lovlaridan to‘liq yoki qisman ozod qilish. Xususan, lizing subyektlariga QQS, foya solig‘i va mulk solig‘i bo‘yicha bir qator imtiyozlar ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda lizing to‘lovleri QQSdan ozod qilingan. O‘zbekistonga kiritiluvchi texnologik asbob-uskunalar importchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangandan so‘ng ozod qilinadi.

*Soliq risklari* – soliq sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlaridagi noaniqlik va ziddiyatlar.

*Soliqlar* – yuridik va jismnoiy shaxslardan davlat tomonidan undiriluvchi majburiy to‘lovlar. Soliqlar ikkita vazifani: fiskal va iqtisodiy vazifani ifodalaydi. Fiskal vazifa davlatning pul daromadlarini tashkil qilish va davlat faoliyati uchun moddiy sharoitlar yaratish, jumladan, iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Iqtisodiy vazifa – soliqlardan ishlab chiqarishni tartibga solish, rivojlanishning o‘sish sur’atini to‘xtatib turish yoki rag‘batlantirish, kapital jamg‘arilishini kuchaytirish yoki susaytirish, aholining to‘lov layoqatiga ega talabini kengaytirish yoki kamaytirishda foydalaniladi.

*Tijorat banki* – paychilar kengashi tomonidan boshqariluvchi mustaqil aksiyadorlik tashkiloti. Mustaqil balansga ega yuridik shaxs hisoblanadi. Faktoring va lizing operatsiyalarini bajaradi.

*Foyda solig'i* – korxonalar sof daromadining bir qismini davlat daromadlari foydasiga o'tkazish shakli. Soliqqa tortiluvchi foyda balansdan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

*Huquqiy risk* – qonun hujjatlarining o'zgarishi natijasidagi yo'qotishlar bilan bog'liq bo'ladi.

*Egalik qilish* – shaxsning buyum ustidan amalda hokimligini anglatuvchi mulk huquqi elementi. Egalik qilish mulk huquqidan ajratilishi va uning egasi tomonidan amalga oshirilmasligi mumkin. Egalik qilish mulk egasiga, uning hohishiga ko'ra yoki qonunchilik va ma'muriy huquq talablari bo'yicha uchinchi shaxsga tegishli bo'lgan hollarda qonuniy hisoblanadi. Huquqiy asosga ega bo'lмаган egalik qilish noqonuniy hisoblanadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон 2003 й.
2. Ўзбекистон Республикаси “Лизинг тўғрисида”ги Қонун 14 апрел 1999 й.
3. “Ўзбекистон Республикасидаги барча қонуний актларига ўзгартиришлар ва кўшимчалар киритиш тўғрисида” Қонун 2002 й.

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari**

4. “Лизинг тизимини ривожлантириш рағбатлантириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”, № 199 2002 й. 28 август
5. “Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантириш борасида кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” // Халқ сўзи, 2005, 21 июня.
6. “Тадбиркорлик субъектларини хукуқий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” // Халқ сўзи, 2005, 16 июн.

### **3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini qarorlari**

7. “Ўзқишлоқхўжаликмашхолдинг” таркибдаги ишлаб чиқариш корхоналарни лизинг шартларида қишлоқ хўжалик техникани олиш тартиби тўғрисида ЎзР Вазирлар Махкамасини Қарори №424, 2000 й. 2 ноябрь.
8. “Лизинг хизматларни ривожлантириш бўйича тадбирлар тўғрисида” ЎзР Вазирлар Махкамасини Қарори №199 2004 й. апрель

### **4. O'zbekiston Respublikasi huquqiy-normativ xo'jjatlari**

9. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси Т: Хуқуқий адабиёт 2002.
10. Ўзбекистон Республикаси солиқ кодекси - Т.: “Адолат”, 1999- 406.
11. Ўзбекистон Республикаси миллий бухгалтер стандарти №6

### **5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

12. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – хамкорликда демократик ривожланиши ва маърифат йўли. Т.11 – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
13. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ

этишдир”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2005, 29 январь, 20 сон.

14. Каримов И.А. О банковской системе денежном обращении кредитах инвестициях и финансовой стабильности. – Т.: “Узбекистан” 2005

## **6. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

15. Вахрин П.И. Инвестиции: Учебник – М.: 2002.
16. Газман В.Д. Лизинг: теория, практика, комментарии. Учебник – М.: Фонд “Правовая культура”, 2000. – 416 с.
17. Горемыкин В.А. Лизинг: Учебник. – М.: Дашков и К°, 2003. 944 с.
18. Джуха В.М. Лизинг. Учебное пособие – Ростов н/Д.: Феникс, 1997
19. Горемыкин В.А. Основы технологии лизинговых операций Учебное пособие – М.: ИНФРА-М, 2000. – 384 с.
20. Прилуцкий Л.Н. Финансовый лизинг. Правовые основы, экономика, практика. Учебное пособие – М.: Издательство “Ось –89” 1999. – 272 с.
21. Прилуцкий Л.Н. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российской Федерации. Учебное пособие – М.: Издательство “Ось - 89” 2000. – 128с.
22. Комаров В.В. Инвестиции и лизинг в СНГ. Учебное пособие – М.: Финансы и статистика, 2001
23. Лещенко М.И. Основы лизинга Учебное пособие – М. “Финансы и статистика”, 2001г. – 336с.
24. Газибеков Д.Г., Сабиров О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане. Учебное пособие – Т.: Молия, 2001- 132 с.
25. Фозибеков Д.Ф. ва бош. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма– Т.: Фан ва технология, 2004. – 308 с.
26. Исмайлова С.С."Ўзбекистон агросаноат мажмуасида лизинг фаолиятини ривожлантиришнинг иқтисодий асослари". Монография. -Т: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ". -2011. -123 б.

## **7. Gazetalar va jurnallar**

27. Исмайлова С.С.Лизинг как вид инвестиционно-предпринимательской и инновационной деятельности / Журнал: Экономика и финансы. Москва. 2011 г. №4(184) апрель. С.41-42.

28. Газибеков Д. Финансирование инвестиционных проектов и лизинг //Ж.Рынок, деньги и кредит, 2000, №5, с.12-15.
29. Мезенцев Е., Маъмуроев А. Лизинг – нетрадиционный метод финансирования //Рынок, деньги и кредит январь 2000, №1, с.17-18.Блинов А. Развитие лизинга в России //Маркетинг 2000, №3.
30. Киркоров А. Методы определения эффективности финансового лизинга по сравнению с кредитом // Лизинг ревю – 2000 - № 5/6
31. Красева Т. Влияние амортизации и процентной ставки на динамику лизинговых платежей //Маркетинг 2001. № 6, с.56-59.
32. Николаенко А.Н. Использование маркетинга в развитии лизинга // Ж. Маркетинг, 2001, №3, с.65-67.
33. Назарова Ф.М. Агросаноат мажмууда лизинг фаолиятини йўлга қўйиш// Ж.“Ўзбекситон иқтисодий ахборотномаси” 2001, №3, 30-32с.
34. Назарова Ф.М. Деҳқон ва фермер хўжаликлари ривожланишида лизинг фаолияти // Ж.“Экономический вестник Узбекистана”, 2001, №4/5, с. 34-35.
35. Мустафаев З. “Узбеклизингинтернейшнл АО”: Рынок лизинга расширяется. // Новости Узбекистана 2002, № 43 (118), с.1-2.
36. Лизинг Инфо. Лизинговые компании Узбекистана //Бизнес-вестник Востока 2002, №42 (560), №43 (561), с.7-8.
37. Лизинг Инфо. МФК в Узбекистане //Бизнес-вестник Востока 2002, №39 (557), с.5.
38. Лизинг Инфо. Лизинг: налоговые барьеры преодолены! Проект МФК по развитию лизинга в Центральной Азии //Бизнес-вестник Востока 2002, №37 (555), с.5.
39. Назарова Ф.М. Развитие лизинговой деятельности в отраслях экономики Республики Узбекистан // Ж. “Экономика и класс собственников”, 2003, №2, с.18-22.
40. Назарова Ф.М., Рузметова С.А. Роль маркетинга в управлении рисками и диверсификации деятельности лизинговых компаний // Ж. “Экономика и класс собственников”, 2003, №4, с.15-17.
41. Лизинг Инфо. Новые изменения в законодательстве о лизинге// Бизнес-вестник Востока 2003, №36 (606), с.5.
42. Лизинг Инфо. Обзор лизингового рынка Узбекистана // Бизнес-вестник Востока 2004, №21-22 (643-644), с.6.
43. Орлова Т. Всё о лизинге за “круглым столом” // Народное слово. 2004, № 44, 3 с.

## **8. Statistik ma'lumotlar to'plami**

44. Промышленность Республики Узбекистан – Т.: Госкомитет РУз по статистике 2005

45. Узбекистан в цифрах. Стат. Сборник 2005

46. Международная финансовая корпорация. Проект по развитию лизинга в Центральной Азии 2004.

## **9. Internet Vebsaytlari**

47. [www.ifc.org/centralasia](http://www.ifc.org/centralasia) Международная финансовая корпорация. Проект по развитию лизинга в Центральной Азии.

48. <http://www.leasbusi.ru/> Анализ деятельности Российских лизинговых компаний.

49. [www.uzbekleasing.com](http://www.uzbekleasing.com).

50. <http://www.innov.ru/leasing/newsi/in-i.htm>

51. [www.cis2000.ru](http://www.cis2000.ru) marketing-land.com.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	<b>7</b>
I-bob. Lizingning nazariy asoslari 1.1.Lizingning ta'rifi va mohiyati. 1.2.Lizing obyektlari va subyektlari. 1.3.Iqtisodiyotda lizingning asosiy funksiyalari va afzalliklari. 1.4.Lizing turlari va lizing bitimlarni amalga oshirish mexanizmi. 1.5.Iqtisodiyotda lizing rivojlanishi samaradorligining asosiy yo'nalishlari.	10
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
II-bob. Lizing munosabatlarini huquqiy tartibga solish 2.1. Lizingning qonun hujjalari bilan ta'minlanishi. Lizing munosabatlarining huquqiy tabiatи. 2.2. Lizing shartnomasi - lizing bitimlarining huquqiy shakli sifatida. 2.3. Lizing shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlar. 2.4. Lizing shartnomasini imzolash jarayoni. 2.5.Shartnomaning bajarilishi va tomonlarning javobgarligi.	29
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
III-bob. Lizingni rejalashtirish va tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 3.1. Lizing jarayonini tashkil etishning umumiy sxemasi va bosqichlari. 3.2. Lizing bitimlarini tayyorlash va asoslab berish. 3.3. Lizing loyihalaring kompleks ekspertizasi. 3.4. Tadbirkorlik loyihasi va lizing oluvchini moliyaviy baholash.	42
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
IV-bob. Lizing bitimlarining iqtisodiy asosi 4.1. Lizing to'lovlarining turlari. 4.2. Lizing to'lovi hajmini aniqlash usullari. 4.3. Lizing bitimlarini tugatish tartibi va shartlari.	56
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
V-bob. Jahon bozorida lizing siyosati 4.1. Lizingning jahon miqyosida rivojlanish xususiyatlari. 4.2. Lizingning jahon integrasiyasi bilan bog'liqlikda rivojlanishi. 4.3. Rivojlangan mamlakatlarda lizingning rivojlanishi. 4.4. Mustaqil Davlatlar Hamkorligi mamlakatlarda lizingni huquqiy asoslari. 4.5. Lizing munosabatlarning xalqaro unifikatsiyasi. 4.6. Lizing bozori infratuzilmasini shakllantirish yo'llari.	65
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
VI-bob. Lizingning banklar tomonidan moliyalashtirilishi. Tavakkalchilik va sug'urtalash 6.1. Lizingning banklar tomonidan moliyalashtirilishi.	84

6.2. Lizing operatsiyalarida tavakkalchiliklar.	
6.3. Lizing faoliyatini sug‘urtalash.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
VII-bob. Lizing jarayonini boshqarish	97
7.1. Lizing munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy shakllari.	
7.2. Lizing jarayonini boshqarishning tashkiliy shakllari.	
7.3. Lizing kompaniyalarining tashkiliy tuzilmasi.	
7.4. Lizing kompaniyalarini tashkil etish.	
7.5. Lizing faoliyatiga ro‘hsatnoma berish.	
7.6. Lizing kompaniyalari birlashmalarini tuzish uslubiy asoslari.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
VIII-bob. O‘zbekistonda lizingning paydo bo‘lishi va rivojlanishi	112
8.1. Respublikamizda investitsiya faoliyatining holatini tahlil qilish.	
8.2. Respublikamizda lizing xizmatlari bozorini rivojlanish tendensiyalari.	
8.3. Bank tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalari.	
8.4. Lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalari.	
8.5. Lizing xizmatlari bozorni muammolari.	
8.6. Lizing xizmatlari bozorini rivojlanish istiqbollari.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
IX-bob. Lizingning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari	131
9.1. Lizingning samaradorligini iqtisodiy baholash zarurati.	
9.2. Lizing samaradorligini baholash usullarini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi sabablar.	
9.3. Lizingning iqtisodiy samaradorligini baholashni asosiy usullari.	
9.4. Lizing operatsiyalarni umumiy narxini aniqlash usuli.	
9.5. Lizing bitimini foyda normasini aniqlash usuli.	
9.6. Asbob-uskunalarni lizingga va kreditga olishni solishtirma tahlil qilish uslubiyati.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
X-bob. Qishloq va suv xo‘jaligida lizingning roli va ahamiyati	140
10.1. Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida lizing munosabatlarini qo‘llash zarurati.	
10.2. Qishloq xo‘jaligi iste’molchilarini texnik ta’minotini lizing sharoitlarida ta’minlash.	
10.3. Agrolizing operatsiyalarni tashkil etish tartibi.	
10.4. Respublikamizda agrolizing operatsiyalarini amalga oshirish tajribasi.	
10.5. “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyani lizing oluvchilarini bilan munosabatlarni asosiy shartlari.	
10.6. Boshqa sohalarda lizing.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
XI-bob. Investitsion loyihalarni shakllantirish	157
11.1. Investitsion loyihalarni ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari.	

11.2. Marketing rejasi.	
11.3. Ishlab chiqarish va tashkiliy rejalar.	
11.4. Moliyaviy reja.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
XII-bob. Lizingda soliqqa tortish. Bojxona tomonidan tartibga solish	167
12.1. Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish.	
12.2. Qo'shilgan qiymat solig'i. Daromad (foyda) solig'i.	
12.3. Lizing operatsiyalarining lizing oluvchining olayotgan foydasini soliqqa tortishga ko'rsatuvchi ta'siri.	
12.4. Lizing predmeti bo'yicha amortizatsiya chegirmalari.	
12.5. Aksiz solig'i. Ekologiya solig'i. Mol-mulk solig'i. Infratuzilma rivojlanishi solig'i.	
12.6. Bojxona tomonidan tartibga solish.	
<b>Qisqa xulosalar</b>	
Nazorat va muhokama uchun savollar	
Asosiy adabiyotlar	
"Lizing asoslari" fanidan yangi pedagogik texnologiyani qo'llash bo'yicha uslubiy qo'rsatma	179
Izohli lug'atlar	192
Adabiyotlar ro'yxati	198